

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**Raximov Matnazar  
Yusupovich**

**MOLIYAVIY TAHLIL-2  
o'quv qo'llanma**

Toshkent-2003

### **Annotatsiya**

Ushbu o'quv qo'llanmada firma va kompaniyalar moliyaviy holatini baholash, tahlil etishning mazmuni to'liq ochib berilgan. Unda, firma va kompaniyalarni moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida tahlil etishni muhim masalalari o's aksini topgan. Uni o'rghanish asosida talabalar mustaqil, alohida firma va kompaniyalarni moliyaviy ahvolini tahlil etishni nazariy va amaliy asoslari bo'yicha bilimga va malakaga ega bo'ladilar.

O'quv qo'llanma iqtisodiy yo'nalishdagi barcha Oliy o'quv yurtlari magistratura talabalari shuningdek, aspirantlar va ilmiy tadqiqotchilar, qiziquvchilarining keng ommasi uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma TMI «Moliyaviy tahlil» kafedrasining “\_\_\_” 2003 yil,  
\_\_son majlis bayonnomasi bilan nashr qilishga tavsiya etilgan

**«Moliyaviy tahlil»**

kafedrasi mudiri:

Ibragimov A.T.

O'quv qo'llanma Toshkent Moliya instituti qoshidagi Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy Kengashining “\_\_\_” 2003 yil \_\_son majlis bayoni majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

**Rektorning o'quv va metodik  
ishlar bo'yicha muovini:**

**A.Vahobov**

**Tuzuvchilar:**

i.f.n., dotsent M.Yu. Raximov

**Taqrizchilar:**

i.f.n., dotsent Sh. Sh. Shoyaqubov  
dotsent A.A. Abduganiev

## Kirish

Respublikamiz iqtisodiyotidagi tub o'zgarishlarni albatta xukumatimiz tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy isloxoatlarning natijasi deyish mumkin. Bu o'zgarishlarni nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohada balki xayotimizning barcha jabhalarida ko'rish mumkin. Ana shu qatorda biz, iqtisodiy isloxoatlarga va ular ta'siridagi o'zgarishlarga alohida ahamiyat qaratishni lozim topdik. Uning Davlatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi tamoyillardan biri sifatida qaralishi ham bejiz emas.

Bugungi kunda, korxona va tashkilotlarga berilgan imkoniyatlar, ularning o'z maqsadlariga erishishdagi har qanday suniy to'siqlarni bartaraf etilishi, erkinlik va mustaqillikni qaror topishi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Korxona va tashkilotlar xo'jalik faoliyatini tashkil etish va boshqarishda muhim dastak hisoblangan iqtisodiy tahlilning roli ham oshib bormoqda. Buni nimalarda ko'rish mumkin? Bugungi iqtisodiyot, rejali iqtisodiyot davridan farqli ravishda tahlilchilar oldiga bir qadar murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Ta'minot jarayonidan tortib korxona moliyaviy holatiga qadar bo'lgan kompleks jarayon qat'iy rejalashtirilgan bir sharoitda tahlilni mazmunini faqat uning o'zgarishlarini va o'zgarish sabablarini o'rganishdangina iborat deyish mumkin.

Uning bugungi mazmunini esa quyidagicha izohlash mumkin. Iqtisodiy tahlil korxona xo'jalik moliya faoliyatidagi (ro'y bergan, ro'y berayotgan va ro'y beradigan) barcha jarayonlarni, ularning samaradorligi va natijaviyligini ichki va tashki omillar ta'sirida axbarotlarda ifodalangan ko'rsatkichlar tizimidan foydalangan holda davriy o'rganish tashkil etadi. Ya'ni bunda, rejaga nisbatan o'zgarishlar va o'zgarish sabablarini o'rganish tahlilni vazifalar qatorida bir bo'g'inni tashkil etadi halos. Iqtisodiy jarayon boshlangunga qadar, ya'ni korxona o'z faoliyatini boshlashdan oldingi (bozorni o'rganish, marketing tadqiqortlarini olib borishi, raqbatchi va xamkorlar, ishni tashkil etish joyi, o'rmini belgilash kabi) masalalar ham tahlil ob'ekti hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilning ob'ekti va uning ko'lami, sub'ektlari va ularning manfaatlari, mazmuni va vazifalari o'zgardi, uslubiy asosi takomillashdi, tashkiliy assosi qayta qurildi, nazariy asosi boyitildi, xuquqiy asosi qurilmoqda. Bu o'zgarishlar albatta uni yangi asosda tuzish zaruriyatini yuzaga chiqarmoqda.

Iqtisodiy tahlilni boshqaruvning muxim dastagi sifatidagi roli tobora oshib bormoqda. Boshqaruvning barcha bo'g'inlarida uning axbarot manbalariga talab kuchaymoqda.

Iqtisodiy tahlilni boshqaruv va moliyaviy tahlil qismiga bo'linishi ham uning takomillashuvidagi bir ko'rinishdir.

Iqtisodiy tahlilni moliyaviy qismiga bag'ishlangan ushbu o'quv qo'llanmada moliyaviy tahlilni ob'ekti, sub'ektlari, maqsadi, mazmuni va vazifalari aniq ochib berilgan. Moliyaviy tahlilni axbarot manbalari va ularga qo'yiladigan talablar, moliyaviy hisobot shakllarini o'qish, gorizontal va vertikal tahlil etish, trend va asos tahlili, moliyaviy koeffitsentlar va omilli tahlil etish, daromad-xarajat-natija aloqadorligi va uning tahlil etishni uslubiy asoslari, firma va kompaniyalarning bozor va ish faolligini tahlil etish, kreditga qobililik va to'lov layoqatini tahlili, investitsion faoliyat tahlili kabi masalalar amaliy asosda bayon etilgan.

Moliyaviy tahlilni boshqaruv tahlilidan farqlanishini barcha jihatlari olib berilgan. Uning nazariy va uslubiy asoslari muammoli asosda bayon qilingan. Bu esa talabalarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda muhim manba bo'lib hisoblanadi.

Muallif, o'quv qo'llanma yuzasidan o'quvchilardan o'z fikr mulohozalarini Toshkent Moliya institutini "Moliyaviy tahlil" kafedrasiga yozib yuborishlarini iltimos qiladi.

# **1-bob. Moliyaviy tahlil va uning axbarotlar tizimi**

## **O'rganiladigan savollar**

- 1.1. Moliyaviy tahlilni fan siftida shakllanishi va uning uslubiy asoslari
- 1.2. Bozor iqtisodiyoti sharoida iqtisodiy tahlilni tarkibiy qismlari; Boshqaruv va moliyaviy tahlil.
- 1.3. Moliyaviy tahlil maqsadi, mazmuni va asosiy vazifalari.
- 1.4. Moliyaviy tahlil va uning sub'ektlari
- 1.5. Moliyaviy tahlil va uning tashkil etilishi
- 1.6. Moliyaviy tahlilni axborotlar tizimi va uning oldiga qo'yiladigan talablar
- 1.7. Chet el firma va kompaniyalarida moliyaviy tahlil va uning O'zbekiston Respublikasidagi moliyaviy tahlil bilan muvofiqligi

**Mavzu bo'yicha tayanch iboralar;** moliyaviy tahlil maqsadi, mazmuni, moliyaviy hisobot elementlari, aktivlar, passivlar, foyda va zararlar, asosiy kapital, aylanma kapital, pul mablag'lari, xususiy kapital, tahlil sub'ektlari, tahlil turlari, tahlil bosqichlari, tahlil natijalarini rasmiylashtirish.

## **Mavzu bo'yicha muammoli savollar**

1. Moliyaviy tahlilni nazariy muammolari va ularni takomillashtirishni zaruriyati nimada?
2. Moliyaviy tahlilni xuquqiy asoslari va uni takomillashtirish zaruriyati nimada?
3. Moliyaviy tahlilni uslubiy asoslari va uni takomillashtirish muammolari?
4. Moliyaviy tahlilni yo'lga qo'yishni tashkiliy muammolariga nimalar kiradi?
5. Moliyaviy tahlil sub'ektlari va ularning manfaatlar mushtarakligidagi muammolar nimada?
6. Moliyaviy tahlilni axborot manbalaridagi muammolar va ularni xal etish yo'llari?
7. Moliyaviy tahlil bilan boshqaruv tahlil orasidagi aniq chegara bormi?
8. Moliyaviy tahlil va uning axborot tizimini xalqaro tajribalari?
9. Chet el firma va kompaniyalarining moliyaviy hisobot shakllarini tahlil etishni o'ziga xos jihatlari nimada?
10. Ma'lumotlarni kompyuterda ishlash va tahlil etishni takomillashtirishni qanday imkoniyatlarini mavjud?

## **Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar**

(1, 3, 4, 5, 6, 8, 10, 12, 14, 15, 16, 21, 22, 25, 28, 29, 30, 31, 32, 33, 35, 39, 40, 41, 45, 50, 51, 53, 54, 61, 62, 65, 67, 66, 70, 71)

## **1.1. Moliyaviy tahlilning fan sifatida shakllanishi va uning uslubiy asoslari**

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tish sharoitida turli mulk shaklidagi korxona va tashkilotlarning xo'jalik moliya faoliyatini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mustaqil mamlakatimizning hisob tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish, shuningdek, iqtisodiy jarayonlardagi o'zgarishlarni makro va mikro jihatdan tahlili, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti rivojining muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Korxonalar ishlab chiqarish-tijorat va moliya faoliyatini tahlil etish asosida xukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohatlar, iqtisodiyotimizda ro'y berayotgan o'zgarishlarning alohida olingan korxonalar misolidagi holatiga baho berish va shu asosda tarmoq, xudud va mamlakat iqtisodining ravnaqini ham belgilash mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy tahlilni rejali iqtisodiyot davridan bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi o'zgarishlarini bir so'z bilan bayon qilishni imkonni yo'q. Bu o'zgarishlarni iqtisodiy tahlilni nafaqat uning nazariy asoslarida balki, uslubiy, tashkiliy, xuquqiy, amaliy asoslarida ham ko'rish mumkin. Iqtisodiy tahlil, nafaqat firma va kompaniyalar boshqaruvining muhim vositasi, balki bozor iqtisodiyotining muhim dastaklaridan biri sifatida shakllanmoqda.

Aniq fanlar qatoriga kiruvchi buxgalteriya hisobining fan sifatida shakllanganligiga 5 asrdan oshdi (agarda Luka Pochalinining 1494-yilda ikki yoqlama yozuv usuliga asos solingan" kitobini nashr etilishi bilan belgilasak). Audit fanining tashkil topganligiga 2 asrdan oshdi.<sup>1</sup>

Iqtisodiy tahlilni fan sifatida shakllanganligiga esa endigina bir asrdan oshdi. Lekin shunga qaramay u o'zining boy tarixiga ega. Ushbu fan, dastlab balansshunoslik, keyinchalik balansni talqini, balansni tahlili, hisobotlar tahlili, iqtisodiy tahlil, sotsial-iqtisodiy tahlil, xo'jalik faoliyati tahlili deb nomlandi. Bugunga kelib esa boshqaruv va moliyaviy tahlilga bo'lingan holda yuritilmoxda.

Iqtisodiy tahlil fan sifatida Respublikamizda o'qitala boshlanganligidan bo'yon endigina 40 yilga yaqin vaqt o'tdi. XX-asrning 90 yillari o'rtalariga kelibgina u o'zining rivojlanish, takomillashish bosqichiga kirdi.

Fan – fan bo'lishi uchun u o'zining aniq ob'ektiga va shu ob'ektni o'rganishni vositalariga, usullariga ega bo'lmosg'i lozim. Moliyaviy tahlil fani ham o'zining ob'ektiga va uni o'rganishning uslubiy asosiga ega. Xuddi shu holat uning fan sifatida o'quv dasturlariga kiritilishiga, nazariy asosini yaratilishiga, amaliyotda tashkil etilishiga, xuquqiy va tashkiliy asoslarining vujudga kelishiga zaruriyat tug'dirdi.

Amaliyotning ilgarilab ketishi bilan XX asrning so'ngi 10 yilligi uning O'zbekistonda fan sifatida shakllanishiga va ichki va tashqi boshqaruvchilarning muhim dastagiga aylanishiga zamin yaratdi.

Moliyaviy tahlilni predmeti (ob'ekti) deb - firma va kompaniyalarni moliyaviy holatini yakuniy xisobot shakllarida ifodalangan axborotlarga tayangan holda ko'rsatkichlar asosida, ichki va tashki omillarga bog'liq ravishda davriy o'rganishga aytildi.

<sup>1</sup> Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasি. Sam.; Zarafshon, 2001 y.

Moliyaviy tahlil fanining metodi, uslubiy asosini firma va kompaniyalar moliyaviy holatini o’rganishda qo’llaniladigan usullar majmuasi tashkil etadi. Bu usullar majmuasiga moliyaviy hisobotlarni “o’qish”, “gorizontal tahlil etish”, “vertikal tahlil etish”, “asos (trend) tahlili”, “omilli tahlil”, “moliyaviy koeffitsentlar” usullari kiradi.

## **1.2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlilni tarkibiy qismlari; Boshqaruv va moliyaviy tahlil**

Iqtisodiy tahlilni o'zining turli tasnifiy belgilariga muvofiq tarkiblanishi belgilangan. Jumladan; hisob tizimini tashkil etishdagi holat, o'rganiladigan ob'ektlarni farqlanishi uni boshqaruv va moliyaviy tahlilga tarkiblashni xarakterlaydi.

Boshqaruv tahlili va moliyaviy tahlil, ular orasida aniq chegara mavjudmi, ular qanday farqlanadi, aniq tasnifiy belgilari mavjudmi? Ushbu savollarga javob topish maqsadida qator olimlarning fikr muloxozalariga tayanishni lozim deb topdik.

Chet el adabiyotlarini kuzatish natijasida shuni tasniflash mumkinki, boshqaruv tahlili, alohida fan sifatida shakllanmagan. Uning birlik elementlari, xizmat funktsiyalari boshqaruv hisobi xizmatini ichida bajariladi. Moliyaviy tahlil esa alohida fan sifatida shakllangan.

Bu bir jihatdan to'g'ri ham hisoblanadi. Negaki boshqaruv tahlili va boshqaruv hisobi ma'lumotlarini sir saqlanishi ham, ularni alohida yuritishni talab etmaydi.

Boshqaruv tahlili bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish yuzasidan ichki imkoniyatlarni aniqlashning aniq masallarini o'z ichiga oladi. Unda korxonaning ishlab chiqarish va tijorat faoliyati yuzasidan reja topshiriqlarining bajarilishi, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning holati, imkoniyatlar va ularni maqsadli boshqarishdagi muhim yo'nalishlar belgilanadi.

Boshqaruv va moliyaviy tahlil yuzasidan olimlar o'rtaida turlicha qarashlar mavjud.

Masalan; M.Q.Pardaev tomonidan boshqaruv tahliliga quyidagicha ta'rif beriladi. "Boshqaruv tahlili-korxona raxbariyati, egasi va mutaxassislari tomonidan ichki imkoniyatlarni ishga solish va samaradorlikni oshirish maqsadida qilinadigan tahlildir"


"Moliyaviy tahlil-xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o'rganishga bag'ishlangan tahlildir"<sup>2</sup>

Boshqaruv tahlili va uning ob'ektlari to'g'risidagi to'liq ma'lumotni 1.1.-chizmadan bilib olish mumkin.

---

<sup>2</sup> Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Sam.; Zarafshon,2001 y.,183-bet


## Boshqaruv tahlili va uning ob'ektlari



Moliyaviy tahlil - moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida firma va kompaniyalarning moliyaviy holatiga iqtisodiy tashxis qo'yishni tavsiflaydi. Moliyaviy tahlilda firma va kompaniyalar mulki, kapitali va majburiyatlarining xolatiga, faoliyat natijaviyligiga, asosiy va aylanma kapital holatiga va samaradorligiga, pul mablag'lari va xususiy mablag'larning holatiga baho beriladi.

Moliyaviy tahlilda o'rganiladigan masalalarni quyidagi 1.2.-chizmadan ko'rib chiqish mumkin.

## Moliyaviy tahlil va uning ob'ektlari



Moliyaviy tahlil asosida firma va kompaniyalarning moliyaviy ahvoldidan to'la voqif bo'linadi. Bu esa ularning boshqaruvida muhim masala hisoblanadi. Tahlil natijalaridan nafaqat ichki balki, tashqi foydalanuvchilar ham foydalanishlari mumkin. Negaki moliyaviy hisobot va moliyaviy tahlil natijalarida sir saqlanadigan, ya'ni birovning zarari hisobiga boshqa birovning naf ko'rishi mumkin bo'lgan axborotlar kuzatilmaydi. Shu sababli, moliyaviy tahlilning ko'plab sub'ektlarini tarkiblash mumkin.

Boshqaruv va moliyaviy tahlil orasidagi farqni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida aniq bayon etish mumkin.

**Boshqaruv va moliyaviy tahlil**

Farqlash belgisi 1	Boshqaruv tahlili 2	Moliyaviy tahlil 3
1.Ob'ekti bo'yicha	Firma va kompaniya boshqaruvini quyi bo'g'inlarini	Firma va kompaniyaning moliyaviy holati
2.Sub'ekti bo'yicha	Firma va kompaniyaning o'z xodimlari	Firma va kompaniyalarning o'z hodimlari hamda uchinchi shaxslar(tashqi sub'ektlar)
3.Tartibga solinishi	Firma va kompaniyalar ichki Nizom, qoidalari asosida	Umumiy Nizom, qoidalari asosida tartibga solinadi
4.Maqsadi	Faoliyatni quyi bo'g'nlari samaradorligi yuzasidan ichki imkoniyatlarni aniqlash va yo'lga qo'yishdan	Korxonaning moliyaviy axvolining iqtisodiy reytingi va uni bashoratlashdan
5.Ma'lumot iste'molchilar	Faqat, shu firma, kompaniya boshqaruvi xodimlari, xizmatchilar	Firma va kompaniyalarni o'z hodimlari va tashqi tahlil sub'ektlari
6.Usullari bo'yicha	Iqtisodiy tahlilni oddiy va iqtisodiy matematik usullari	Oddiy, iqtisodiy matematik usullar hamda, moliyaviy tahlilni individual usullari
7.Ma'lumotlarni olish shakli bo'yicha	Ma'lumotlarni olishni istalgan shaklida (og'zaki, yozma, hisobot shaklida, telefon orqali, ma'ruza yoki nutq shaklida va x.k.)	Moliyaviy hisobot shakllari asosida
3.Tahlil natijalarini oshkor etilishi	Sir saqlanadi	Oshkor etiladi
9.Mazmuni bo'yicha	Boshqaruvni, faoliyat, harakatning har bitta bo'g'ini, resurslarning har bitta turi, jarayonlarning har bittasi bo'yicha ma'lumotlar bilan ta'minlashi bilan farq etadi	Boshqaruvni, firma va kompaniyalar faoliyatining muayyan davrga bo'lgan umumlashgan ma'lumotlarini tahlil etish asosida manbalashi bilan farq etadi
10. Vazifalari bo'yicha	Vazifalarni hal etilishi faqat shu korxona boshqaruv xodimlari uchun xizmat qiladi.	Vazifalarni hal etilishi ham ichki, ham tashqi tahlil sub'ektlari uchun xizmat qiladi

### **1.3. Moliyaviy tahlil maqsadi, mazmuni va asosiy vazifalari**

Moliyaviy tahlil o'rganiladigan masalalarning ko'lami, maqsadi, mazmuni va vazifalari bilan tubdan farq etadi. Moliyaviy tahlil maqsadi - firma va kompaniyalar moliyaviy holatini, moliyaviy hisobot ma'lumotlarida ifodalangan ko'rsatkichlar tizimidan foydalangan holda baholashga aytildi.

Moliyaviy tahlil mazmunini;

▪ firma va kompaniyalar mulki, kapitali va majburiyatlarini, ularning o'zgarishlarini tahlil etish;

▪ firma va kompaniyalar moliyaviy natijaviyligi va rentabelligini baholash;

▪ asosiy va oborot kapitali holati, harakati, samaradorligini tahlil etish;

▪ pul mablag'lari va moliyaviy qo'yilmalarni tahlil etish;

▪ xususiy mablag'lar va ularning o'zgarishini tahlil etish;

▪ firma va kompaniyalarning iqtisodiy va moliyaviy salohiyati, mehnat salohiyatini tahlil etish;

▪ firma va kompaniyalarni to'lovga qobilligi va mablag'lar harakatchanligini tahlil etish;

▪ firma va kompaniyalar bozor aktivligi va ish aktivligini tahlil etish;

▪ firma va kompaniyalar moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy nochorligini tahlil etish kabi masalalar tashkil etadi.

Moliyaviy tahlil oldiga qo'yiladigan vazifalar;

▪ firma va kompaniyalar faoliyatiga to'g'ri va xolisona baho berish;

▪ ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyatga jalb qilingan barcha mulk va mablag'lardan samarali foydalanishning holatini aniqlash;

▪ firma va kompaniya faoliyatining natijasi va uning moliyaviy axvoliga baho berish;

▪ firma va kompaniyalarning bozordagi o'rni va uning iqtisodiy reytingini baholash;

▪ iqtisodiy harakatda maqsadga erishish yuzasidan ichki imkoniyatlarni topish va ularni yo'lga qo'yishni chora-tadbirlarini belgilab olishdan iboratdir.

## **1.4. Moliyaviy tahlil va uning sub'ektlari**

Moliyaviy tahlil sub'ektlariga tahlilchilarning keng qamrovli guruhi kiritiladi. Ularni shartli ravishda ichki va tashqi sub'ektlarga bo'lish mumkin. Ichki tahlil su'bektlariga faqat shu firma, kompaniya xodimlari kirsa, tashqi sub'ektlarga ta'sischilar, soliq organlari xodimlari, auditorlar, yuqori tashkilot va vazirliklar, xaridor va buyurtmachilar, mol etkazib beruvchilar, sug'urta agentliklari, reklama agentlari, bank xodimlari va boshqa shaxslar kirishi mumkin.

Tahlil sub'ektlarinining manfaatlari albatta bir biridan keskin farq qiladi. Masalan; ta'sischilar ko'proq firma va kompaniyalarning foydasi bilan, soliq idoralari ko'proq "daromad-xarajat-natija"lar aloqadorligi tahlilidan, kredit inspektorlari va bank xodimlari; firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligi va moliyaviy barqarorligi bilan, mol etkazib beruvchilar; firma va kompaniyaning to'lov layoqatini o'rganishdan, tahlil etishdan manfaatdorlar.

Moliyaviy tahlil va ularning manfaatlar mushtarakligini quyidagi 1.2.-jadval ma'lumotlaridan ko'rib chiqish mumkin.

**Moliyaviy tahlil sub'ektlari va ularning manfatlari**

t/r	Moliyaviy tahlil subektlari	Sub'ektlar manfatlari
1	2	3
1.	Korxona xodimlari	Firma va kompaniyaning moliyaviy natijaviyligi va moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishdan
2.	Tasischilar	Firma, kompaniyaga qo'yilgan va qo'yiladigan mablag'larning foydaligidan
3.	Auditorlar	E'lon qilinadigan xisobot shakllarini to'g'rilib qilishni xuquqiy tamoyillar asosida baholash va firma, kompaniyalar moliyaviy holatini yaxshilashni ichki imkoniyatlarini ko'rsatib berishdan, mulk egalari manfaatlarini himoya etishdan
4.	Yuqori tashkilotlar	Band qilingan moddiy va moliyaviy resurslar harakatini va samaradorligini o'rganishdan
5.	Soliq idoralari	Majburiy to'lovlar, soliqlar va ajratmalarini undirish yuzasidan resurslar holati, harakatini va faoliyat natijaviyligini o'rganishdan
6.	Sug'urta agentliklari	Firma, kompaniya mulkini turli taxlikalardan himoya qilish, saqlanishi yuzasidan ma'lumotlarni o'rganishdan
7.	Mol etkazib beruvchilar	Shartnomaviy munosabatlarni yo'lga qo'yish, tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarishi, to'lov intizomiga rioya qilish, to'lovga qobililikni holati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganishdan
8.	Xaridor va buyurtmachilar	Ta'minotdagi uzilishlarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan firma va kompaniyalarning moliyaviy va iqtisodiy salohiyatning tayanchi to'g'risidagi ma'lumotlardan

## **1.5. Moliyaviy tahlil va uning tashkil etilishi**

Moliyaviy tahlilni tashkil etishida ichki va tashqi tahlil turlarini tashkil etishiga axamiyat berish lozim.

Ichki moliyaviy tahlil shu firma, kompaniya xodimlari tomonidan tashkil etilsa, tashqi tahlil firma, kompaniya faoliyati bilan qiziquvchi uchinchi shaxslar tomonidan tashkil etiladi.

Moliyaviy tahlil funktsiyasini a'lohida tahlil xizmat bo'limini ochish orqali, yollangan tahlilchidan foydalanish yoki alohida xodimga yuklash orqali bajarilishi, mulk egasi tomonidan mustaqil yuritilishi kabi tashkiliy shakllarini ajratish mumkin.

Tashqi tahlilchilar tomonidan o'tkaziladigan tahlil tahlil natijalaridan manfatdor tashkilotlar va xodimlar tomonidan mustaqil yoki shartnomaviy asosda tashkil etilishi mumkin.

Tahlilni tashkil etish bosqichlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Tahlil maqsadini belgilash va uning rejasini tuzish;
2. Tahlil yuzasidan zarus bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish, ularni saralash, ko'rsatkichlar holatiga keltirish, analistik jadvallar tuzish;
3. Taxlilni o'tkazish;
4. Tahlil natijalarini umumlashtirish, rasmiylashtirish va chora tadbirlarni belgilash.

I.f.d. professor M.Q.Pardaev tomonidan moliyaviy tahlilni 3 ta bosqichni, ya'ni; tahlil maqsadini aniqlash va unga yondashish yo'llarini belgilash; tahlil uchun taqdim qilinadigan axbarotlar sifatiga baho berish; tahlilni usullaridan foydalangan holda tahlil o'tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirish bosqichlari .

Ushbu tarkiblashni ham to'g'ri deyish mumkin. Lekin unda tahlilni birlik bosqichlari umumlashtirilgan tarzda ifoda etilgan.

Tahlil bosqichlarini 3 ta, 4 ta, 5 ta, 7, 9, 12 ta bosqichdan iborat qilib belgilash ham mumkin. Ular bir-biridan mazmun jihatdan farqlanmaydi. Birlik ifodalarni alohida bosqich qilib belgilanishigina ularni qatorini kengaytirgan halos. O'quvchi turli adabiyotlarni o'rGANISH asosida noto'g'ri xulosaga kelmasligi lozim. Negaki ular mazmun jihatdan aynan bitta narsani ifoda etadi.

---

<sup>3</sup> M.Q.Pardaev Moliyaviy tahlil. T.; Iqtisodiyot va xuquq dunyosi. 1999 y. 11-bet

## **1.6. Moliyaviy tahlilni axborotlar tizimi va uning oldiga qo'yiladigan talablar**

Tahlil natijalari va uning sifati ko'p jihatdan uning axborotlar manbayi bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Biz iqtisodiy tahlilni axborotlar tizimiga quyidagi manbalarni kiritamiz;

Hisob ma'lumotlari;

Hisobdan tashqari ma'lumotlar.

Hisob ma'lumotlariga; buxgalteriya hisobi va hisoboti, statistik hisob va hisobot ma'lumotlari, operativ hisob va hisobot ma'lumotlari kiritiladi.

Hisobdan tashqari ma'lumotlarga; tekshirish natijalari, yig'ilish qarorlari, reja ma'lumotlari, turli katologlar, nashrlar, statistik byuletenlardan olingan ma'lumotlar kiradi.

Iqtisodiy tahlilni tarkibiy qismi bo'lgan moliyaviy va boshqaruv tahliliga nisbatan yuqorida tarkiblashni berib o'tish esa iqtisodiy jihatdan to'g'ri bo'lmaydi.

Negaki, boshqaruv tahlilini axborot manbalari moliyaviy tahlilni axborot manbalaridan o'zining ifoda etilishi, mazmuni, ko'lami, rasmiylashtirish tartibi, olish tartiblari va boshqa belgilari bo'yicha farq etadi.

Moliyaviy tahlil i.f.d. prof. M.Q.Pardaev tomonidan moliyaviy tahlilni quyidagi axborot manbalari tarkiblanadi;

1. Tashqi moliyaviy tahlil-buxgalteriya hisoboti asosida;
2. Ichki moliyaviy tahlil-buxgalteriya hisobi va hisoboti hamda tezkor hisobotlar asosida.<sup>4</sup>

Prof. Abdukarimov I.T. tomonidan moliyaviy tahlilni axborot manbalariga quyidagilar kiritiladi;

1. buxgalteriya hisobi va hisoboti;
2. statistik hisob va hisobot ma'lumotlari;
3. operativ hisob va hisobot ma'lumotlari;
4. Tanlab olingan hisobot ..

Prof. M.Q.Pardaev tomonidan moliyaviy tahlilni ichki va tashqi tahlil turlariga nisbatan tarkiblangan axborot manbalari to'g'ri belgilangan. Negaki, uning iste'molchilar manfaatlaridan kelib chiqqan holda tahlil olib borish uchun zaruriy bo'lgan axborotlar to'g'ri ifoda etilgan.

Prof. A.I.T.Abdukarimov tomonidan tarkiblangan guruxlash esa iqtisodiy tahlilni o'zi uchun axamiyatli uning moliyaviy tahlili yuzasidan o'rinali emas. Negaki statistik hisob va hisobot, operativ hisob va hisobot ma'lumotlari, tanlangan ma'lumotlarni tarkiblanishi moliyaviy tahlilga nisbatan to'g'ri emas.

Yuqorida qarashlarga qarama qarshi tarzda biz moliyaviy tahlilni axborotlar bazasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin;

1. Moliyaviy hisob va hisobot malumotlari;
2. Tanlab olingan ma'lumotlar (molivaviy hisobotga ilovalar, hisob varaqalari bo'yicha ma'lumotlar va h.k.)

<sup>4</sup> M.Q.Pardaev Moliyaviy tahlil. Iqtisodiyot va xuquq dunyosi. 1999 y. 9-bet

<sup>5</sup> Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari. T.;Iqtisodiyot va xuquq dunyosi.1999 y. 6-bet

Moliyaviy hisob va hisobot ma'lumotlariga iqtisodiy jarayonlarni o'zida ifoda etuvchi umumlashgan ma'lumotlar kiradi. Ushbu axborotlar moliyaviy hisobot shakllarida aks etadi.

Demak, xulosa qilishimiz mumkinki, tashqi moliyaviy tahlil faqat e'lon qilinadigan moliyaviy hisobot shakllaridagi axborotlar asosida o'tkaziladi. Tashqi moliyaviy tahlil moliyaviy hisob va hisobot ma'lumotlari, tanlab olingan ma'lumotlar asosida tashkil etiladi.

Moliyaviy hisobot shakllariga;

1-shakl "Buxgalteriya balansi"

2-shakl "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi" hisobot

3-shakl "Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi" hisobot

4-shakl "Pul oqimlari to'g'risidagi" hisobot

5-shakl "Xususiy kapital" to'g'risidagi hisobot

-ma'lumotnomalar (2-A, 2-B,...) va moliyaviy hisobotga ilovalar.

Moliyaviy tahlilni axborotlar bazasiga qo'yiladigan talablarga quyidagilar kiradi. Ya'ni; axborotlar ishonchligi, taqqoslanuvchanligi, betarafligi, pulda baholanishi, uzlucksizligi, hisobga olinish, hisob-kitoblarda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmasligi, daromad va xarajatlar, aktivlar va passivlar to'g'ri baholanganligidir. Bu talablar moliyaviy hisob va hisobotlashning konseptual asoslarida ham belgilanadi.

Ma'lumotlarni mantiqiy tekshirishda, hisob-kitoblarni aniqligi, raqamlarni bo'yab yozishlarga yo'l qo'yilmaganligi, turli hisobot shakllaridagi nazorat raqamlarining mosligiga axamiyat berish lozim.

## **1.7. Chet el firma va kompaniyalarida moliyaviy tahlil va uning O'zbekiston Respublikasidagi moliyaviy tahlil bilan muvofiqligi**

Moliyaviy tahlilni usulubiy asoslarini taqqoslash yakunida shunday xulosaga kelish mumkinki xorijiy firma va kompaniyalar moliyaviy hisobotlari tahlili bilan O'zbekistonda amal etilayotgan uslubiy asoslarda keskin farqlanishlar kuzatilmaydi. Farqlanishni sezish mumkin faqat birlik ko'rsatkichlarda. Masalan; firma va kompaniyalar foydaligiga baho berishda, bizning amaliyotda rentabellikni 63 ta turi aniqlansa, Italiyada uning 74 ta, Yaponiyada esa 56 ta turi aniqlanadi. Bu holat bitta ko'rsatkichni baholashga nisbatan zaruriy birlikmi? Albatta uning mazmuni tushinish qiyin emas. Negaki bitta buxgalteriya balansi asosida korxona aktivlari va passivlariga nisbatan 55 ta rentabellik turini aniqlash mumkin. Firma, kompaniya foydasida barcha birliklar ta'sirini mavjud deb oladigan bo'lsak, bu tarkib to'g'ri hisoblanadi.

To'lov layoqati, moliyaviy barqarorlikni aniqlash ko'rsatkichlari bo'yicha, asosiy vositalar holati va harakati ko'rsatkichlarida ham xuddi shunday farqlanishlarni sezish mumkin.

Moliyaviy hisobotlarni tuzish qoyidalarini, moliyaviy hisobot shakllarining mazmunining bir xilligi albatta moliyaviy tahlildagi mazmunni ham bir xillikda bo'lishini tavsiflaydi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari va ular asosida milliy standartlarni tuzilishida ham shu zaruriyatni sezish mumkin.

Moliyaviy tahlil yuzasidan o'xshashlik albatta boshqaruv tahlili bo'yicha ham bir xillik mavjud degan xulosaga olib kelmaydi. Boshqaruv tahlili yuzasidan davlatlar o'rtasida turlicha farqlanishlarni sezish mumkin.

Boshqaruv tahlili yoki ishlab chiqarish tahlili, boshqaruv hisobi va hisobotining tarkibiy qismi sifatida amal etadigan xorijiy amaliyotdan, alohida tur sifatida olinishi o'zining tashkiliy, uslubiy, amaliy asoslari bo'yicha farq etadi.

### **Mavzu bo'yicha nazorat savollari**

1. Moliyaviy tahlilni axborot manbalariga nimalar kiradi?
2. Moliyaviy tahlil axborot manbalariga qo'yiladigan talablarni tushuntiring?
3. Moliyaviy tahlilni axborot manbalarini dastlabki tekshirish taxlida qanday rol tutadi?
4. Moliyaviy tahlil ob'ektiga nimalar kiradi?
5. Moliyaviy tahlil sub'ektlari va ularning manfaatlari?
6. Moliyaviy hisobot shakllaridagi ma'lumot manbalariga qo'yiladigan betaraflik qoidasini mazmunini tushuntiring?
7. Moliyaviy tahlil firma va kompaniyalarda qanday tashkil etiladi?
8. Moliyaviy tahlilni usulubiy asoslariga nimalar kiradi?
9. Moliyaviy tahlil oldiga qo'yiladigan vazifalarni tushuntiring?
10. Moliyaviy va boshqaruv tahlilini farqlab bering?
11. Moliyaviy tahlilni o'tkazish bosqichlarini tushuntiring?
12. Moliyaviy tahlil natijalarining umumlashtirilishi qanday amalga oshiriladi?
13. Moliyaviy tahlilni nazariy, usulubiy, xuquqiy manbalarini takomillashtirishning zaruriyatini tushuntirib bering?
14. Moliyaviy tahlil tamoyillarini izohlab bering?
15. Moliyaviy tahlildagi oshkorlik va boshqaruv tahlilida sir saqlanish qoidalari mazmuni tushuntiring?
16. Moliyaviy tahlil bilan moliyaviy menejmentni farqlang?

## **2-bob. Buxgalteriya balansini gorizontal, vertikal va trendli tahlili**

### **O'rganiladigan savollar**

- 2.1. Buxgalteriya balansini o'qish va tahlil qilish orqali firma va kompaniyalar moliyaviy holatiga baho berishni mazmuni
- 2.2. Buxgalteriya balansini gorizontal va vertikal tahlili
- 2.3. Firma va kompaniyalarni mulki, kapitali va majburiyatlarini moliyaviy koeffitsentlardagi baholanishi.
- 2.4. Buxgalteriya balansini trend tahlili
- 2.5. Firma va kompaniyalar aktivlari va passivlarini tahlili
- 2.6. Uzoq muddatli aktivlar, zaxira va xarajatlarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishini tahlili
- 2.7. Lizing hisobiga olingan mablag'lar tahlili
- 2.8. Firma va kompaniyalar balansini reyting baholash va moliyaviy taxlilni yakuniy xulosalarini rasmiylashtirish tartibi.

**Mavzu bo'yicha tayanch iboralar;** buxgalteriya balansi, uzoq muddatli aktivlar, joiy aktivlar, o'z mablag'lari manbayi, majburiyatlar, balansni o'qish, gorizontal tahlil, terend tahlili, moliyaviy koeffitsentlar, lizing operatsiyalari tahlili, omilli tahlil.

### **Mavzu bo'yicha muammoli savollar**

1. Buxgalteriya balansini o'qish, gorizontal va moliyaviy tahlil etish firma va kompaniyalar moliyaviy holatiga to'liq baho berishga imkonini beradimi?
2. Buxgalteriya balansini o'rganish, tahlil etish asodida olingan natijalar, bo'lib o'tgan jaroyonlarning yutug'i yoki kamchiliklarini bilishga imkon beradi. Bunda biz taxlil natijalaridan qanday manfaat ko'ramiz?
3. Buxgalteriya balansi ma'lumotlari firma, kompaniya moliyaviy holatini, uning natijaviyligini to'liq ifoda etadimi?
4. Buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida qanday moliyaviy koeffitsentlarni aniqlash mumkin va ular bizga nima beradi?
5. Buxgalteriya balansi bo'yicha aktivlar va passivlarni baholashda qanday kamchiliklar mavjud, ularni qanday hal etish mumkin?
6. Buxgalteriya balansini shakli va tuzilishi bo'yicha, chet el korxonalari buxgalteriya balansida qanday farqlanishlarni sezish mumkin (aktivlar, passivlar joylashuvi, baxolanishi, aks ettirilishi bo'yicha)?
7. Firma, kompaniyalar iqtisodiy reytingini aniqlashda buxgalteriya balansi asosida aniqlanadigan qaysi ko'rsatkichlarni holatiga tayaniladi?

### **Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

(1, 2, 3, 4, 7, 8, 10, 13, 15, 16, 17, 18, 19, 20, 22, 23, 26, 27, 29, 31, 35, 37, 39, 43, 44, 45, 47, 48, 50, 51, 52, 55, 56, 59, 60, 61, 62, 68, 69, 72, 73)

## **2.1.Buxgalteriya balansini o'qish va taxlil qilish orqali firma va kompaniyalar moliyaviy holatiga baho berishni mazmuni**

O'zbekistonda shakllanayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot bir tomondan jahon iqtisodiga tayansa, ikkinchi tomondan o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari bilan farq etadi. Turli mulkchilikga asoslangan iqtisod, bozor munosabatlariga tayangan xolda olib borilayotgan isloxoxtlar negizida albatta jamiyat farovonligi va tula to'kisligiga erishish maksadi yotadi. Shu maksad mushtarakligida ijtimoiy va individual harakatga kuch, madad buruvchi hamda, uni tartibga soluvchi muhim iqtisodiy dastaklarni, unsurlarni ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanishni talab etiladi.

Iqtisodiyotni boshqarishda eng muhim dastaklardan biri mikrodarjadagi, korxonalar xo'jalik-moliya faoliyatini tahlilidir.

Iqtisodiy tahlil fan sifatida shakllaniga 1 asrdan oshdi. Shu jumladan; uning O'zbekistonda shakllanishi urushdan keyingi yillarga to'g'ri keladi. Ushbu fan, turli davrlarda turlicha nomlar bilan nomlandi. I.f.d. prof. Pardaev M.Q tomonidan uning quyidagi shajarasini berib o'tiladi.<sup>6</sup>

«Balansshunoslik», «Balans talqini», «Balansni tahlili», «Hisobot tahlili», «Iqtisodiy tahlil», «Sotsial-iqtisodiy tahlil», «Xo'jalik faoliyatini tahlili (Iqtisodiy tahlil)»

Muallifni ushbu adabiyotida tahlil fanining so'ngi o'zgarishlari o'z aksini topmagan. Bugun aytish mumkinki, buxgalteriya hisobi ikkita qismdan iboratligi belgilangan. Ya'ni; boshqaruv (ishlab chiqarish) hisobi va moliyaviy hisob. Xuddi shu tarkiblanish tahlil fanining ham qayta shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Unga ko'ra iqtisodiy tahlil boshqaruv (ishlab chiqarish) tahlili va moliyaviy tahlilga bo'linishi lozim.

Shu asnoda, iqtisodiyot yo'nalishida ta'lif olayotgan talabalarni o'quv grafiga bakalavriat yo'nalishi bo'yicha «Moliyaviy va boshqaruv tahlili», magistratura talabalari uchun «Moliyaviy tahlil» fanlari kiritilgan.

Xo'jalik faoliyatini tahlili, iqtisodiy tahlil bugungi kunda «Moliyaviy tahlil» va «Boshqaruv taxlili» sifatida qayta tarkiblanishi bir jihatdan to'g'ridek. Lekin uning boshqa jihatiga ahamiyat berish lozim. Chet el adabiyotlarini kuzatishdan shunday xulosaga kelish mumkinki, ular orasida bir xillik va farqlanishni sezish mumkin. “Moliyaviy tahlil” fanida bu o'xshashlik mavjud. Lekin “Boshqaruv tahlili”da farqlanish mavjud. Negaki, boshqaruv tahlili boshqaruv hisobini ichida o'qiladi. Shuni hisobga oladigan bo'lsak xorij davlatlar yoki iqtisodi rivojlangan davlatlarda boshqaruv tahlili alohida fan sifatida shakllanmagan.

Fanning nomi yoki uning o'rganish ob'ektidagi o'zgarishlar albatta uning mazmuniga yoki xizmat vazifalarini belgilashga ta'sir etmaydi. Moliyaviy tahlilni O'zbekistonda alohida fan sifatida shakllanishiga zaruriy jihatdan barcha fart sharoitlar shakllandи deyish mumkin. Bu zaruriyatni uning nazariy manbalarida ham, xuquqiy va uslubiy, tashkiliy asoslarida, ilmiy asoslarida ham ko'rish mumkin

<sup>6</sup> M.K.Pardaev «Iqtisodiy tahliol nazariyasi» Samarkand «Zarafshon» nashriyoti, 2001 yil, 32-bet

Nazariy asoslari bo'yicha etarlicha manbaga ega bo'lindi. O'zbek, rus tillarida chop etilgan Pardaev M.Q., Isroilov B.ning «Moliyaviy tahlil»<sup>7</sup>, «Iqtisodiy tahlil»<sup>8</sup>, »Moliyaviy tahlil metodologiyasi»<sup>9</sup>, Vaxobov A., Ibrohimov A.T. ni «Moliyaviy tahlil»<sup>10</sup>, Ibragimov A.T. ni «Iqtisodiy tahlil»<sup>11</sup>, Abdukarimovni I.T. «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari»<sup>12</sup>, «Kak chitat i analizirovat finansovuyu otchetnost», Voljin I., Ergeshboev V.P. ni «Moliyaviy tahlil»<sup>13</sup>. Bu ro'yxatni istagancha davom ettirish mumkin. Shuningdek, rus mualliflari Kovalev V.V. «Finansoviy analiz»<sup>14</sup>, Sheremet A.D., Sayfulin R.S. ning «Metodika finansovogo analiza»<sup>15</sup>, Petrov V.V., Kavalev V.V. ni «Kak chitat balans»<sup>16</sup> kitoblari ham moliyaviy tahlil fanining fan sifatida to'la shakllanganligini tavsiflash mumkin.

Bugungi kunda moliyaviy tahlilni nazariy asosi nihoyatda boy holatda. Bu jihat o'zgarishlarni moliyaviy tahlilni tashkil etilishi, xuquqiy va usulubiy asoslarida ham izoxlab o'tish mumkin.

Moliyaviy tahlil o'z ichiga tahlilni kaysi ko'lamenti olishi yuzasidan olimlar o'rtasida haligacha aniq to'xtam yo'q. Uning ob'ektiga, korxona moliyaviy xisobotining barcha elementlari kiritiladimi yoki uning umumlashgan ma'lumotlarigina kiritiladimi?

Xozirgi manbalarga tayangan holda moliyaviy tahlilni ob'ektiga moliyaviy hisobot shakllari asosida o'rganiladigan ushbu o'quv qo'llanmada tarkiblangan bob va mavzularni kiritish mumkin. Bu mavzular soni ham «Moliyaviy tahlil» fani bo'yicha nashr etilgan adabiyotlarda farq etadi. Jumladan; M.Q. Pardaev o'zining «Moliyaviy tahlil»<sup>17</sup> o'quv qo'llanmasida uni 3 ta kism va 23 ta o'rganiladigan savolga bo'lib beradi. Vaxobov A., Ibragimov A.T. o'zining «Moliyaviy tahlil»<sup>18</sup> kitobida 8 ta bob va 57 ta o'rganiladigan savolni, Voljin I.O. va Ergashbaev V.P. ni «Moliyaviy tahlil»<sup>19</sup> kitobida esa 2 ta qism va 22 ta o'rganiladigan savoldan iborat lib ko'rsatiladi (qaysidir adabiyotda ularni soni 8 ta, rus tilida nashr etilgan adabiyotlarda esa undan ham ko'p mavzular berib o'tiladi).

Firma va kompaniyalar moliyaviy holatiga baho berishda asosiy manbalardan bir bu buxgalteriya balansidir. Buxgalteriya balansi o'zining tuzilishi, shakli va ko'rsatkichlar tarkiblanishi bilan xorijiy davlatlar buxgalteriya balanslaridan keskin farq etmaydi. Bu farqlanishni yo'qligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- Buxgalteriya balansini – xalqaro biznes tilida tuzilishi bilan;
- Aktivlar, kapital va majburiyatlar tengiliginini saqlanishi bilan;
- Mazmun jihatdan bir xillikka asoslanishi;
- Foydalanuvchilar manfaatlarini to'qnash kelmasligi va bilan va boshqa jixatlar bilan.

<sup>7</sup> Pardaev M.Q., Isroilov B. Moliyaviy tahlil. T.: Iqtisodiyot va xukuk dunyosi, 1999 y.

<sup>8</sup> Pardaev M.Q.,Iqtisodiy tahlil. T.: Iqtisodiyot va xukuk dunyosi, 2001y.

<sup>9</sup> Pardaev M.Q. Moliyaviy tahlil metodologiyasi. Sam.1998 y.

<sup>10</sup> Vaxobov A.,Ibragimov A. Moliyaviy taxlil. T.: Mexnat 1995y.

<sup>11</sup> Ibragimov A. (xammualliflikda) Iqtisodiy tahlil. T.: Mehnat, 2001 y.

<sup>12</sup> ,8 Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotnio'qish va tahlil qilish yo'llari. T.: Iqtisodiyot va xukuk dunyosi. 1998 y.

<sup>13</sup> Voljin I.O., Ergashbaev V.P.Moliyaviy tahlil. T.: Iqtisodiyot va xuquq dunyosi. 19981 y.

<sup>14</sup> Kovalev V.V. «Finansoviy analiz» M.: Finansi i statistika 1993 g.

<sup>15</sup> Sheremet A.D., Sayfulin R.S. Metodika finansovogo analiza M.: INFRA-M 1996 g.

<sup>16</sup> Petrov V.V., Kovalev V.V. Kak chitat balans. M.: Finansi i statistika, 1993 g.

<sup>17</sup> . Pardaev M.Q., Isroilov B. Moliyaviy tahlil. T.: Iqtisodiyot va xukuk dunyosi, 1999 y.

<sup>18</sup> Vaxobov A., Ibragimov A. Moliyaviy taxlil. T.: Sharq 2002 y.

<sup>19</sup> Voljin I.O., Ergashbaev V.P.Moliyaviy tahlil. T.: Iqtisodiyot va xuquq dunyosi..1998y. y.

Moliyaviy hisobotni “o’qish”ga ham olimlar tomonidan turlicha tavsiflar beriladi. Moliyaviy hisobotni “o’qish”ni mazmunini nima tashkil etadi. Bizningcha moliyaviy hisobotni o’qish deganda ko’rsatkichlarni arifmetik xisob-kitoblarsiz uni mantiqiy tavsiflanadi.

«Moliyaviy hisobotni o’qish va taxlil qilish yo’llari»<sup>20</sup> deb nomlangan I.T. Abdukarimov ning adabiyotida ham kitobning nomida «o’qish» so’zi ishlataladi lekin unga tavsif berilmaydi. Patrov V.V., Kovalev V.V.ni «Kak chitat balans»<sup>21</sup> adabiyotida ham moliyaviy hisobotni «o’qish»ga tavsif berilmagan. Ya’ni «o’qish», tahlil qilishni bir usuli sifatida bayonlanadi. To’g’ri, «o’qish» tahlil qilishni usuli hisoblanadi. Lekin uning tavsifi, boshqa usullardan farq etadigan jihat bo’lmog’i lozimku. M.Q. Pardaevni «Moliyaviy tahlil»<sup>22</sup> kitobida esa moliyaviy tahlil usullari, moliyaviy tahlilni asosiy shakllari deb nomlanib uning qatorida «o’qish» usuli keltirilmaydi.

Buxgalteriya balansini o’qish va tahlil etish mazmunini quyidagilar tashkil etadi.

- kompaniya va firmalarni mulki, kapitali va majburiyatlarini baholash;
- kompaniya va firmalar to’lovga qobilligi va likvidlilik ko’rsatkichlarini aniqlash;
- kompaniya va firmalarning iqtisodi va moliyaviy salohiyati, uning smaradorligini baholash;
- kompaniya va firma moliyaviy barqarorligi, bozor va ish aktivligi ko’rsatkichlarini baholash;
- kompaniya va firmalarning iqtisodiy nochorligi va uni sog’lamloshtirish yo’llarini belgilash;
- kompaniya va firmalarning moliyaviy axvoli va uni yaxshilash yuzasidan muhxim takliflar xozirlash tashkil etadi.

Buxgalteriya balansi asosida o’rganiladan masalalar ko’lami nihoyatda kengki, ularni barcha adabiyotlarda bir xilda berilgan deyish qiyin. Masalan; korxona mablag’larini xarakatchanligi va aylanuvchanligi, ish aktivligi, moliyaviy barqarorligi buxgalteriya balansini tahlili mavzusida berilgan xolda (A.Vahobov, A.Ibroximov «Moliyaviy tahlil»<sup>23</sup>) ayrim adabiyotlarda ushbu o’rganiladigan savollar alohida mavzu sifatida beriladi (Akramov E. «Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya»<sup>24</sup> kitobi yoki Abdukarimov I.T. «Moliyaviy hisobotni o’qish va tahlil qilish yo’llari»<sup>25</sup>, shuningdek, Pardaev M.K. «Moliyaviy tahlil»<sup>26</sup>, «Iqtisodiy tahlil» adabiyotida esa mavzular yanada bulaklash tavsiflanadi.)

<sup>20</sup> Abdukarimov I.T. «Moliyaviy hisobotni o’qish va tahlil qilish yo’llari» T.: Iqtisodiyot va xuquq dunyosi, 1999 y.

<sup>21</sup> Patrov V.V., Kovalev V.V. Kak chitat balans. M.: Finansi i statistika, 1993 g.

<sup>22</sup> Pardaev M.Q., Isroilov B. Moliyaviy tahlil. T.: Iqtisodiyot va xukuk dunyosi, 1999 y.

<sup>23</sup> Vaxobov A., Ibragimov A. Moliyaviy taxlil. T.: Sharq 2002 y.

<sup>24</sup> Akramov E. Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya. T.:GNITI, GANT , RUZ

<sup>25</sup> Abdukarimov I.T. «Moliyaviy hisobotni o’qish va tahlil qilish yo’llari» T.: Iqtisodiyot va xuquq dunyosi, 1999 y.

<sup>26</sup> Pardaev M.Q., Isroilov B. Moliyaviy tahlil. T.: Iqtisodiyot va xukuk dunyosi, 1999 y. 15-bet

## **2.2. Buxgalteriya balansini gorizontal va vertikal tahlili**

Buxgalteriya balansini gorizontal (bo'yamasiga) va vertikal (yonlamasiga) tahlili bo'yicha olimlar tomonidan turlicha qarashlarni mavjudligi uquvchini albatta e'tiborini tortadi. Masalan; prof. M.K. Pardaev o'zining «Moliyaviy tahlil» o'quv qo'llanmasida moliyaviy tahlilning asosiy shakllari sifatida gorizontal, vertikal, dinamik, makon, nisbiy ko'rsatkichlar, omilli tahlilni keltirgan holda, shu erda gorizontal va vertikal tahlilga izox beradi.

«Gorizontal tahlil - hisobot davrini o'gan yil ko'rsatkichlari bilan solishtirish»<sup>27</sup>

Vertikal tahlil - tarkibiy tahlil bo'lib tahlil qilinayotgan ob'ektni barcha qismlari bo'yicha o'rghanish»<sup>28</sup> dan iborat deyiladi.

E'tibor bergen bo'lsangiz, gorizontal tahlil solishtirish, toqqoslash usulining o'zidan iborat bo'lib qolmoqda.

Bizningcha, moliyaviy hisobotni gorizontal tahlili uning moliyaviy hisobot elementlari, ko'rsatkichlarini, mutlaq va nisbiy ifodalarda, xisobot davri boshiga yoki o'tgan yilga nisbatan toqqoslama o'rghanishga aytildi.

Vertikal tahlil deganda - moliyaviy hisobot, buxgalteriya balansini mutlaq va nisbiy ifodalarda tarkibiy o'rghanishga aytildi.

Tahlilda xar ikkala usul eng ko'p qtllaniladigan usul hisoblanadi. Ushbu usullar orqali kompaniya va firmalarni mulki, kapitali, majburiyatlarini umumiy va tarkibiy o'zgarishlariga baho beriladi. Umumiy o'zgarishlar buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida olinsa, tarkibiy o'zgarishlar bugalteriya yoki moliyaviy hisobotga «tushuntirish xati» da beriladi.

Gorizontal tahlil va vertikal tahlilni fanga olib kirgan shaxsning nomini aniq keltirish qiyin. Negaki bu usul matematik ifodani, iqtisodiy matematik usullarni iqtisodiyotda qo'llash bilan fanga kirib kelgan. Uning ilk iboralarini tahlilchilar Sheremet A.D., Sayfulin R., Abdukarimov I.T.<sup>30</sup>, Pardaev M.Q., Isroilov ., Vaxobov A., Ibragimov A., asarlarida uchratish mumkin.

Buxgalteriya balansini gorizontal va vertikal tahlili yuzasidan prof. I.f.d. E Akramov o'zining «Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya»<sup>33</sup> kitobida gorizontal va vertikal tahlil yuzasidan prof. M.Q. Pardaev tomonidan bildirilgan fikrni to'la takrorlaydi.<sup>34</sup> Faqat toqqoslash bazasi bo'yichagina ular qarashdarida, farqni sezish mumkin. Ya'ni M.Q.Pardaev xisobot davri kursatkichini o'tgan davr ko'rsatkichi bilan taqqoslansa, prof. E.Akramov tomonidan uning dinamik yoki bazis davriga nisbatan o'zgarishlarini taqqoslash tavsiflanadi.

<sup>27</sup> Pardaev M.Q., Isroilov B. Moliyaviy tahlil. T.: Iqtisodiyot va xukuk dunyosi, 1999 y., 15-bet

<sup>28</sup> Pardaev M.Q., Isroilov B. Moliyaviy tahlil. T.: Iqtisodiyot va xukuk dunyosi, 1999 y., 15-bet

<sup>29</sup> Sheremet A.D., Sayfulin R.S. Metodika finansovogo analiza M.: INFRA-M 1996 g.

<sup>30</sup> Abdukarimov I.T. «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari» T.: Iqtisodiyot va xuquq dunyosi, 1999 y.

<sup>31</sup> Pardaev M.Q., Isroilov B. Moliyaviy tahlil. T.: Iqtisodiyot va xukuk dunyosi, 1999 y., 15-bet

<sup>32</sup> Vaxobov A., Ibragimov A. Moliyaviy taxlil. T.: Sharq 2002 y.

<sup>33</sup> Akramov E. Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya. T.:GNITI, GANT , Ruz

<sup>34</sup> Pardaev M.Q., Isroilov B. Moliyaviy tahlil. T.: Iqtisodiyot va xukuk dunyosi, 1999 y., 15-bet

Dinamik tahlil gorizontal tahlildan alohida farqlanadi. Bu farqlanish M.Q.Pardaevni «Moliyaviy tahlil» kitobida ham alohida tarkiblanadi.

## **2.3. Firma va kompaniyalarni mulki, kapitali va majburiyatlarini moliyaviy koeffitsentlardagi baholashishi**

Korxona mulki, kapitali va majburiyatlarini moliyaviy koeffitsentlar orqali o'rganish uning moliyaviy holatiga baho berishni yanada asonlashtiradi. Moliyaviy koeffitsentlar moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini va birlik elementlarini o'zaro nisbatlash asosida aniqlanadi. Uning umumiy va birlik ko'rsatkichlarini tarkiblash mumkin. Ushbu ifodada koeffitsent, indeks va foizlar ishlatiladi.

Moliyaviy koeffitsentlarni aniqlash va uning o'zgarishlarini qiyosiy taqqoslash asosida komaniya va firmaning moliyaviy axvolini aniqroq o'rganish, bilish imkonini tug'iladi. Masalan; bitta kompaniya yoki firmaning «moliyaviy mustaqillik koeffitsentini» aniqlanishiga e'tibor bering Ushbu ko'rsatkich «O'zlik mablag'lar manbayini» «Buxgalteriya balansini jami»ga bo'lish asosida aniqlanadi. Bu ko'rsatkich kompaniya yoki firmaning harakatda band qilingan mablag'inining qaysi darajasi o'ziniki ekanligini tavsiflaydi. Ya'ni harakatdagi, biznesdagi har bir so'mning qaysi qismi o'ziga tegishli ekanligini ifoda etadi.

«Koeffitsentlar - mulkning nisbiy darajasini tavsiflaydi» deyiladi Tomas P. Karlin, Albert M.Maklinni «Analiz finansovix otchetov (na asnove GAAP)» .

Lekin, o'zaro bog'liqlikga va aloqadorlikka ega bo'lgan ko'rsatkichlarnigina taqqoslash talab etiladi. Masalan, asosiy vositalarning umumiy qiymatini qarz kapitaliga nisbatlash bilan hech qanday natijaga ega bo'linmaydi. Ya'ni nisbatlash yakunida chiquvchi ifoda o'zining mazmuniga, mantig'iga ega bo'lmosg'i lozim. Bu mantiqni tulovga qobillik kursatkichlarida, moliyaviy barqarorlikda, o'z va qarz mablag'lari nisbatida, moliyaviy mustaqillik koeffitsenti va shunga o'xhash ko'rsatkichlarda ko'rish mumkin.

Analitik maqsadga erishish yuzasidan ingliz olimlari Tomas P.Karlin va Albert R.Maklin moliyaviy koeffitsentlarni uchta gurux va ularning har bittasini alohida tarkiblarga bo'ladilar.

1. Likvidlilik ko'rsatkichlari;
2. Levirdj;
3. Foydalilik ko'rsatkichlari.

Tahlil etishda ushbu koeffitsentlarni to'liq o'rganish talab etilmaydi. Balki qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda alohida tur koffitsentlar o'rganiladi.

Korxona mulki, kapitali va majburiyatları bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy koeffitsentlar

1. Uzoq muddatli aktivlarga baho berishni nisbiy ifodalari;
  2. Zahira va xarajatlarga baho berishni nisbiy ifodalari;
  4. O'z mablag'lari manbayiga baho berishning nisbiy ifodalari;
  5. Qarz mablag'lari va ularning nisbiy ifodalari;
1. Uzoq muddatli aktivlarga baho berishning nisbiy ifodalari:
    - asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsenti;
    - asosiy vositalarning eskirish koeffitsenti;
    - asosiy vositalarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi;

<sup>35</sup> Tomas P. Karlin, Albert M.Maklinni «Analiz finansovix otchetov (na asnove GAAP)» M.: INFRA-M 1998 g. smot.269 str.

- nomoddiy aktivlar yaroqlilik va eskirish koeffitsenti;
- nomoddiy aktivlarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi;
- uzoq muddatli aktivlarni o'z va qarz mablag'lari bilan manbalanishi koeffitsenti,...

2. Zahira va xarajatlarga baho berishning nisbiy ifodalari:

- zahira va xarajatlarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi;
- to'lovga qobillik koeffitsentlari;
- debitorlik qarzlarini holat ko'rsatkichlari,...

3. O'z mablag'lari manbayi bilan bog'liq bo'lgan nisbiy ifodalalar:

- moliyaviy mustaqillik koeffitsenti;
- moliyaviy karamlik koeffitsenti;
- moliyaviy barqarorlik koeffitsenti;
- jalb qilingan sarmoyaning jamlanganlik koeffitsenti;
- manevrlik koeffitsenti;
- o'z sarmoyasi harakatchanligi koeffitsenti;
- o'z va qarz mablag'lari nisbati koeffitsenti;
- o'z mablag'larini uzoq muddatli aktivlar va zahira, xarajatlarni manbalashdagi holat ko'rsatkichlari,...

4. Qarz mablag'lari holati bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar:

- qarz kapitali va o'z mablag'lari nisbati koeffitsenti;
- qarz kapitalini barcha kapital tarkibidagi salmog'i;
- uzoq muddatli mablag'larning chetdan jalb qilingan mablag'larga nisbati koeffitsenti,...

Kalqaro tajribada moliyaviy koeffitsentlarning 80 dan ortiq turi aniqlanadi (E.Akramov «Analiz finansovogo sotoyaniya predpriyatiya», 25-stranitsa 3-abzats).

Olim (E.Akramov) nazariy jihatdan moliyaviy koeffitsentlarni 2ta guruxga tarkiblashni tavsiya qiladi. Ya'ni:

- taqsimot (struktura) koeffitsentlar;
- koordinatsiya koeffitsentlari.

To'laxodjaeva M. tomonidan moliyaviy koeffitsentlarni quyidagi to'rtta guruxga ajratgan holda o'rghanish tavsiya etiladi. Ya'ni:

- 1.Likvidlilik darajasini xarakterlovchi moliyaviy koeffitsentlar;
- 2.Ish aktivligini xarakterlovchi moliyaviy koeffitsentlar;
- 3.Rentabellikni xarakterlovchi;
- 4.Kapital tarkibini xarakterlovchi;
- 5.Bozor aktivligini xarakterlovchi moliyaviy koeffitsentlar.

I.f.D. prof. To'laxodjaeva M. tomonidan ishlab chiqilgan va qo'llashga tavsiya etilgan moliyaviy koeffitsentlarni statik, dinamik, va o'rtacha ko'rsatkichlarga nisbatan o'rghanishning ham bir qator kamchiliklari mavjud.

Birinchidan: moliyaviy koeffitsentlar korxona moliyaviy holatini to'la ochib berolmaydi.

Ikkinchidan: ularning nisbiy ifodada o'lchanishi;

Uchinchidan; davomiylikka amal etmaslik hollari moliyaviy koeffitsentlarni kamchiligi sifatida keltirib o'tiladi. (Akramov E. «Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya» T.:TDEU., 2000 g. 26 stranitsa, 2-obzats).

**Buxgalteriya balansi asosida aniqlanadigan moliyaviy  
koeffitsentlarni ayrim turlari**

Ko'rsatkichlar	Aniqlanish formulasi
<b>Uzoq muddatli aktivlarga baho berishning nisbiy ifodalari:</b>	
-Asosiy vositalarning eskirish koeffitsenti	Asosiy vositalarning eskirish qiymati/Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati
-Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsenti	Asosiy vositalar qoldiq kiymati/Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati
-Asosiy vositalarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi	O'z mablag'lari+Uzoq muddatli qarz mablag'lari/Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati
-Nomoddiy aktivlar yaroqlilik va eskirish koeffitsenti	Nomoddiy aktivlarning qoldiq kiymati/Nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati
-Nomoddiy aktivlarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi	Nomoddiy aktivlarning eskirish qiymati/Nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati
<b>2. Zahira va xarajatlarga baho berishning nisbiy ifodalari:</b>	
-Zahira va xarajatlarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishi	O'z mablag'lari+Uzoq muddatli qarz mablag'lari-Uzoq muddatli aktivlar/Zahira va xarajatlar
-To'lovga qobillik koeffitsentlari	Joriy aktivlar/Joriy majburiyatlar
-Debitorlik qarzlarini holat ko'rsatkichlari	Debitorlik majburiyatları/Joriy aktivlar
<b>3. O'z mablag'lari manbayi bilan bog'liq bo'lgan nisbiy ifodalar:</b>	
-Jalb qilingan sarmoyaning jamlanganlik koeffitsenti	Jalb qilingan kapital/jami kapital
-O'z sarmoyasi harakatchanligi koeffitsenti	Xususiy kapital/O'z mablag'lari manbayi
-O'z mablag'larini uzoq muddatli aktivlar va zahira, xarajatlarni manbalashdagi holat ko'rsatkichlari	O'z mablag'larini jami+Uzoq muddatli qarz mablag'lari-Uzoq muddatli aktivlar/Zahira va xarajatlar
-O'z va qarz mablag'lari nisbati koeffitsenti	Qarz kapitali/O'z mablag'lari manbayi
-Moliyaviy mustaqillik koeffitsenti	O'z mablag'larini jami/ Jami mablag'lar
-Moliyaviy qaramlik koeffitsenti	Jami mablag'lar/O'z mablag'lari manbayi
<b>Qarz mablag'lari holati bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar:</b>	
-Qarz kapitalini barcha kapital tarkibidagi salmog'i koeffitsenti	Qarzga olingan mablag'lar/jami mablag'lar
-Uzoq muddatli mablag'larning chetdan jalb qilingan mablag'larga nisbati koeffitsenti	O'z mablag'lari manbayi/Qarz mablag'lari
-Karz kapitali va o'z mablag'lari nisbati koeffitsenti	Qarzga olingan mablag'lar/O'z mablag'lari manbayi

## **2.4. Buxgalteriya balansini trend tahlili**

Trend tahlili moliyaviy hisobot elementlari va ko'rsatkichlarini joriy davrga bo'lgan holatini bazis yili yoki asos yili ko'rsatkichi bilan o'rganishni xarakterlaydi. Lekin bu usul prof. M.Q.Pardaevni «Moliyaviy tahlil» o'quv qo'llanmasida “makon” tahlili deb berib o'tiladi hamda, unga quyidagicha ta'rif beriladi. «Makon tahlili-deganda birorta ob'ektni boshqa ob'ekt ko'rsatkichlari bilan solishtirilgan holda o'rganilishi tushuniladi».<sup>36</sup>

Trend tahlili mazmunini prof. E.Akramov quyidagicha izoxlaydi. “Trend tahlili-bu korxona moliyaviy holatining ko'rsatkichlar tizimini etarli darajada, davrlar oralig'i bo'yicha umumiyligi o'zgarishlar tendentsiyasida o'rganishni tavsiflaydi.”<sup>37</sup>

Yuqoridaagi fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: Trend tahlili-bu moliyaviy holat ko'rsatkichlarini bazis davr ko'rsatkichlariga nisbatan o'rganishni xarakterlaydi.

Agar prof. E.Akramovni davrlar oralig'i bo'yicha fikriga qo'shiladigan bo'lsak bu tahlil dinamik tahlilni o'zi bo'lib qoladi. Shu sababli uni, asos yiliga yoki maqbul deb topilgan yilga nisbatan o'zgarishlarini baholash trend tahlilini mazmunini tashkil etmaydi.

---

<sup>36</sup> <sup>2</sup> Pardaev M.Q., Isroilov B. Moliyaviy tahlil. T.: Iqtisodiyot va xukuk dunyosi, 1999 y., 15-bet

<sup>37</sup> Akramov E. Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya. T.:GNITI, GANT , RUz

## **2.5. Firma va kompaniyalar aktivlari va passivlarini tahlili**

Firma va kompaniyalar aktivlari deganda uning egaligi va erkin tasarrufidagi, joriy va uzoq muddatli aktivlari tushuniladi. Joriy aktivlar bu - pul mablag'lari, qimmatli qag'ozlar, tez pulga aylanadigan aktivlar hamda sekin pulga aylanadigan aktivlardan iboratdir.

Uzoq muddatli aktivlar- bu asosiy va nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar va uzoq muddatli qo'yilmalardan iboratdir.

Buxgalteriya balansi bo'yicha korxona passivlariga uning o'z kapitali va qarz kapitali kiritiladi.

Buxgalteriya balansini tengligi aktivlar va passivlar nisbatida quyidagicha ifoda etiladi;

**Aktivlar= Kapital + Majburiyatlar**

Ushbu ifodani buxgalteriya balansini ko'rsatkichlari va ularni o'zaro bog'liqligi bo'yicha quyidagi shaklda yozish mumkin:

$$\begin{aligned} \text{AV+NA+UMQ+MAM+DM+PMvaQQ=} \\ =\text{O'M+ChJQUMM+ChJQQMM+KM} \end{aligned}$$

**Bunda:**

**AV**-Asosiy vositalar;

**NA**-Nomoddiy faollar;

**UMQ**-Uzoq muddatli qo'yilmalar;

**MAM**-Moddiy aylanma mablag'lar;

**DM**-Debitorlik majburiyatları;

**PmvaQQ**-Pul mablag'lari va qimmatli qag'ozlar;

**O'M**-O'z mablag'lari;

**ChJQUMM**-Chetdan jalb qilingan uzoq muddatli mablag'lar;

**ChJQQMM**-Chetdan jalb qilingan qisqa muddatli mablag'lar;

**KM**-Kreditorlik majburiyatları.

Buxgalteriya balansini aktiv va passivlari tahlilida uning umumlashgan va birlik ko'rsatkichlariga hamda ularning o'zgarishlariga baho beriladi. Taqqoslash bazasi sifatida yil boshi yoki o'tgan yil ma'lumotlari olinadi.

Buxgalteriya balansini aktiv va passiv tomoni moddalarini soddalashtirilgan tartibda quyidagicha izohlash mumkin:

## 2.1.-jadval

### **Buxgalteriya balansi bo'yicha korxona aktivlari va passivlarini soddalashtirilgan tartibda tarkiblanishi**

Aktiv	Yil boshi	Yil oxiri	Passiv	Yil boshi	Yil oxiri
1.Uzoq muddatli aktivlar:			1.O'z mablag'lari manbalari		
1.1.Asosiy vositalar: a)Eskirishi b)Qoldiq qiymati	4995  1500  3495	5300  1800  3500	1.1.O'z mablag'lari	2300	2200
1.2Nomoddiy aktivlar: a)Eskirishi b)qoldiq qiymati	215  25  190	230  30  200	1.2.Aktsiyalar	500	600
1-bo'lim jami	3685	3700	1.3. Taqsimlanmagan foyda	1315	1700
11.Oborot aktivlar			Jami 1-bo'lim	4115	4500
2.1.Moddiy aylanma mablag'lar	3000	2700	11.Majburiyatlar		
2.2.Pul mablag'lari va boshqa aktivlar a)Pul mablag'lari b)Debitorlar v)qimmatli qag'ozlar	2660  300  1900  460	3300  450  2000  850	2.1.Uzoq muddatli	2700	2700
Jami 11-bo'lim	5660	6000	2.2.Qisqa muddatli	1000	850
			2.3.Kreditorlik majburiyatları	1530	1650
			11-bo'lim jami	5230	5200
Barcha aktivlar	9345	9700	Barcha passivlar	9345	9700

Firma aktivlari yil boshiga nisbatan 355 ming so'mga yoki 103.8 foizga o'zgargan. Bu o'zgarish uning tarkibiy elementlari bo'yicha quyidagicha bo'lgan. Uzoq muddatli aktivlar yil boshida 39,4 foizni, yil oxirida esa 38,2 foizni tashkil etgan.

Oborot aktivlar tarkibida moddiy aylanma mablag'lar salmog'i 32.1 foizdan 27.8 foizga tushib qolgan. Pul mablag'larining salmog'i 28.5 foizdan 34 foizga ortgan.

## 2.2.-jadval

### Buxgalteriya balansi aktivini tahlili

	Davr boshi		Davr oxiri		Farqi +,-		O'sish
	Sum-ma	Foiz	Sum-ma	Foiz	Sum-ma	Foiz	foiz
Balans aktivi moddalari							
1.Uzoq muddatli aktivlar:							
1.1.Asosiy vositalar:	4995		5300				
a)Eskirishi	1500		1800				
b)Qoldiq qiymati	3495	37.4	3500	36.1	+5	-1.3	100.1
1.2Nomoddiy aktivlar:	215		230				
a)Eskirishi	25		30				
b)qoldiq qiymati	190	2.0	200	2.1	+10	+0.1	105.3
1-bo'lim jami	3685		3700				
11.Oborot aktivlar							
2.1.Moddiy aylanma mablag'lar	3000	32.1	2700	27.8	+300	-4.3	90.0
2.2.Pul mablag'lari va boshqa aktivlar							
a)Pul mablag'lari	2660		3300				
b)Debitorlar	300		450				
v)qimmatli qag'ozlar	1900	28.5	2000	34.0	+330	+5.5	124.1
460			850				
Jami 11-bo'lim	5660	60.6	6000	61.8	660	1.2	106
Barcha aktivlar	9345	100	9700	100	355	-	103.8

Firma kapitali va majburiyatlarining holatini tahlil etish natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, davr boshiga o'z mablag'larining manbayini umumiy mablag'lar tarkibidagi salmog'i 44 foizni tashkil etgan holda, davr oxiriga kelib 46.4 foizga teng bo'lgan. Buni albatta ijobjiy hol sanash mumkin. Lekin shunga qaramay, firmanın moliyaviy qaramlik darajasi me'yoriy ko'rsatkichdan ancha past bo'lgan deyish mumkin. Negaki uning davr boshiga qarzlarga qaramlik darajasi 44/56 ga, davr oxiriga esa 46.4/55.6 ga teng bo'lgan. Yani qarz majburiyatlarining salmog'idagi o'zgarishlarga qaramasdan, ularning jami mablag'lar manbayi tarkibidagi salmog'i yuqoriligidicha qolgan.

**Buxgalteriya balansi passivini tahlili**

Balans aktivi moddalari	Davr boshi		Davr oxiri		Farqi +,-		O'sishi
	Sum-ma	Foiz	Sum-ma	Foiz	Summa	foiz	Foiz
1.O'z mablag'lari manbalari							
1.1.O'z mablag'lari	2300		2200				
1.2.Aktsiyalar	500		600				
1.3. Taqsimlanmagan foyda	1315		1700				
Jami 1-bo'lim	4115	44.0	4500	46.4	+385	+2.4	109.4
11.Majburiyatlar							
2.1.Uzoq muddatli	2700	28.9	2700	27.8	-	-1.1	100.0
2.2.Qisqa muddatli	1000	17.0	850	15.5	-50	-1.5	94.3
2.3.Kreditorlik majburiyatları	1530	10.1	1650	10.3	120	+0.2	106.2
11-bo'lim jami	5230	56.0	5200	56.0	-30	-2.4	99.4
Barcha passivlar	9345		9700	100	+355	x	103.8

Aktivlar va passivlar tahlili yuzasidan quyidagi muammoli jihatlarni qarab chiqish va ularning nazariy va amaliy echimini topish lozim deb o'ylaymiz:

Birinchidan; aktivlarni tarkiblanishida muammo mavjud. Rivojlangan mamlakatlar buxgalteriya balansini kuzatadigan bo'lsak (Angliya, Amerika, frantsiya, Germaniya va h.k.) aktivlar likvidlilik darajasi bo'yicha joylashtiriladi. Ya'ni avval likvid va tez likvid mablag'lar, oxirida uzoq muddatda pulga aylanuvchi aktivlar joylashtiriladi.

Ikinchidan; aktivlar qatoriga kiruvchi zararlar passiv tomonnni kamaytiruvchi qator sifatida beriladi. Zarar summasini passiv tamonda chegiriluvchi qator sifatida berilishi va uning xususiy kapital summasini aniqlashda chegiriluvchi qator sifatida olinishi ziyon summasini yo'q qilmaydi.

Aktivlar qatoridagi aylanma aktivlar bo'yicha aniq fikrlar yo'q. Negaki aylanma aktivlar, joriy aktivlar, oborot aktivlar, aylanma mablag'lar, joriy mablag'lar, oborot mablag'lar kabi so'zlar bitta mazmunda ishlataladi. Shundan: buxgalteriya balansida oborot nomida, M.Q.Pardaevni «Moliyaviy tahlil»<sup>38</sup> o'quv qo'llanmasida aylanma mablag'lar (oborot aktivlar) tarzida, Abdukarimov I.T. «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari»<sup>40</sup> o'quv qo'llanmasida aylanma aktivlar nomi bilan, prof. E.Akramovni «Analiz

<sup>38</sup> O'zR.Moliyav vazirligi «Moliyaviy hisobotni tuzish va topshirish tartibi to'g'risidagi Nizomi» 1997 yil 15-yanyv. 5-son

<sup>39</sup> Pardaev M.Q., Isroilov B. Moliyaviy tahlil. T.: Iqtisodiyot va xukuk dunyosi, 1999 y.,

<sup>40</sup> Abdukarimov I.T. «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari» T.: Iqtisodiyot va xuquq dunyosi, 1999 y.

finansovogo sostoyaniya predpriyatiya»<sup>41</sup> kitobida noharakatchan mablag'lar (aylanma aktivlar) nomi bilan nomlanishini keltirib o'tish mumkin.

Aylanma mablag'lar (oborot aktivlar)ni bir xilda nomlashga o'tish albatta nazariy jihatdan o'rinali bo'lgan bo'lar edi. Shu jihatdan bizningcha, ularning harakatchan aktivlar, harakatchan mablag'lar, oborot aktivlar, oborot mablag'lar, joriy aktivlar, joriy mablag'lar deb nomlanishidan chekinish lozim. To'g'ri bu xato bo'lmaydi. Shuningdek bir xildagi nomlanish uni tushunish va o'rganishda ham muhim hisoblanadi.

---

<sup>41</sup> Akramov E. Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya. T.:GNITI, GANT , RUz

## **2.6. Uzoq muddatli aktivlar, zahira va xarajatlarni o'z va qarz mablag'lari hisobiga manbalanishini tahlili**

Uzoq muddatli aktivlar hamda, zahira va xarajatlarning manbalanishi kompaniya va firmalar iqtisodiy salohiyati samaradorligini baholashda muhim masala hisoblanadi.

Firma va kompaniyalar biznesda nafaqat o'z kapitali balki qarz kapitalini ham ishlata dilar. Faoliyatda faqat o'z kapitali hisobiga ish yuritish o'rinsiz. Aniq reja va investitsion loyihalar albatta o'zini oqlabgina qolmay balki, kompaniya va firmalar mulkini, kapitalini o'stirish imkonini ham beradi. Lekin shunga qaramay, uzoq muddatli aktivlar va zahiralarni manbalashda o'z kapitalini holatiga muhim e'tibor qaratiladi. Negaki, bu ko'rsatkich kompaniya va firmalarning moliyaviy mustaqilligi va moliyaviy qaramlikligiga yo'l qo'ymaslikka imkon tug'diradi.

Uzoq muddatli aktivlarni shakllantirishda kompaniya va firmalar avvalo o'z mablag'lari va (ularning oqlanish, xizmat muddatining uzoqligi tufayli) uzoq muddatli qarz kapitalidan foydalanishni taqoza etadi.

Zahira va xarajatlarning manbalanishida ham biz albatta o'z mablag'larimizga shuningdek, ularning oqlanuvchanligini tezligidan kelib chiqqan holda qisqa muddatli qarz kapitalidan foydalanamiz.

Uzoq muddatli aktivlarni manbalanishini topish uchun buxgalteriya balansi bo'yicha quyidagi bog'lanishlarga tayaniladi.

Ya'ni:

**O'M+ChJQUMM-UMA**

Bunda:

**UMA-Uzoq muddatli aktivlar.**

Uzoq muddatli aktivlar o'z ichiga yuqorida bog'lanishlardan kelib chiqqan holda quyidagilarni oladi:

**UMA=AV+NA+UMQ**

Aylanma mablag'larning qoplanish manbayini topish uchun quyidagi bog'lanishlar beriladi:

**(MAM+DM+PMvaQQ)=(O'M+ChJQUMM)-(UMA)+(ChJQQMM+KM)**

Bunda:

(MAM+DM+PMvaQQ) - Aylanma mablag'larning qiymati;

(O'M+ChJQUMM) - (UMA) - Aylanma mablag'larning o'z mablag'lari hisobiga qoplanish qiymati;

(ChJQQMM+KM)-Aylanma mablag'larning chetdan jalb qilingan mablag'lar hisobiga qoplanish qiymati;

Bu bog'lanishlar Pardaev M.Q.ning «Moliyaviy tahlil» o'quv qo'llanmasida, «Iqtisodiy tahlil» darsliklarida kelitiriladi. Lekin ayrim adabiyotlarda undan farq etuvchi takiblanish beriladi.

Uzoq muddatli aktivlarni manbalanishi o'z va uzoq muddatli qarz kapitali hisobiga manbalanishi iqtisodiy jihatdan to'g'ri. Lekin zahira va xarajatlarni manbalashda manbayiga kreditorlik majburiyatlarini ham kiritilishini noto'g'ri deyish mumkin. Agar faoliyatning birinchi kuniga nisbatan oladigan bo'lsak, uning kreditorlik majburiyatları

bo'lmaydi. Bu esa manbalashda kreditorlik majburiyatları qiymatini umumiy ifodaga kiritishni talab etmaydi. Shuningdek, pul mablag'lari va debtorlik majburiyatlarini aylanma aktivlarni tarkibida manbalanishi yuzasidan ham xuddi shu fikrlarni bildirish mumkin.

Sof uzoq muddatli aktivlar, sof zahira va xarajatlarni o'zinigina manbalashdan iborat bo'lgan holllarda bizning fikrimiz albatta to'g'ri deb qaralmog'i lozim.

Mablag'larni moliyaviy manbalash yuzasidan M.Q.Pardaev «Moliyaviy tahlil» kitobida quyidagi chizmani keltirib o'tadi. Umumiy aktivlar summasi 1190 ming so'mga teng bo'lgan kompaniya o'z mablag'larini quyidagi tartibda manbalagan. (2.1.-chizmaga qarang)

Uning bog'lanishlaridan uzoq muddatli aktivlar, zahira va xarajatlarning o'z va qarz kapitali hisobiga manbalanishini o'qish mumkin. Masalan; 530 ming so'mlik uzoq muddatli aktivlarni 500 ming so'mi o'zi tomonidan, qolgan 30 ming so'mi chetdan jalb qilingan uzoq muddatli kapital hisobiga manbalangan. Umumiy qiymati 660 ming so'm bo'lgan aylanma mablag'larni 250 ming so'mi o'z mablag'i hisobiga, 10 ming so'mi chetdan jalb qilingan uzoq muddatli qarz kapitali hisobiga, 400 ming so'mi chetdan jalb qilingan qisqa muddatli majburiyat hisobiga manbalangan.2.1.chmzma

## **2.7. Lizing hisobiga olingan mablag'lar tahlili**

Lizing operatsiyalarini yo'lga qo'yilishi albatta, puxta ishlangan investitsion loyihalar asosida tashkil etiladi. Investitsion loyihalar esa o'z-o'zidan iqtisodiy va moliyaviy tahlil asosidagina aniq echimiga ega bo'ladi.

Investitsion loyihalarning moliyaviy va iqtisodiy tahlilini bevosita shu asnoda o'tkazilishi ham bejiz emas.

Kompaniya va firmalar erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida turli kredit institutlari bilan shartnomaviy asosda qarz munosabatlarini yo'lga qo'yishni talab etadi. Ana shunday institutlardan biri bu lizing kompaniyalarini hisoblanadi. Lizing kompaniyalarini imkoniyatlari tomoni shundaki bunda, ulkan moliyaviy resurslar talab qilinadigan texnika va texnologiyalarni olib kelinishi, xo'jalik yuritish sub'ektlari yoki tadbirkorlarga qimmatga tushadi.

Birinchidan: kompaniya yoki firma uning moliyaviy imkoniyatiga ega emas. Ega bo'lingan hollarda ham uning birdaniga jalb qilinishi mablag'larning oqlanuvchanlik davrini oshirib yuboradi. Ana shunday hollarda kompaniya albatta lizing asosida mablag'larni joylashtirishdan manfaat ko'radi.

Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish va uning aylanmasi asosida ega bo'lingan mablag'lar hisobiga davriy to'lovlarni amalga oshirilishi, kelishilgan muddat tugashi bilan texnika va texnologiyalarni o'z egaligiga o'tishi, lizing to'lovlarni asosiy qismini ishlab chiqarish xarajatlariga olib borilishi va boshqa yutuqli jihatlar lizing operatsiyalarini ham imkoniyatligini xarakterlaydi.

Albatta, narxlar o'zgaruvchanligi sharoitida investitsion loyihalarning uzoq davriylikdagi prognozining aniq echimini berish qiyin masala. Shu sababli, turli risklarni hisobga olish, inflyatsion jarayon, to'lovlarni amalga oshirish shakllariga ahamiyat berish talab etiladi. Xuddi shu holat Respublikamizda investitsion kompaniyalarining aktiv ishtirokchisi sifatida lizing kompaniyalarini ish faoliyatiga sezilarli ta'sir etmoqda. Lizing kompaniyalarini lizing shartlarida aktivlarni joylashtirishda turli qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.

Tahlil etishda lizing asosida korxona tasarrufiga va foydalanishiga berilgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa aktivlar yuzasidan to'lovlarni davriy amalga oshirilishi, ularning oqlanuvchanligi va samaradorligi, foydalilik darajasiga muhim ahamiyat beriladi. Afsuski, lizing operatsiyalari bo'yicha olingan mulk va uning samaradorligi tahlilini uslubiy asoslari olimlar tomonidan endigina tadqiq qilinmoqda. Bu bir jihatdan o'rinali ham. Negaki rejali iqtisodiyot, ko'char va ko'chmas mulkni joylashtirishni markazlashgan ta'minotini, tartibini va qoidalalarini belgilab bergen edi. Erkin bozor munosabatlari sharoitida esa bu mexanizmni saqlanishi o'rinsizligi kompaniya va firmalar oldiga ulkan ma'suliyat qo'yadi. Ya'ni: mulk va uni joylashtirishni, egalik va tasarruf etishni yangi shakllarini hayotga joriy etish zaruriyatga aylanadi.

## **2.8. Firma va kompaniyalar balansini reyting baholash va moliyaviy tahlilni yakuniy xulosalarini rasmiylashtirish tartibi**

Buxgalteriya balansi tahlilini oxirgi bosqichi - tahlil natijalarini yakuniy xulosalarini chiqarish va rasmiylashtirish hisoblanadi.

Yakuniy xulosada, kompaniya va firmalarni mulkiy holati, ularning manbalanishi, iqtisodiy va moliyaviy salohiyati, kompaniya va firma to'lovga qobilligi, likvidliligi, moliyaviy mustaxkamlik va barqarorligini tashxisi qo'yiladi.

Bu tashxis asosida - kompaniya va firmalarning iqtisodiy reyting bahosini ham berish mumkin. Kompaniya va firmalarni buxgalteriya balansi asosida iqtisodiy va moliyaviy reytingini aniqlashning uslubiy mezonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kompaniya yoki firmani iqtisodiy va moliyaviy salohiyati;
- kompaniya yoki firmaning mulkiy jamg'armasi, aktivlar va passivlar real qiymati;
- kompaniya yoki firmaning to'lovga qobilligi;
- kompaniya yoki firmaning moliyaviy mustahkamligi va barqarorligi;
- kompaniya yoki firma mablag'larini harakatchanligi (likvidliligi).

Tahlil natijalarini rasmiylashtirishni uslubiy tartibida xulosalarni aniq va ravon tilda bayon etilishiga, yutuq va kamchiliklarni asosligiga, o'rinali va ob'ektivligiga, yuzaga kelish va o'zgarishlarni davriyeligiga, tahlil yakuni bo'yicha kompaniya, firma boshqaruvini optimal strategiyalarini (chora, tadbirlar) belgilab olinishiga ahamiyat berish lozim.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Buxgalteriya balansini tahlil etishda uning dastlabki tekshirish zarurligini izohlang?
2. Buxgalteriya balansini gorizontal va vertikal tahlili deganda nimani tushunasiz?
3. Buxgalteriya balansini trend tahlili mazmunini tushuntiring?
4. Koeffitsentlar va ularni korxona moliyaviy holatiga baho berishdagi ahamiyatini tavsiflang?
5. Moliyaviy koeffitsentlarni qanday turlarini bilasiz?
6. Kompaniya (firma) mulkini manbalashni qanday mablag'lardan foydalaniladi?
7. Kompaniya (firma) aktivlari va passivlarini joylashtirilishini buxgalteriya balansi asosida tavsiflang?
8. Lizing operatsiyalari asosida olingan va joylashtirilgan aktivlar tahlili qanday amalga oshiriladi?
9. Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish tartibini tushuntiring?

### **3-bob. Mahsulot sotishni kritik hajm darjasida foydalilik tahlili**

#### **O'rganiladigan savollar;**

- 3.1. Realizatsiya hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va foya aloqadorligini tahlili
- 3.2. Ishlab chiqarish xarajatlarini baholash
- 3.3. Marjinal foya kontributsiyasi va uning omilli tahlili
- 3.4. Kritik hajm darajasida mahsulot ishlab chiqarish tahlili
- 3.5. Firma va kompaniyalar aktivlarini joylashtirish holati va uning foydalilikka ta'sirining tahlili
- 3.6. Firma va kompaniyalar passivlarini joylashtirish va uning foydalikka ta'sirini tahlili

**Mavzu bo'yicha tayanch iboralar;** sotish hajmi, xarajatlar, natija, kritik hajm, marjinal foya, yalpi foya, sof foya, o'zgaruvchan xarajat, o'zgarmas xarajat, shartli o'zgaruvchan xarajat, foydani baholanishi, xarajatlarni baholash, aktivlar va passivlarni boshqarish, joylashtirish.

#### **Mavzu bo'yicha muammoli savollar;**

1. "Daromad-xarajat-natija" aloqadorligini baholashni ifodasi bizning amaliyotga qanday kirib keldi?
2. Marja foydaci, sof foya ko'rsatkichlarini aniqlash hisob ob'ektiga kiradimi, agar kirmasa uning aniqlashdan maqsad nima?
3. Ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan, o'zgarmas, shartli o'zgaruvchan xarajatlariga bo'lism asosda hisobini yuritish, tahlil etishni yutug'i nimada?
4. Ishlab chiqarish xarajatlarini baholashni qanday usullari mavjud va ularni farqi nimada?
5. Aktivlar va passivlarni joylashtirishning qanday xollari firma, kompaniyaga foya keltiradi?
6. Firma va kompaniyalar rentabelligini oshirishni qanday yo'llarini bilasiz?
7. Daromad, xarajatlar, natija ko'rsatkichlarini hisobga olish va tahlil etishda, yuzaga chiqish joyi, markazlari, javobgarlari belgilanadi. Buning maqsadi nima?
8. Ishlab chiqarish va moliyaviy levirdjlar nima?
9. Rentabellik va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar?

#### **Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

(1, 3, 4, 5, 6, 8, 10, 13, 14, 15, 17, 20, 21, 23, 24, 25, 27, 39, 40, 42, 45, 48, 49, 54, 55, 56, 58, 59, 61, 62, 63, 64, 65, 69, 70)

### **3.1. Realizatsiya hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va foyda aloqadorligini tahlili**

Realizatsiya hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va foyda ko'rsatkichlari uzviy bog'liqlikga ega. Realizatsiya hajmi orqali yalpi daromad, yalpi tushum ko'rsatkichiga ega bo'linadi. Uning ishlab chiqarish xarajatlari bilan taqqoslash asosida foyda, natija ko'rsatkichiga chiqiladi. Buni matematik ifodada quyidagicha tasvirlash mumkin.

**F(D)=MSST-MICHT(TSOQ)**

Bunda;

F(D)-foyda(daromad);

MSST-mahsulot sotishdan sof tushum;

MICHT (TSOQ)-mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi (sotib olingan tovarlar qiymati).

Buxgalteriya hisobida mahsulot chiqishi, xarajat va natija olaqadorligini quyidagi bog'lanishda hisobga olish tartibi ham belgilanadi.

Mahsulot chiqishi - Xarajatlar=Natija

Natijaviy ko'rsatkich demakki, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga yoki tovaroborot ko'rsatkichiga xamda, ishlab chiqarish xarajatlari yoki tovarlarni sotib olish qiymatiga bog'liq deb qaraladi. Uning birlik ifodasini esa kuyidagicha tasvirlash mumkin.

**N=D\*B\*D\*T;**

**N=D (B-T);**

Bunda;

N-foyda;

B-mahsulot birligini bahosi (so'm);

D-mahsulot birligi (dona);

T-mahsulot birligini ishlab chiqarish tannarxi (so'm).

Yuqoridagi bog'lanishdan natijaviy ko'rsatkichni mahsulotning miqdori, bahosi va birlik tannarxiga bog'liq ekanligi kelib chiqadi. Uning ifodasi bevosita natijaviy ko'rsatkichni omilli tahlil etish imkonini ham beradi. Demak, natija o'zgarishiga hisob-kitob qilinadigan quyidagi omillar ta'sir etishini izoxlash mumkin;

-ishlab chiqarilgan mahsulotlar birligini o'zgarishi;

-mahsulotlar birlik bahosining o'zgarishi;

-mahsulotlar birlik tannarxining o'zgarishi;

Marjinal foya kontributsiyasiga nisbatan oladigan bo'lsak ishlab chiqarish xarajatlarini shartli o'zgaruvchan, o'zgarmas, o'zgaruvchan xarajatlarga tarkiblanishi, bog'lanishni yanada murakkablashtiradi. Bunda ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarishida mahsulot (ish, xizmat)lar hajmini o'zgarishi asos qilib olingan.

3.1.-jadval natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki ; mahsulot sotishdan olingan sof tushum 2500.0 ming so'mni va uning ishlab chiqarish tannarxi 2250.0 ming so'mni tashkil etgan. Mahsulot sotishdan ko'rilmagan natija 250 ming so'm ijobiy farqlanishga ega bo'lgan.

Umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining ichida 2000.0 ming so'mi o'zgaruvchan xarajatlar, 250 ming so'mi o'zgarmas xarajatlar sifatida belgilangan. Bu orqali mahsulot sotishdan marjinal foya va sof foya ko'rsatkichlari aniqlangan.

Qolgan bog'lanishlar boshqa faoliyatdan daromad- xarajat= natija aloqadorligini xarakterlaydi.

### 3.1.-jadval

#### **Mahsulot sotish hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va natija aloqadorligini ko'rsatkichlar**

Daromad	Xarajat	Natija
1	2	3
Mahsulot sotishdan sof tushum (2500.0 m.s.)	Sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi (2250.0 m.s.)	Mahsulot sotishdan yalpi foyda (250.0 m.s.)
	A)O'zgaruvchan xarajatlar (2000.0 m.s.)	Marjinal foyda (500.0 s.m.)
	B)O'zgarmas xarajatlar (250.0 m.s.)	Mahsulot sotishdan sof foyda (250 m.s.)
Operatsion faoliyatdan tushum (230.0 m.s)	Operatsion xarajat (335.0 m.s)	Operatsion faoliyatdan foyda (daromad) (-105 m.s.)
Moliyaviy faoliyatdan tushum (410.0 m.s.)	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar (300.0 m.s.)	Moliyaviy faoliyatdan foyda (daromad) (110 m.s.)
Kutimagan holatlardan tushum (0.0)	Kutilmagan holatlardan xarajat (0.0.)	Kutilmagan holatlardan foyda (0.0)
Umumiyl tushum (daromad) (3140 m.s.)	Umumiyl xarajat (sarf) (2885 m.s.)	Umumiyl foyda (265 m.s.)

<sup>42</sup> M.Yu.Raximov "Don maxsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy natijalar hisobi, taxlili va auditini takomillashtirish"(dissertatsiya). T.; O'zR. Bank va Moliya akademiyasi, 1999 yil

### **3.2. Ishlab chiqarish xarajatlarini baholash**

Ishlab chiqarish xarajatlarini baholash moliyaviy hisobotlashning muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish xarajatlarni baholashda albatta ularning tuzilishi va tabiatini bilish talab etiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari “Xarajatlar tarkibi” to’g’risidagi Nizomga muvofiq quyidagi xarajat elementlari bo’yicha tarkiblanadi;

-Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

-Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari va ajratmalar;

-Ishlab chiqarishda bevosita va bilvosita qatnashayotgan asosiy va nomoddiy aktivlarni eskirish xarajatlari;

-Ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar.

Ularni baholanishi tarkib bo’yicha bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan; mehnat haqini baholanishi hisoblangan mehnat haqi va ajratmalar summasidan yoki mehnat haqi va ajratmalar yuzasidan tan olingen majburiyatlar summasidan kelib chiqib baholanadi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya, eskirish qiymatlari belgilangan, qat’iy, normalar asosida hisob-kitob qilingan qiymat bilan baholanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiruvchi moddiy xarajatlarni baholanishi asosiy vositalarni yoki nomoddiy aktivlarni eskirishi, mehnat haqi va ajratmalar baholanishidan keskin farq qiladi. Moddiy resurslar tarkibiga kiruvchi va ishlab chiqarish xarajatlarida asosiy element hisoblangan zahiralarni baholanishini buxgalteriya hisobini milliy standartlari bo’yicha quyidagi turlari tarkiblanadi;

-O’rtacha tannarx usuli;

-FIFO usuli;

-LIFO usuli;

O’rtacha tannarx usuli zahiralarni o’rtacha bahosida ishlab chiqarish tannarxiga olib borishni, Fifo usuli dastlabki kirimni dastlab chiqarishni, Lifo usuli so’ngi kirimni dastlab hisobdan chiqarishni xarakterlaydi.

Bu usullarni farqlashni ahamiyati shundaki, ularning natijaviy ko’rsatkichga ta’siri turlicha bo’ladi. Masalan; o’rtacha tannarx bo’yicha alohida ishlab chiqarish tannarxiga, fifo usulida alohida, lifo usulida alohida ishlab chiqarish tannarxi ko’rsatkichlariga ega bo’linadi. Buning ta’sirida natijaviy ko’rsatkich ham turlicha chiqadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini baholashda boshqa xarajat elementlarini baholanishi xarajatlarning tarkibi bo’yicha farqlanadi. Masalan; xizmatlar shaklida olingen ishlar xajmi ularning xaqiqiy qiymati yoki majburiyatlarning tan olingen qiymati bo’yicha baholanadi.

### Ishlab chiqarish xarajatlarini baholash usullari va ularning tavsifi

Xarajat elementlari, turlari	Baholash usullari
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar	FIFO
	LIFO
	AVEKO
	Xaqiqiy tannarxida
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita mehnat haqi va ajratmalar	Hisoblangan va tan olingan qiymati bo'yicha
Ishlab chiqarish xarakteridagi asosiy vosita va nomoddiy aktivlar eskirishi	Belgilangan me'yorlar asosida
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita boshqa xarajatlar	Xaqiqiy qiymati bo'yicha
Debitorlik va kreditorlik majburiyatları	Tan olingan va yuzaga kelgan qiymati bo'yicha
Qimmatli qag'ozlar	Pulli ekvivalentlarni xaqiqiy qiymati bo'yicha
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar	Sotib olish va qurish qiymatida (har yilning 1-yanvar holatiga qayta baholash amalga oshiriladi)
Tugallanmagan ishlab chiqarish	Tugallanmagan ishlab chiqarishni haqiqiy qiymati bo'yicha

### **3.3. Marjinal foyda kontributsiyasi va uning omilli tahlili**

Marjinal foyda- faoliyat natijaviyligini baholashda muhim samaradorlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Uning aniqlanishida ishlab chiqarish xarajatlarini mahsulot hajmining o'zgarishiga muvofiq, o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajat moddalariga tarkiblanishi hisobga olinadi. Mahsulot sotishdan olingan sof tushumdan o'zgaruvchan xarajatlarni chegirish asosida marjinal foyda ko'rsatkichiga chiqiladi. Marja foydasidan o'zgarmas xarajatlarni chegirish asosida mahsulot sotishdan yalpi foyda (sof foyda) ko'rsatkichi aniqlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga tarkiblanishi nashr etilgan adabiyotlarda nazariy jihatdan bayon etiladi, lekin uning buxgalteriya hisobining ob'ektiga aylanmaganligi, ularning amaliyotda alohida tarkiblanishini talab etmaydi. Shu sababli, amaliyotda ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga tarkiblagan holda hisobga olish tartibiga amal etilmaydi. Ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlardan tashqari, shartli o'zgaruvchan xarajatlarga ham tarkiblash "Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi" berilgan sharxlarda keltirib o'tiladi. Shartli o'zgaruvchan xarajatlarni tarkiblash esa so'ngi o'zgarishlarga muvofiq olib tashlangan.

Ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga tarkiblashdan maqsad shuki-bu xarajatlarni yuzaga chiqish shakli, o'rni va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olish hamda xarajatlarni maksadli boshqarish imkonini beradi. Afsuski, ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlariga tarkiblashda ishlab chiqarish va davr xarajatlarini bir xil mazmunda qarashmoqda. Vaxolanki bu tarkib xarajatlarning har ikkalasida ham o'zgaruvchan, o'zgarmas xarajatlar mavjud.

Mahsulot sotishdan olingan tushumni hisoblashda "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi"<sup>44</sup> Qonunni qa'bul qilinishi va amaliyotga kiritilishi bilan kassali usuldan hisobga olish usuliga o'tish belgilandi. Buni bevosita hisobning barcha o'zgaruvchi birliklarini o'z ichiga oluvchi korxona hisob siyosatining o'zgarishi bilan xarakterlash mumkin. Demak, marjinal foyda kontributsiyasiga ta'sir etuvchi asosiy birliklardan biri bu- korxona hisob siyosatining o'zgarishidir.

Kassali usuldan hisobga olish usuliga o'tilishi marjinal foyda, yalpi summasini oshiradi. Lekin keyingi davrlar bo'yicha uning realligini ta'minlash vazifasi qo'yiladi.

<sup>43</sup> Maxsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi, maxsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar hamda moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risidagi" Nizom. O'zR. MV. 1999 y. 54-son

<sup>44</sup> "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" Qonun, 1996 y. 30-avgust

### Marjinal foyda va uning omilli tahlili hisob- kitoblari

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili shartli	Hisobot yili
Mahsulot sotishdan yalpi tushum	Mo'*Bo'	Mx*Bo'	Mx*Bx
Sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxida o'zgaruvchan xarajatlar	Mo'*O'o'	Mx*O'o'	Mx*O'x
Marjinal foyda	Mo'(Bo'-O'o')	Mx(Bo'-O'o')	Mx(Bx-O'x)
Sotilgan mahsulot tannarxida o'zgarmas xarajatlar	Oo'	Ox	Ox
Mahsulot sotishdan sof foyda	Mo'(Bo'-O'o')-Oo'	Mx(Bo'-O'o')-Ox	Mx(Bx-O'x)-Ox

Belgilar izohi;

Mo', Mx- o'tgan yil(Mo') va hisobot yilidagi(Mx) haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori;

Bo', Bx-o'tgan yil (Bo') va hisobot yilidagi(Bx) sotilgan mahsulotlar birlik bahosi;

O'o', O'x-o'tgan yil (O'o') va hisobot yilida(O'x) mahsulotlar birligiga o'zgaruvchan xarajatlar;

Oo', Ox-o'tgan yil (Oo') va hisobot yilida (Ox) jami o'zgaruvchan xarajatlar.

Yuqoridagi bog'lanishlardan marjinal foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni ham hisob-kitob qilish mumkin. Marjinal foyda ko'rsatkichi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi, hisob-kitob qilinadigan omillarga mahsulotlar miqdori, birlik bahosi va bir birlikka o'zgaruvchan xarajatlar o'zgarishi ta'siri kiradi.<sup>45</sup>

1. Marjinal foyda va uning o'zgarishiga mahsulot miqdorini o'zgarishi ta'sirini topish uchun quyidagi bog'lanishdan foydalaniladi;

$$\mathbf{Mx * Bo' - Mo' * Bo' = Bo' * (Mx - Mo');}$$

2. Marjinal foyda o'zgarishiga baho o'zgarishining ta'sirini quyidagi bog'lanishda topish mumkin;

$$\mathbf{Mx * Bx - Mx * Bo' = Mx * (Bx - Bo');}$$

3. Marjinal foyda o'zgarishiga mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar sarfi o'zgarishini ta'siri quyidagi bog'lanishda topiladi;

$$\mathbf{Mx * O'x - Mx * O'o' = Mx * (O'x - O'o');}$$

Uchta omil yig'indisi jamlangan holda marjinal va sof foyda o'zgarishiga omillar ta'sirini hisob-kitob qilib chiqish mumkin.

<sup>45</sup> Ushbu bog'lanish i.f.n., dots. M.Yu.Raximov tomonidan tavsiya etiladi..

### **3.4. Mahsulot ishlab chiqarishni kritik hajm darajasini tahlili**

Firma va kompaniyalar faoliyat yuritayotganda turli kutilmagan xodisalarga duch keladi. Bu esa to'g'ri baholashni talab etadi.

Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarishda uning qanday hajmi korxonaga zararsiz ishlash imkonini tug'diradi, yoki mahsulotning qaysi birligida mahsulot sotishdan olinadigan tushum to'la o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarni qoplay oladi?

Ushbu vazifani bajarish uchun firma va kompaniyalarda mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darjasini ko'rsatkichi aniqlanadi.

Har bitta korxona mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish rejasini tuzishda albatta kutiladigan foyda normasini hisoblashga va biznes samaradorligini baholashga ahamiyat berishadi. Foyda normasini belgilab olish, erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada murakkab masala hisoblanadi. Negaki uning hisob-kitobida turli taxlikalarni (risklarni) hisobga olishga to'g'ri keladi.

Foyda normasini hisoblashni murakkabligi shundaki, bunda resurslar, mahsulotlar bahosi, soliqlar, to'lovlar firma va kompaniyalar faoliyatiga bog'liq bo'limgan holda o'zgaruvchanlikka ega bo'ladi. Ularni hisob-kitob qilish imkoni tug'iladi qachonki aniq ko'rsatkichlar manbasiga ega bo'linsa. Bu manba inflyatsiyani ta'sir darjasini, baholarning o'zgarish holatlari, ishlab chiqarish xarajatlarini o'zgaruvchanligi (mahsulot hajmi va resurslar bahosini o'zgarishi hisobiga) bo'lishi mumkin.

Shu jihatdan, mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darjasini aniqlash va uni tahlil etish, iqtisodiy harakatda va biznesda muhim masala hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich orqali kompaniya va firmalar mahsulot ishlab chiqarishning foydalilik darjasini belgilab oladilar. Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darjasini belgilash, uning hisob-kitoblari olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan; uni aniqlashning turli ifodalari xam tavsiya etilgan.

Mahsulot ishlab chiqarishni kritik hajm darjasini hisoblashning quyidagi bog'lanishli ifodasini berib o'tish mumkin. (Raximov M.Yu. «Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy natijalarni hisobga olish, tahlil etish va auditni takomillashtirish muammolari» dissertatsiya avtoreferati, T.: O'zR Bank va Moliya Akademiyasi, 1999 y.)

$$Y_k = (S/P)^* Y_k + U$$

Bunda:

Y<sub>k</sub>-kritik hajm darjasidagi mahsulot hajmi;

U-jami o'zgaruvchan xarajatlar;

S-mahsulot birligida o'zgaruvchan xarajat;

P-mahsulot birligini bahosi.

Shuningdek, Kritik hajm darjasida mahsulot ishlab chiqarishni quyidagi ifodalar orqali aniqlash ham mumkin va ularning mazmuni bitta (3.4.-jadvalga qarang).

Belgilar izoxi;

Q<sub>k</sub>-kritik hajm darjasidagi mahsulotni miqdoriy birligi;

C+S+o-O'zgaruvchan xarajatlar+O'zgarmas xarajatlar+ foyda. Bunda foyda miqdori nolga teng deb olinadi. Ya'ni; ishlab chiqarish va savdo aylanmasidan olingan daromad to'liq, barcha xarajatlarni qoplagan holda foydaga ega bo'linmaydi.

### 3.4.-jadval

#### **Mahsulot ishlab chiqarishni kritik hajm darajasini aniqlashni hisob-kitob qilish formulalari**

Aniqlanish formulasi	Muallifi
$Y_k = U/(S/P)$ <sup>46</sup>	Prof. Sheremet A.D.
$Y_k = Q * S +$	Prof. Sheremet A.D.
$Y_k = (S/P) * Y_k +$	I.f.n.dots. Raximov M.Yu.
$Y_k = C + S +$	I.f.n.dots. Raximov M.Yu.
$Q_k = U/(P-S)$ <sup>50</sup> $Y_k = Q_k * P$	Prof.Tomas P. Karlin
$Y_k = U/P/P -$	I.f.n.dots. Raximov M.Yu.
$F = R - S = (r - s) * Q -$	I.f.n. N.Xasanov,S.Najmuddinov Bunda;r-baho,s-bir birlikka o'zgaruvchan xarajat,S-jami o'zgarmas xarajat, Q-maxsulot birligi,miqdor

Kritik hajm darajasini grafik chizmasini quyidagicha ifoda etish mumkin (3.1.-chizmaga qarang).

Kritik hajm darajasidagi mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi birliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

- mahsulot birligi bahosini o'zgarishi;
- bir birlikka o'zgaruvchan xarajatlarni o'zgarishi;
- doimiy xarajatlarni o'zgarishi;

<sup>46</sup> Sheremet A.D. Faktorniy analiz kriticheskogo obema produktsii. M.: Dengi i kredit, 1998g. 36 st.

<sup>47</sup> Sheremet A.D. Faktorniy analiz kriticheskogo obema produktsii. M.: Dengi i kredit, 1998g. 36 st.

<sup>48</sup> Raximov M.Yu. Don maxsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy natijalar xisbi. Taxlili va auditini takomillashtirish. Dissertatsiya, O'zR. Bank Moliya akademiyasi, 1999 y.


<sup>49</sup> Raximov M.Yu. Don maxsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy natijalar xisbi. Taxlili va auditini takomillashtirish. Dissertatsiya, UzR. Bank Moliya akademiyasi, 1999 y.

<sup>50</sup> Tomas P.Karlin Analiz finansovix otchetov.M.: INFRA-M, 1998

<sup>51</sup> Raximov M.Yu. Don maxsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy natijalar xisbi. Taxlili va auditini takomillashtirish. Dissertatsiya, O'zR. Bank Moliya akademiyasi, 1999 y.

<sup>52</sup> N.Xasanov,S.Najmuddinov Korxona moliyaviy xolatini baholash( muammolar va ularni xal qilish) T.; Iqtisodiyot va xuquq dunyosi 1999y. 51-bet

### Kritik hajm darajasini grafik shaklida ifoda etilishi



#### Ishlab chiqarish hajmi

Muallif tomonidan tavsija etilgan l-formula asosida yakuniy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi bog'lanishlarda hisob-kitob qilish mumkin.

Kritik hajm darajasiga mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar ta'sirini hisob-kitobi;  

$$Y_{k1} = (S_x/P_r) * Y_{kr} + U_r - (S_r/P_r) * Y_{kr} + U_r$$

Kritik hajm darajasiga mahsulot bahosini o'zgarishini ta'siri;

$$Y_{k2} = (S_x/P_x) * Y_{kr} + U_r - Y_{kr1}$$

Kritik hajm darajasiga mahsulot hajmining o'zgarishini ta'siri;

$$Y_{k3} = (S_x/P_x) * Y_{kx} + U_r - Y_{kr2}$$

Bog'lanish bilan aniqlanadi.

### **3.5.Firma va kompaniyalar aktivlarini joylashtirish holati va uning foydalilikka ta'sirini tahlili**

Firma va kompaniyalarning moliyaviy va iqtisodiy salohiyati ko'pincha aktivlarini joylashtirilishi hamda, ularning samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Buni bevosita quyidagi izohlash mumkin. Sobiq, rejali iqtisodiyot davrida barcha aktivlar yuqoridan belgilangan tartibda ta'minlanishi va joylashtirilishidan, korxonalar erkin ularni o'zgartirishga harakat qilmas edilar. Natijada aktivlarning u yoki bu turi o'zining muqim o'rnida turishi va harakatda faol yoki nofaol holatda foydalanar edi.

Aktivlarni xududlar va tarmoqlar bo'yicha joylashtirilishida ham farqlarni sezish mumkin edi. Natijada, asosiy vositalardan samarali foydalanish darajasi ham, aktivlarni foydaliligi ham oldindan belgilangan holda tashkil etilar edi. Maboda ortiq foyda normasiga ega bo'linsa u ham markazlashgan tartibda byudjetga, davlatga yig'ib olinar edi. Mulk, aktivlar, ularning ta'minoti va joylashtirilishini mazmuni esa bugun keskin o'zgardi. Firma va kompaniyalar aktivlarni shunday joylashtirishi lozimki bu holat unga imkon qadar, maksimal darajada foyda olib kelsin yoki minimal darajada zararga ishlasin. Aktivlarni samaradorlik darajasi esa birinchi o'ringa qo'yildi.

Firma vaktivlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

3.5.-jadval

#### **Firma aktivlari va ularning tarkibiy tuzilishi**

Aktivlar	Uzoq muddatli aktivlar	Noharakatchan aktivlar	Asosiy vositalar	Ko'chmas mulk
			Nomoddiy aktivlar	Me'yorlanmaydig an aktivlar
	Aylanma aktivlar	Harakat chan aktivlar	Doimiy harakatchan aktivlar	
			Tez harakatchan aktivlar	
			Sekin xarakatchan aktivlar	Me'yorlanuvchi aktivlar

Aktivlarni joylashtirishda albatta erkin bozor iqtisodiyoti qonun qoidalarini, raqobatchilarni holati va harakatini, turli risklarni hisobga olishni talab etiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aktivlarni joylashtirishda muqim xolatlarga tayanilmaydi, balki bozordagi holatdan kelib chiqqan holda davriy va doimiy o'zgarishlar zaruriyatiga tayaniladi.

Aktivlarni joylashtirishda quyidagi yo'nalishlarni tarkiblab o'tishni lozim deb o'ylaymiz;

- faoliyatni ilg'or shakllariga;
- ilg'or texnika va texnologiyalarga;
- malakali kadrlarni o'qitish va qayta o'qitishga;

-investitsion faoliyatga va hakozagaga.


Tahlil etishda, aktivlarni holatiga, joylashgan o'rniga, joyiga, javobgarlik sub'ektlari bo'yicha o'zgarishlariga, aktivlarning xarakatlanishiga, samaradorligiga va uning o'zgarish sabablariga muhim ahamiyat beriladi.

Korxona aktivlarini joylashuvida quyidagi sxematik bog'lanishni berib o'tish mumkin.

Aktivlarni joylashtirishda, eng avvalo, uzoq muddatli aktivlarni joylashtirishga, undan keyin oborot aktivlarni joylashtirishga ahamiyat beriladi.

### 3.2.-chizma

#### **Aktivlarni joylashtirishni umumiylsxemasi**



### **3.6. Firma va kompaniyalar passivlarini joylashtirish va uning foydalikka ta'sirini tahlili**

Passivlar qatoriga firma, kompaniya kapitali va majburiyatlari kiritiladi. Kapital bu - firma va kompaniyaning o'z mablag'lari qatoriga kiruvchi manbalari hisoblanadi. Uning tarkibiga ustav kapitali, rezerv, qo'shilgan kapital, foydani taqsimlanmagan qismi, kelajakda olinadigan foya, daromadlar, zahiralar kiritiladi.

Majburiyatlar qatoriga firma, kompaniyaning joriy majburiyatlar, uzoq va qisqa muddatli qarz kapitali kiritiladi.

Firma passivlari tuzilishini quyidagi jadval asosida tushunib olish mumkin.

3.6-jadval

#### **Firma (kompaniya) passivlari va ularning tuzilishi**

Passivlar	O'z mablag'larining manbayi	Xususiy kapital Maqsadli tushumlar, zaxiralalar, kelgusi daraomadlar	Doimiy passivlar	Aylanma mablag'larni shakllantirish manbayi
	Majburiyatlar	Uzoq muddatli majburiyatlar		
		Joriy majburiyatlar	Uzoq muddatli majburiyatlar Kreditorlik majburiyatları	
			To'lov muddati kelgan majburiyatlar	

Firma va kompaniyalar passivlarini joylashtirish uning foydalilik darajasiga sezilarli darajada ta'sir etadi. Buni quyidagicha izoxlash mumkin. Masalan; firma va kompaniyaga uzoq va qisqa muddatli majburiyatlarni jalb etilishi, ular yuzasidan to'lanadigan foizlar hisobiga uning foydasiga sezilarli ravishda salbiy ta'sir etadi.

Xuddi shu holatni buxgalteriya balansining passiv tomoni, birinchi bo'lim moddalarida ham ko'rish mumkin. Kelgusi davr daromadlari yoki kelgusi davr xarajatlari va to'lovlar zahirasi holati ham uning faoliyat natijaviyligi ta'sir etuvchi birlik sifatida olinadi. Korxona moliyaviy nobarqarorlik holatiga tushib qolgan hollarda ham uning faoliyat natijaviyligi foya bilan chiqish xollari kuzatiladi. Buni bevosita, aylanma mablag'larini manbalashda o'z mablag'larining etishmovchiligi bilan izohlash mumkin.

Joriy majburiyatlar tarkibida kreditorlik majburiyatlarining ko'payib ketishi ham firma, kompaniya faoliyat natijaviyligiga sezilarli ta'sir etadi. Negaki, uning xolati ishlab chiqarish jarayoniga va uning boshqa tashkilotlar bilan bo'ladigan oldi-sotdi munosabatlariga ta'sir etadi. Natijada firma, kompaniyaga ishonchsizlik tug'iladi.

## **Mavzu bo'yicha nazorat savollari**

- 1."Daromad-xarajat-natija" aloqadorligini tushuntiring?
- 2.Realizatsiya hajmini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tavsiflang?
- 3.Ishlab chiqarish xarajatlari, daromad va natijani baholashni usullarini tavsiflab bering?
- 4.Kritik hajm darajasidagi mahsulot qanday mahsulot?
5. Kritik hajm darajasida mahsulot hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlili qanday olib boriladi?
6. Mahsulot sotishdan yalpi foyda, marjinal foyda tahlili va uning o'zgarishini omilli tahlili qanday bajariladi?
7. Ishlab chiqarish va moliyaviy levirdjlar nima?
- 8.Firma va kompaniyalar aktivlari va passivlarini joylashtirishni uning foydasiga ta'sirini baholang, tahlil qiling?
10. Mahsulot ishlab chiqarishni kritik hajm darajasini tahlil etish boshqaruva tahlilini ob'ekti bo'la oladimi, agar bo'la olsa uning moliyaviy tahlilda o'rghanishni sababini tushuntiring?
11. "Daromad-xarajat-natija" olaqadorligini operatsion jarayonlarga nisbatan qo'llash mumkinmi, agar mumkin bo'lsa uning mazmunini tushuntiring?
12. Marjinal, kontributsiya kabi so'zlarni ma'nosini tushuntiring?

## **4-bob. Iqtisodiy nochor firma va kompaniyalar faoliyatini tahlil qilishni xususiyatlari**

### **O'rganiladigan savollar**

- 4.1. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) tushunchasi mohiyati, firma va kompaniyalarda iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi sabablar va omillar
- 4.2. Moliyaviy barqaror, moliyaviy havf hatari bor va moliyaviy nabarqaror firma va kompaniyalar faoliyatini tahlili
- 4.3. Firma va kompaniyalar iqtisodiy nochorligini tahlili
- 4.4. Iqtisodiy nochor firma va kompaniyalarni moliyaviy tahlili natijalarini umumlashtirish
- 4.5. Iqtisodiy nochor firma va kompaniyalar faoliyatini tahlili va ularni moliyaviy sog'lomlashtirishda xalqaro tajribalar hamda ulardan foydalanish.

**Mavzu bo'yicha tayanch iboralar;** iqtisodiy nochorlik, nochorlik belgilari, nochorlikka olib keluvchi sabablar, nochorlikni aniqlash ko'rsatkichlari, sanatsiya, restrukturizatsiya, qayta tashkil etish, tugatish, tashqi boshqaruv, moliyaviy sog'lomlashtirish, moliyaviy barqarorlik, nobarqarorlik, bankrotlik.

### **Mavzu bo'yicha muammoli savollar**

1. Iqtisodiy nochorlik bozor iqtisodiyotini doimiy yo'ldosh deyish mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa bunga nimalar olib keladi?
2. Firma va kompaniyalarda iqtisodiy nochorlikni qanday aniqlash mumkin, uning uslubiy, xuquqiy negizlari mavjudmi?
3. Iqtisodiy nochorlik masalalari bilan davlat nomidan qaysi organ ish olib boradi. Uning ish natijalari xaqida nimalar deya olasiz?
4. Iqtisodiy nochorlikni tahlil etishda qanday muammolarga duch kelinmoqda va ularni hal etishni qanday amalga oshirish mumkin?
5. Firma va kompaniyalarni moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirishning qanday tartiblarini tavsiya etishingiz mumkin? Ularni alamga oshirishning imkoniyatlari mavjudmi?
6. Iqtisodiy nochorlik yuzasidan qarorni kaysi tashkilot chiqaradi va uning realizatsiyani qanday izoxlaysiz?
7. Iqtisodiy nochorlikni tartibga solishni qanday choralarini bilasiz?
8. Iqtisodiy nochorlik, korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirishdagi xorijiy tajribalar haqida nimalarni bilasiz?

### **Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

(1, 2, 3, 4, 7, 8, 10, 13, 15, 16, 17, 27, 29, 31, 35, 37, 39, 40, 42, 43, 44, 45, 47, 48, 50, 51, 52, 54, 61, 62, 64, 68, 69, 70, 72, 73,)

## **4.1. Firma va kompaniyalarda iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi sabablar va omillar**

Totalitar rejali tizimning raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotiga transformatsiyalashuvi jarayoni milliy iqtisodiyotda bankrotlik, inqiroz, nomuvozonatlik kabi mutlaqo yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish, ularni hal etishni dastaklarni belgilab olish hozirgi kunning muhim masalasi hisoblanadi.

Iqtisodiy nochorlikni yuzaga keltiruvchi sabablar nihoyatda ko'p. Lekin ularning negizida albatta sog'lom raqobot turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ushbu muammonining dolzarbligini ko'rsatib, "Bozor qonunlari amal qila boshlashi, raqobatchilik muhitini tarkib topishi va erkin tadbirkorlik uchun hamma yo'llar bilan ayni qonunlarga rioya qilgan holda ishlab chiqarish tarkiban o'zgartiriladi ham. Bu narsa faqat raqobatga bardosh berishga intilish bor joydagina yuz beradi. Raqobatga bardosh berish uchun ishlab chiqarishni doimiy ravishda yangilab borishga tadbirkorlar o'zлari majbur bo'ladigan sharoit vujudga keladi"-deb ta'kidlaydi.<sup>53</sup>

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan holda, raqobat kurashiga tortiladilar. Bu kurash kimnidir bor, kimnidir yo'q qiladi. §olib korxonalar o'zining moliyaviy ahvolini mustahkamlagan holda bozorda o'zining muqim o'rниga ega bo'la boradilar. Mag'lub korxonalar esa sinadilar yoki o'z faoliyatini to'xtadilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu g'oliblik yoki bu mag'lublik muqarrar narsaki, uni boshqarib qolish mumkin emas.

Aytish mumkinki, uzlusiz davom etuvchi raqobot kurashi doimo iqtisodiy nochorlik yoki bonkrotlik holatiga tushish havfini tug'diradi.

Iqtisodiy nochorlik, bankrotlik, krizis holati kabi tushunchalar bitta ma'noni ya'ni, firma va kompaniyalarning sinishini izoxlashda ishlatiladigan tushunchalar hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti qisqacha lug'at ma'lumotnomasida "bonkrotlik (ital. so'zdan Č olingen bo'lib „aynan singan kursi“ Č)-sinish; fuqaro, korxona, firma va bankning mablag' etishmasligidan o'z majburiyatlari bo'yicha qarzlarini to'lashga qurbi etmasligidir deyiladi. Bonkrotlikka uchrash sabablari tovar ishlab chiqarishda qiymat qonuning amal qilishi raqobat va inflyatsiya bilan belgilanadi"<sup>54</sup> deb ta'riflanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 24-aprelda qa'bul qilingan yangi tahrirdagi „Bonkrotlik to'g'risidagi“ Qonunning 3- moddasida bonkrotlik bunday ta'riflanadi; "Bonkrotlik (iqtisodiy nochorlik)-xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga yoki majburiy to'lovlari bo'yicha o'z majburiyatlarini to'la hajmda qondirishga qodir emasligi"<sup>55</sup> tushuniladi deyiladi.

<sup>53</sup> I.A.Karimov "O'zbekiston Iqtisodiy isloxitlarni chuqurlashtirish yo'lida" T;"O'zbekiston", 1995, 200-bet

<sup>54</sup> O'lmasov A. To'xliev N. Bozor iqtisodiyoti qisqa lug'at-ma'lumotnoma.T.: Komuslar bosh taxririysi-1991 y., 12-bet

<sup>55</sup> O'zbekiston Respublikasi "Bonkrotlik to'g'risida" qonun.T.;2003 y.

I.f.n. Xasanov N. tomonidan „bonkrotlik- bu xo’jalik yurituvchi sub’ektlarni qarz va majburiyatlarini qaytarib berishga va to’lashga qodir emasligi bilan izohlanadi“<sup>56</sup>.

Bugungi kunda, iqtisodiy nochorlikni belgilashning nazariy asoslarida ham, uni aniqlashning uslubiy asoslarida ham, iqtisodiy nochorlikni belgilash yuzasidan chiqarilgan xuquqiy aktlarda ham, uning tashkiliy va amaliy asoslarida ham qator muammolarga duch kelinmoqda. Bu tabiiy hol hamdir. Negaki, rejali iqtisodiyot sharoitida korxonalarni sinishi, bonkrot bo’lishi, iqtisodiy nochorligi kabi tushunchalarga o’rin yo’q edi. Chunki bunday holning o’zi yo’q edi.

Erkin raqobatga dosh berolmabdiki, firma va kompaniya yopiladigan bo’lsa, uning ta’siridagi ijtimoiy o’zgarishlarni, muammolarni qanday hal qilamiz. Ularni moliyaviy sog’lomlashtirish chora tadbirlarini belgilab bo’lmaydimi yoki bonkrotlikdan chiqish choralar ko’rilmaydimi. Bu masalalar iqtisodiy nochorlikdan korxonani yopish bilan qutilinadi degan mazmun kelib chiqmasligi lozim. Bu va shu kabi muammolarga javob topish maqsadida bonkrotlik institutini tashkil etish zaruriyatga aylandi va u tashkil etildi.

Respublikamizda xo’jalik sudi tomonidan bonkrot deb 1998 yilda 448 ta, 1999 yilda 1015 ta, 2000 yilda 1295 ta, 2001 yilda 1176 ta, 2002 yilda 1266 ta korxona e’lon qilingan. Shundan tugatilagan korxonalar soni tegishli yillar bo’yicha 398 (1998), 1006 (1999), 1148 (2000), 1267 (2001), 1080 (2002) korxona tugatilgan.<sup>57</sup> Ko’rinib turibdiki, bankrot korxonalar soni yildan-yilga o’sib bormoqda.

Bonkrotlikni tsiklik jarayoni quyidagi ko’rinishda kechadi.

<sup>56</sup> N.Xasanov “”Bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida bankrotlik va sanatsiyaning nazariy asoslari” Dissertatsiya avtoreferati, T.; O’zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi.2003y.

<sup>57</sup> O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligini Iqtisodiy nochor korxonalao ishlari ko’mitasining ma’lumotlari.

## Bonkrotlikni hayot




Bonkrotlikka olib keluvchi sabablarni uchta guruxga bo'lib o'rganish mumkin.

- 1.Iqtisodiy omillar
- 2.Tashkiliy omillar
3. Ijtimoiy –siyosiy omillar

<sup>2</sup> Koshkin V.I.,..Antikrizisnoe upravleniya. M.; Novosti,1999 g.

### Bonkrotlikni keltirib chiqaruvchi



<sup>58</sup> N.Xasanov “”Bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida bankrotlik va sanatsiyaning nazariy asoslari” Dissertatsiya avtoreferati, T.; O’zbekiston Respublikasi

Iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi sabablar sifatida i.f.n. dotsent Najmiddinov S. va Xasanov N. Lar tomonidan quyidagi 12 ta sabab ko'rsatiladi.<sup>59</sup>

- 1.O'z oborot mablag'lari etishmovchiligi;
- 2.Mahsulotlarni haqiqiy narxini belgilash mexanizmining yo'qligi;
- 3.Shartnomma intizomining shakllanmaganligi;
- 4.Korxonada yuridik xizmatning past darajada yo'lga qo'yilganligi;
- 5.Ijtimoiy, madaniy va ma'ishiy ob'ektlarni saqlashga xarajatlarning ko'pligi;
- 6.Debitor va kreditor qarzdorlikni o'sib ketishi;
- 7.Asosiy ishlab chiqarish zarari hisobiga tugallanmagan kapital qo'yilmalarga yo'l qo'yilishi;
- 8.Nolikvid tovar,moddiy boyliklarning saqlanib qolishi;
- 9.Noishlab chiqarish xarajatlari;
- 10.Oborot mablag'lari o'z aktsiyalarini sotib olishga ishlatilishi;
- 11.Soliqqa tortish va hisoblashdagi korxona rahbarlari va iqtisodiy xizmat xodimlarining yo'l qo'yadigan kamchilik va xatolari;
- 12.Korxonalarning tijorat faoliyati haqidagi axborotlarining boshqalarga ma'lum bo'lishi.

Bizning fikrimizcha, korxonalar, firma va kompaniyalar iqtisodiy nochorligiga ta'sir etuvchi omillarni bu tartibda katorlaydigan bo'lsak nihoyatda ko'p. Ularni, muallif N. Xasanov tomonidan keltirib o'tgan tartibda berib o'tish esa iqtisodiy jihatdan o'rinni deyish mumkin.

To'g'ri, ularda asosiy sabablar ko'rsatilgan. Lekin uni quyidagi tartibda berib o'tish yanada to'g'riroq bo'lar edi.

1. Iqtisodiy nochorlikni firma va kompaniya xarajatlari bilan bog'liq bo'lган omillari;
2. Iqtisodiy nochorlikni asosiy vositalar bilan bog'liq bo'lган omillari;
3. Iqtisodiy nochorlikni aylanma mablag'lar bilan bog'liq bo'lган omillari;
4. Iqtisodiy nochorlikni nomoddiy aktivlar bilan bog'liq bo'lган omillari;
5. Iqtisodiy nochorlikni o'z va qarz mablag'lari bilan bog'liq bo'lган omillari;
6. Iqtisodiy nochorlikni mehnat resurslari bilan bog'liq bo'lган omillari;
7. Iqtisodiy nochorlikni ijtimoiy-siyosiy omillari.
8. Iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi boshqa sabablar (tashkiliy sabablar, inflyatsiya, soliqlanish va h.k.)

<sup>59</sup> N.Xasanov,S.Najmiddinov "Korxona moliyaviy xolatini baholash; muammolar va ularni xal qilish" T.;"Iqtisodiyo va xukuk dunyosi" 1999 y.43-bet

## **4.2. Moliyaviy barqaror, moliyaviy xavf-xatari bor va moliyaviy nobarqaror firma va kompaniyalar faoliyatining tahlili**

Iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi asosiy sabablardan biri korxonadagi moliyaviy salohiyatni tushib ketishi bilan izohlanadi. Moliyaviy salohiyatni o'zgarish darajalariga muvofiq firma va kompaniyalarni moliyaviy jihatdan barqaror, moliyaviy xavf-xatari bor hamda moliyaviy jihatdan nobarqaror firma va kompaniyalarga ajratish mumkin.

Firma va kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqqan holda i.f.d. M.Q.Pardaev quyidagi ko'rsatkichlarni tarkiblab o'tadi.<sup>60</sup>

- 1.O'z mablag'lari bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari;
- 2.Chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar;
- 3.Harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar;
- 4.Aylanma mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar;
- 5.Asosiy vositalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar;  
Ushbu ko'rsatkichlar quyidagi chizmada aniq ko'rsatilgan(3.3.-chizmaga qarang).

Prof. Vaxobov va A. Ibragimov lar tomonidan chop etilgan “Moliyaviy tahlil” darsligida moliyaviy barqarorlikni 7 ta ko'rsatkichi berib o'tiladi. Ular quyidagilardan iboratdir;<sup>61</sup>


1. Moliyaviy mustaqillik koeffitsenti;
2. O'z va qarz mablag'lari orasidagi nisbat koeffitsenti;
3. Uzoq muddatli qarzlardan foydalanish koeffitsenti;
4. Korxonaning o'ziga qarashli mablag'larining chaqqon, xarakatchonlik koeffitsenti;
5. Asosiy vositalar eskirishining jamlanish koeffitsenti;
6. Asosiy vositalarning aniq qiymat koeffitsenti;
7. Korxonda jami mulkning harakatchanligi koeffitsenti;

<sup>60</sup> M.Q.Pardaev, B.Istroilov Iqtisodiy tahlil (o'quv qo'llanma) t.;Iqtisodiyot va xuquq dunyosi,2001 y.,135-bet

<sup>61</sup> Vaxobov A., Ibragimov A. Moliyaviy tahlil.T.Shark nashriyoti, 2002 y. 23-25 betlar

#### 4.3.-chizma

### Firma va kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi



Moliyaviy barqarorlikni ko'rsatkichlar tizimini taqqoslaydigan bo'lsak ular orasida katta farqni sezish mumkin.

Mualliflar M.Q.Pardaev va B.Isroilovlar tomonidan moliyaviy barqarorlikni ifoda etuvchi ko'rsatkichlarning har bir guruhiga bir nechta ko'rsatkich kiritiladi. O'z mablag'ları bilan bog'liq bo'lган ko'rsatkichlar qatorida 3 ta, chetdan jalg qilingan mablag'lar bilan bog'liq bo'lган ko'rsatkichlar qatorida 4 ta, xarakatdagi mablag'lar bilan bog'liq bo'lган ko'rsatkichlar qatorida 3 ta, Asosiy vositalar bilan bog'liq bo'lган ko'rsatkichlar qatorida 4 ta, aylanma mablag'lar bilan bog'liq bo'lган ko'rsatkichlar qatorida 5 ta ko'rsatkich tarkiblanadi.<sup>62</sup>

#### 4.1.-jadval

### Korxona moliyaviy barqarorligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar nomi	Hisoblash yo'li	Nimani ifoda etishi
1	2	3
<b>O'z mablag'ları bilan bog'liq bo'lган ko'rsatkichlari</b>		
O'z mablag'larining (O'm) to'planish koeffitsenti (Ko'tk)	Ko'tk=O'meB	Korxonaning jami mablag'larida o'ziga tegishli bo'lган mablag'larining holatini ifodalaydi
Moliyaviy qaramlik koeffitsenti (Kmq)	Qmq=BeO'm	Bir so'mlik o'z mablag'iga qancha umumiyl mablag' to'g'ri kelishi ifodalaydi
O'm. Ni harakatchanlik koeffitsenti (Km)	Km=O'm+O'm p-AsoteO'm	Xususiy kapitalning qancha oborotda ishtirok etayotganligini ko'rsatadi

1	2	3
---	---	---

<sup>62</sup> Pardaev M.Q., Isroilov B. Iqtisodiy tahlil (o'quv qo'llanma). T.; Iqtisodiyot va xuquq dunyosi. 1999 y.136-138 betlar

<b>Chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar</b>		
ChJQM(chetdan jalb qilingan kapitalni to'planish koeffitsenti Kchjqm())	Kchjqm= chjqmeB	Umumiyl mablag'dan qancha qismi chetdan jalb qilinganini izohlaydi
Uzoq muddatli ChJQM ni to'planish koeffitsenti (Kumchjqm)	Kumchjqm= UmchjqmeO'm	Xo'jalik faoliyatini Umchjqm bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalaydi
ChJQM tarkibiy koeffitsenti (Kumchjqm)	Kumchjqm= Umchjqmechjq m	Umumiyl chetdan jalb qilingan mablag'larda Uchjqm ni xissasini ifodalaydi
O'm ni ChJQM ga qaramlik koeffitsenti (Kchjqm)	Kchjqm= ChjqmeO'm	Bir so'm o'z mablag'iga qancha chetdan jalb qilingan mablag' to'g'ri kelishini ifodalaydi
O'm ni uzoq muddatli passivlarga (Ump) qaramlik koeffitsenti (Kumpq)	Kumpq= UmpeO'm	Uzoq muddatli passivlarni o'z mablag'laridagi ulushi
<b>Harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar</b>		
Umumiyl harakatchanlik koeffitsenti (Kux) yoki umumiyl harakatdagi mablag'larni faollik koeffitsenti(Uxm)	Kux=Uxm/B	Harakatdagi mablag'larni umumiyl mablag'lardagi xissasi
Sof harakatdagi mablag'larning faollik koeffitsenti(Kf)	Kf=Sxm/O'xm	Sof harakatdagi mablag'larning umumiyl harakatdagi mablag'lardagi xissasini ifodalaydi
<b>Asosiy vositalar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari</b>		
Asosiy vositalarning umumiyl mablag'lardagi xissasini ifodalovchi koeffitsent (Kavx)	Kavx=Av/B	Asosiy vositalarning umumiyl xo'jalik mablag'laridagi xissasini ifodalaydi
O'z mablag'larining kapitallashuvi koeffitsenti(Kumk)	Kumk=Av-Ump/O'x	O'z mablag'larining qancha qismi asosiy vositalarga sarflanganligini ifodalaydi

1	2	3
Asosiy vositalar jamg'arilishini umumiy koeffitsenti (Kavju)	Kavju=Avue/A v Avue-asosiy vositalarning joriy eskirish summasi	Asosiy vositalarning qancha qismi takror to'planganligini ifodalaydi
Asosiy vositalar jamg'arilishining intensivligi koeffitsenti	Kin=Avje/Av Avje-Asosiy vositalarning joriy yildagi eskirish summasi	Bir yilda asosiy vositalar qiymatining qancha qismi jamg'arilganligini ifodalaydi
<b>Aylanma mablag'lар bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar</b>		
Aylanma mablag'larning (Aym) oborotdagi o'z mablag'lari(O'xm) bilan ta'minlanganlik koeffitsenti (Kamt)	Kamt=O'xm/A ym	Har bir so'm aylanma mablag'ga qancha o'z mablag'i to'g'ri kelishini ifodalaydi
Aylanma mablag'larning qaramlik koeffitsenti (Kchjk)	Kchjk=Chjkm/ Aym	Chetdan jalb qilingan mablag'larni aylanma mablag'lardagi xissasini ifodalaydi
Aylanma mablag'larning qisqa muddatli bank kreditlariga(Kmbk) qaramlik koeffitsenti (Kbk)	Kbk= Kmbk/Aym	Qisqa muddatli kreditlarni aylanma mablag'lardagi xissasi
Aylanma mablag'larning tez harakatdagi (Pmba) Aym bilan ta'minlanish koeffitsenti (Kxmt)	Kxmt= Pmba/Aym	Aylanma aktivlarni qancha qismi tez likvid bo'ladigan aktivlar bilan qoplanganligini ifodalaydi
Aylanma mablag'larni butun mulkdagi hissasi	Kamx=Aym/B	Aylanma mablag'larni barcha mulkdagi xissasini xarkterlaydi

Firma va kompaniyani moliyaviy jihatdan barqaror deyish mumkin qachonki, uning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar normal holatdan yuqori darajada bo'lsa, firma va kompaniyalar moliyaviy jihatdan havf-xatari bor deyish mumkin qachonki, ko'rsatkichlar darjasini normal darajada va undan tushib ketsa, moliyaviy nobarqaror deyish mumkin qachonki uning ko'rsatkichlar tizimini ifodasi normal darajadan keskin tushib ketsa. Uning chegaraviyligini har bitta ko'rsatkichlar tizimiga nisbatan alohida belgilash lozim. Masalan; tovar va zahiralarni o'z va qarzga olingan mablag'lar hisobiga moliyalashtirilishi yuzasidan quyidagi holatni belgilash mumkin;

-O'z mablag'lag'lari etarli; o'z va uzoq muddatli qarz mablag'lari etarli; o'z mablag'lari, uzoq va qisqa muddatli qarz mablag'lari etarli bo'lgan holatda firma va kompaniya mutloq moliyaviy barqaror deb yuritiladi;

-O'z mablag'lari etishmovchiligi, qolgan mablag'lar etarligida moliyaviy havf-xatari bor deb;

-Barcha mablag'lar etishmovchiligidagi moliyaviy nobarqaror korxona deb yuritish mumkin.

Asosiy vositalarning eskirish darajasi bo'yicha;

-Asosiy vositalarning eskirish darajasi 50 foizdan ortiq darajada moliyaviy nobarqaror; -eskirish darajasi 50 foiz darajasida moliyaviy havf- xatarli;

-50 foizdan kam darajada moliyaviy barqarorlik darajasini ifodalash mumkin va hakoza.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yuzasidan quyidagi chora-tadbirlarni belgilab olish mumkin;

-xususiy kapitalni oshirish. Buning uchun firma va kompaniyalar ta'sischilarini qo'shimcha badallarini jalg qilish shuningdek, faoliyatning keyingi davralari bo'yicha foyda summasini oshirish talab qilinadi.

-ko'p xarajat talab qiladigan asosiy vositalar, texnika va texnologiyalar o'rniiga yangilarini olib kirish;

-bank kreditlarini aniq biznes reja va foydali loyihami hisobiga jalg etish hamda ularni umumiyl mablag'lar tarkibidagi hissasini kamaytirib borish, firma va kompaniyalarning moliyaviy qaram bo'lib qolmasligiga harakat qilish;

-firma va kompaniyalarda to'lov intizomiga, shartnomaviy shartlarga to'la amal etgan holda debitor va kreditor qarzlarining ko'payib ketmasligini ta'minlash lozim deb o'ylaymiz.

### **4.3. Firma va kompaniyalar iqtisodiy nochorligini tahlili**

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'z harakat maydonida va uning ta'sirida rivoj topadilar, qayta tashkil etiladilar va bonkrot bo'ladilar. Tashkil etilayotgan har bir firma, kompaniya qatorida albatta o'z faoliyatini to'xtatayotgani ham bo'ladi. Negaki bozor- bu avvola raqobat demakdir. U imkon qadar bozorga xos tarzda faoliyat va harakatdagi o'zgaruvchanlikni talab etadi. Raqobatga bardosh bera olmagan firma va kompaniyalar o'z o'mini boshqa firma va kompaniyalarga bo'shatib beradilar.

Korxona va firmalarni bonkrot deb e'lon qilish va ularni tugatish shartlari davlat nomidan ish ko'ruchchi organlar tomonidan qat'iy belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunday vakolatga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi xuzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Ko'mitasi ega. Ushbu Qo'mita tomonidan firma va kompaniyalar (korxonalar)ni iqtisodiy nochor deb e'lon qilishning tartiblari belgilab boriladi va nazorat qilinadi.

Firma va kompaniyalar iqtisodiy nochorligini belgilashda quyidagi ko'rsatkichlarga tayaniлади;

- firma va kompaniya to'lov layoqati, qoplov koeffitsentini o'rganish;
- firma va kompaniyaning moliyaviy mustaqillik va qaramlik darajasini o'rganish;
- uzoq muddatli va joriy aktivlarni manbalashning holatini o'rganish;
- o'z va qarz mablag'lari orasidagi nisbatni o'rganish;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan haqiqiy foydalanish darajasini o'rganish;
- asosiy va nomoddiy aktivlardan foydalanish darajasini o'rganish;
- muddati o'tgan debtorlik va kreditorlik qarzlari holatini o'rganish.

Bu ko'rsatkichlarni o'rganish asosida firma va kompaniyalarning iqtisodiy nochorligini oydinlashtiruvchi savollarga javoblar topiladi, iqtisodiy nochorlik belgilarini bor yoki yo'qligi aniqlanadi. Iqtisodiy nochorlikni belgilashda har bitta ko'rsatkichning me'yoriy darajalariga nisbatan o'zgarishlarga tayaniлади.

**4.2-jadval**

#### **Korxonalar iqtisodiy nochorligini tahlili ko'rsatkichlari va ularni me'yoriy darajalari**

Ko'rsatkichlar	Aniqlanish tartibi	Me'eriyl chevara	Nochorlik belgisi
1	2	3	4
Firma va kompaniyaning to'lov layoqati	Kt=Joriy aktivlar/muddati kelgan to'lov majburiyatları	2-3	Kt<2
Firma va kompaniyaning moliyaviy mustaqillik koeff.	Km=O'z mablag'lari manbayi/Jami mulk	Km >50%	Km <50%

1	2	3	4
Uzoq muddatli va joriy aktivlarni manbalanishi	Oborot mablag'lari naqdligi-moddiy g'amlamalar/O'z mablag'lari+Uzoq muddatli qarz mablag'lari-Moddiy g'amlamalar	Ortiqchilik	Etishmov-chilik
O'z va qarz mablag'lari nisbati koeff.	Ka=O'z mablag'lari/qarz mablag'lari	Ortiqchilik	Etishmov-chilik
Aktivlar, kapital va majyuuriyatlar rentabelligi	Kr=Sof foyda/Aktiv yoki kapital+majburiyat	Kr>0	0 dan kichik
Ishlab chiqarish quvvatlaridan haqiqiy foydalanish darajasi	Kf=Ishlab chiqarish quvvatining xaqqiydarajasidagi maxsulot xajmi/texnik loyixa bo'yicha ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan xajm	Kf=1 >0	Kf=1 < 0
Asosiy vosita va nomoddiy aktivlar eskirishini jamg'arilish koeff.	Ke=Asosiy va nomoddiy aktivlarni eskirish qiymati/Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni boshlang'ich qiymati	Ks>0.5	Ks<0.5
Muddati o'tgan majburiyatlar holati	Kd/k=Muddati o'tgan majburiyatlar/ja-mi majburiyatlar	Kd/k<0.5	Kd/k>0.5

Yuqorida keltirilgan koeffitsentlarning natijasiga qarab, iqtisodiy nochorlikni aniqlash tartibiga ko'ra firma va kompaniyalarni;

- mutlaq barqaror;
- barqaror;
- nobarqaror;
- bankrot (iqtisodiy nochor) holatida deyish mumkin.

Firma va kompaniyalarni bankrot deb e'lon qilish yuzasidan xukumat komissiyasining 1997 yil 17 apreldagi 5- sonli yo'riqnomasiga muvofiq iqtisodiy nochorlikni belgilashni quyidagi 4 ta ko'rsatkichiga tayanish lozimligi ta'kidlanadi.

### Nochorlikni belgilashni amaldagi me'yoriy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Nochorlik holati
To'lov layoqati koeff.	Kt<2
O'z va qarz mablag'lari orasidagi nisbat koeff.	Ka<2
Moliyaviy mustaqillik koeff.	Km<0.5
O'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash	Kot<0.1
Jamisi	Kn<4.6

Yuqoridagi manbalarga tayangan holda shuni ta'kidlash lozimki, Respublikamizda korxonalarining iqtisodiy nochorligini tahlil qilishda uch guruxdan iborat ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi;

Birinchi gurux ko'rsatkichlar; muddati 3 oydan ortgan kreditorlik qarzlarini borligi va manfiy rentabellik darajasi;

Ikkinci gurux ko'rsatkichlarga; to'lovga qobililik, aylanma mablag'lar bilan ta'minlanlik ko'rsatkichlari;

Uchinchi gurux ko'rsatkichlarga; aktivlar rentabelligi, xususiy va chetdan jalb qilingan mablag'lar nisbati, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish holati, asosiy kapitalni eskirishi kabi ko'rsatkichlar kiritiladi.

Bu ko'rsatkichlar tizimi "Korxonani iqtisodiy nochorligi alomatlarini aniqlash uchun mezonlar tizimi" asosida tuzib chiqilgan. ( O'zbekiston Respublikasi Davlat mult Ko'mitasi 1997 y 17 aprel, 5-son)

#### **4.4. Firma va kompaniyalar bonkrotligini tartibga solish va ular moliyaviy tahlili natijalarini umumlashtirish**

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bonkrotligi O'zbekiston Respublikasining "Bonkrotlik to'g'risida"gi Qonuni va unga keyinchalik kiritilgan qo'shimcha, o'zgartirishlar bilan va boshqa me'yoriy xujjatlar bilan tartibga solinadi.

I.f.n. dotsent S.Najmuddinov, N. Xasanovlar tomonidan chop etilgan "Korxona moliyaviy holatini baholash"(muammolar va ularni hal etish)-deb nomlangan o'quv qo'llanmasida ) – "bonkrotlik belgilangan tartibda korxonaning iqtisodiy nochorligini tan olish, xo'jalik sudi tomonidan uni bonkrot deb e'lon qilish demakdir" deb yoziladi.<sup>63</sup>

Firma va kompaniyalar bonkrot deb e'lon qilinadi qachonki, bonkrotlik faktlarini barchasi e'tirof etilsa.

Bonkrotlik tahlili bevosita tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish asosida bayonnomma tuzish bilan yakunlanadi. Bayonnomada korxonaning moliyaviy ahvoli va uning iqtisodiy tashxisi, korxonaning iqtisodiy nochorligini barcha ko'rsatkichlarini izohi beriladi. Ushbu bayonnomma bonkrotlik holatlari yuzasidan xuquqiy xujjatlar tayyorlash uchun manba bo'lib ham hisoblanadi.

Amalda bonkrot deb e'lon qilingan korxonalarga nisbatan bir nechta tadbirlar rejsi belgilanadi;

-sanatsiyalash (molivayi yordam ko'rsatish);

-faoliyat yo'naliishini o'zgartirish;

-divertsifikasiya (bir emas bir necha nomenklaturada mahsulot ishlab chiqarishga o'tish);

-ixtiyoriy tugatish;

-majburiy tugatish.

Ataylab qilingan va soxta bonkrotlik holatlarida bonkrotlik to'g'risidagi Qonun xujjatlariga muvofik xo'jalik yurituvchi sub'ektlar rahbarlari noqonuniy harakatlari uchun javobgarlikka tortiladilar.

Respublikamiz bo'yicha iqtisodiy nochor deb e'lon qilingan, sanatsiyaga tushirilgan, tashqi boshqaruvdagi korxonalar, bonkrot deb tan olingan va tugatilgan korxonalarini dinamik ko'rsatkichlarini quyidagi jadval ma'lumotlaridan o'qish mumkin.

#### **4.4-jadval**

<sup>63</sup> Xasanov N, Najmuddin S. Korxona moliyaviy xolatini baxolash (muammolar va ularni xal qilish). T.;Iqtisodiyot va xuquq dunyosi. 1999 y.57-bet

**1997-2002 yillarda iqtisodiy nochor deb e'lon qilingan korxonalarini holati  
to'g'risidagi**

Ko'rsatkichlar	Yillar					
	1997	1998	1999	2000	2001	2002
Iqtisodiy nochor korxonalar	759	252	182	81	82	504
Sanatsiyadagi korxonalar	538	312	100	21	22	49
Tashqi boshqaruvdagi korxonalar	-	-	22	31	11	58
Bonkrot bo'lgan korxonalar	148	348	1015	1295	1176	1266
Tugatilgan korxonalar	136	177	1006	1148	1267	1080

Iqtisodiy nochor korxonalar tashqi boshqaruvini joriy etish hollari Respublikamizda 1999 yildan boshlab joriy etila boshlandi. Ularning soni 1999 yilda 22 tani, 2000 yilda 31 tani, 2001 yilda 11 tani, 2002 yilda 58 tani tashkil qilgan.

Bonkrotlikka tushgan korxonalarni sanatsiyalash chora tadbirlari 1997 yilda 538 tani tashkil etgan bo'lsa, 2002 yilda 49 tani tashkil qilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki bonkrot deb e'lon qilingan va tugatilgan korxonalar soni yildan yilga ko'payib bormoqda.

---

<sup>64</sup> Jadval Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Ko'mitasi tomonidan tayyorlangan "Ob itogax raboti s ubitochnimi, ekonomicheskim nesostoyatelnimi predpriyatiyami i po likvidatsii prepriyatii-bankrotov" malumotnomasidan olindi, 2002 y.

#### **4.5. Iqtisodiy nochor firma va kompaniyalar faoliyatini tahlili va ularni moliyaviy sog'lomlashtirishda xalqaro tajribalar hamda, ulardan foydalanish**

Bonkrotlik to'g'risidagi chet el tajribalarini tahlili shuni ko'rsatadiki, bonkrotlik to'g'risidagi qonunlar asosan ikki yo'naliishga yoki modelga ega.


Birinchisi; Buyuk Britaniya modeli bo'lib, bunda bonkrotlik to'g'risidagi qonunchilik bonkrotga uchragan korxonaga berilgan qarzlarni egasiga qaytarib berilishini ta'minlashga qaratilgan. Masalaning bunday tarzda qo'yilishi asosan korxonani tugatish asosida amalga oshiriladi.

Ikkinchi model esa Amerika modeli bo'lib, bunda qonunchilik bonkrotga uchragan korxonani turli chora-tadbirlar yordamida to'lov layoqatini tiklab, xo'jalik faoliyatini davom ettirishiga qaratilgan.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida ham Bankrotlik to'g'risidagi qonunchilik ana shunday ikki model asosida rivojlanib, takomillashib bormoqda

4.5.-chizma

#### **Bonkrotlikni xalqaro modellari va ularni o'ziga xos xususiyatlari**



### **Mavzu bo'yicha nazorat savollari**

1. Iqtisodiy nochorlikka (bonkrotlikka) olib keluvchi sabablar nima?
2. Iqtisodiy nochorlik va bonkrotlik masalalarini qaysi organ ko'rib chiqadi?
3. Iqtisodiy nochorlikni oldini olish yo'llari va vositalari nimalardan iborat?
4. Iqtisodiy nochorlikni (bonkrotlik)ni belgilashda qaysi ko'rsatkichlar asos qilib olinadi?
5. Iqtisodiy nochorlikni oldini olish, nochor korxonalarini qayta tashkil etish, tugatish, sanasiyalash, faoliyatini o'zgartirish masalalari qanday belgilanadi?
6. Firma va kompaniyalarni moliyaviy sog'lomlashtirishni qanday yo'llarini bilasiz?

## **5-bob. Firma va kompaniyalar ish va bozor faolligini tahlili**

### **O'rganiladigan savollar**

- 5.1. Firma va kompaniyalar ish va bozor faolligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ular tahlilini vazifalari
- 5.2. Firma va kompaniyalar ish faolligini asosiy va aylanma kapital bilan bog'liq bo'lган ko'rsatkichlari tahlili
- 5.3. Firma va kompaniyalar ish faolligini qarz kapitali bilan bog'liq bo'lган ko'rsatkichlari tahlili
- 5.4. Firma va kompaniyalar bozor faolligi va uning omilli tahlili

**Mavzu bo'yicha tayanch iboralar;** firma ish faolligi, firma bozor aktivligi, ish faolligi va bozor aktivligini ko'rsatkichlari, aktivlar aylanuvchanligi, tovarlar aylanuvchanligi, debitorlik qarzlari aylanuvchanligi, pul mablag'lari aylanuvchanligi, o'z mablag'lari, xususiy kapital aylanuvchanligi, olingan qarzlar aylanuvchanligi, aktsiya daromadligi, aktsiya bahosi, aktsiyani kurs farqi, aktsiyani daromad salmog'i.

### **Mavzu bo'yicha muammoli savollar**

1. Firma, kompaniyalar bozor faolligi va ish aktivligini o'rganishning manfaat sub'ektlariga kimlar kiradi?
2. Firma va kompaniyalardni ish faolligini o'stirishni bugungi kunda qanday chora tadbirlarini ko'rish mumkin deb o'ylaysiz?
3. Firma va kompaniyalarda bozor aktivligini o'stirishda nimalarga ahamiyat berish lozim va uning bugungi kundagi imkoniyatlari xaqida nimalar deya olasiz?
4. Firma va kompaniyalar bozor va ish faolligini o'stirishda qarz kapitalidan foydalanishni o'rinli deb hisoblaysizmi? Bunda qanday yo'l tutish mumkin?
5. Bozor va ish faolligini aniqlashning ishlab chiqarish va moliyaviy levirdjlar bilan bog'liqligi bormi, agar bor bo'lsa uni izohlang?

### **Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

(1, 3, 4, 8, 10, 13, 15, 16, 17, 25, 27, 29, 31, 32, 33, 34, 35, 39, 45, 46, 47, 48, 51, 52, 53, 54, 58, 59, 61, 62, 63, 64, 65, 67, 69, 70, 71, 72, 73 )

## **5.1. Firma va kompaniyalar ish va bozor faolligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ular tahlilini vazifalari**

Firma va kompaniyalarning bozordagi o'rni, moliyaviy va iqtisodiy salohiyati, mavqeyi ko'p jihatdan, uning ish va bozor faolligi ko'rsatkichlarining holatiga bog'liq.

Firma va kompaniyalarning ish va bozor faolligi ko'rsatkichlari ular moliyaviy holatiga baho berishda muhim ko'rsatkichlar hisoblanadi. To'g'ri, ish faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlarni biz ilgari ham aniqlaganmiz. Lekin ularni ish faolligi ko'rsatkichlari deb emas balki, asosiy va joriy aktivlarning aylanishi, qarz majburiyatlarning aylanishi sifatida o'rganganmiz.

Bu ko'rsatkichlarning firma va kompaniyalar moliyaviy holatiga baho berishdagi ahamiyati, muhimligidan kelib chiqib ularni alohida o'rganish va tavsiflash lozim deb o'yaymiz.

Firma va kompaniyalar ish faolligi deganda-uning asosiy va joriy aktivlarning aylanuvchanligi, qarzlarning oqlanuvchanligi tushuniladi.

I.f.d. prof. M.Q. Pardaev tomonidan korxona ish faolligi deb - «korxonani o'z maqsadiga erishish yo'lida iqtisodiy va moliyaviy salohiyatdan samarali foydalanish evaziga muntazam ravishda iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat chora tadbirlarga aytildi».<sup>65</sup>

Ish faolligini asosiy ko'rsatkichi sifatida foyda va rentabellik ko'rsatkichlari olingan holda muallif tomonidan firma va kompaniyalar ish faolligini quyidagi ko'rsatkichlar tizimi tarkiblanadi;

- ish faolligini iqtisodiy potentsialni ishlatish bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari;
- ish faolligini moliyaviy potentsialni ishlatish bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari;
- ish faolligini iqtisodiy samaradorlik bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari.

I.f.d. Prof. E.Akramov tomonidan korxona muqim moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim omili sifatida olingan ish faolligi ko'rsatkichi; korxonada iqtisodiy o'sishga, korxonani bir hil darajada rivojlanishiga olib keluvchi, mahsulotni ishlab chiqarish rejalarini bajarilishiga imkon beruvchi, sotishni ko'lagini oshirishga olib keluvchi muhim dastak sifatida qaraladi.<sup>66</sup>

Muallif tomonidan (E.Akramov) korxona ish faolligini quyidagi bog'lanishi keltiriladi.

Korxona foydasini dinamik indeksi>Mahsulotni sotish hajmini dinamik indeksi>Korxona mulkinning dinamik indeksi.<sup>67</sup>

Bu qoida xalqaro amaliyotda «Korxona iqtisodini oltin qoidasi» deb yuritiladi.

Firma va kompaniyalar ish aktivligini muallif tomonidan quyidagi ko'rsatkichlar tizimi orqali o'rganish tavsiya etiladi.

<sup>65</sup> M.Q.Pardaev, B.Istroilov «Moliyaviy tahlil» (uslubiy ko'rgazmalar va tavsiyalar albomi).T.; Iqtisodiyot va xuquq dunyosi,1999 y., 245-bet

<sup>66</sup> E.Akramov Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya.T.;TGEU.2000g. str-91

<sup>67</sup> E.Akramov Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya.T.;TGEU.2000g. str-91

**Korxona ish faolligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi**

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi formulasi
1	2
Korxona aktivlarini aylanuvchanlik koeff.(Ka)	$Ka = MST/A$ MST-Mahsulot sotishdan tushum A-Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati
Uzoq muddatli aktivlarni aylanuvchanlik koeff.(Kuma)	$Kuma = MST/UMA$ UMA-uzoq muddatli aktivlarning o'rtacha yillik qiymati
Aylanma mablag'larni aylanuvchanlik koeff.(Kam)	$Kam = MST/Am$ Am-aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati
Zahira va xarajatlarning aylanuvchanlik koeff.(Kzx)	$Kzx = MST/Zx$ Zx-zahira va xarajatlarning o'rtacha yillik qiymati
Xususiy kapitalni aylanuvchanligi koeff.(Kxk)	$Kxk = MST/O'mm$ O'mm-O'z mablag'lari manbasini o'rtacha yillik qiymati
Tayyor mahsulotni aylanuvchanlik koeff. (Ktm)	$Ktm = MST/Tm$ Tm-tayyor mahsulotlar qoldig'ini o'rtacha yillik qiymati
Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik koeff.(Kdm)	$Kdm = MST/Dm$ Dm-debitorlik majburiyatlarining o'rtacha qiymati
Debitorlik majburiyatları aylanishini o'rtacha muddati (Kd)	$Kd = 365/Kdm$
Kreditorlik majburiyatlarini aylanuvchanlik koeff. (Kkm)	$Kkm = MST/Km$ Km-Kreditorlik majburiyatlarini o'rtacha qiymati
Kreditorlik majburiyatlarini aylanish davri (Ka)	$Ka = 365/Kkm$
Pul mablag'larining aylanuvchanligi(Kp)	$Kp = MST/Pm$ Pm-pul mablag'larining o'rtacha qoldig'i

Bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat firma va kompaniyalar ish faolligi balki, ularning bozor aktivligini oshirishga ham muhim ahamiyat qaratish lozim.

Firma va kompaniyalarning bozor faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlarga quyidagi ko'rsatkichlar kiritiladi.

### 5.2.-jadval

#### **Firma va kompaniyalarning bozor faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash formulasi**

Ko'rsatkichlar	Aniqlanishi ifodasi
Bitta aktsiyaning daromadligi (Da)	Da=Asf/Abb Asf-Bitta aktsiyaga to'g'ri keladigan sof foyda Abb-bitta aktsiyanig bozor bahosi
Bitta aktsiyaning xaqiqiy daromadligi(Ad)	Ad=Ads/Anq Ads-bitta aktsiyaga to'g'ri keladigan dividend summasi Anq-bitta aktsiyaning nominal qiymati
Bitta aktsiyaning qurs farqi koeff.(Kak)	Kak=Asb-Aob/Anq Asb-aktsiyani sotish bahosi Aob-aktsiyani sotib olish bahosi
Aktsiyaga to'langan dividendlar salmog'i koeff. (Katd)	Katd=Tdus/Sf Tdum-to'langan dividendlarning umumiy summasi Sf-korxona sof foydasi

Tahlil vazifalari qilib quyidagilar belgilanadi.

1. Firma va kompaniyalarning ish folligini tahlil etish orqali uning moliyaviy va iqtisodiy salohiyatini ko'tarish;

2. Firma va kompaniyalarni bozordagi o'rni va faolligini tahlil etish va uni o'stirish imkoniyatlarini ko'rsatib berish;

3. Firma va kompaniyalarni ish va bozor faolligini uning moliyaviy holatiga ta'sirini baholash;

4. Firma va kompaniyalarda majburiyatlarni maqsadli boshqarishni yo'lga qo'yish;

5. Pul va likvid mablag'larni aylanuvchanligini tezlashtirish yuzasidan chora tadbirlarni belgilash.

6. Tovarlar va zahiralarni korxonada turib qolmasligi, ularni aylanuvchanligi ta'minlash yo'l-yo'riqlarini belgilashdan iboratdir.

Tahlil uchun zarur bo'lgan axborotlar moliyaviy hisobotning (1-shakl «Buxgalteriya balansi», 2-shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot, 3-shakl «Asosiy vositalar harakati» to'g'risidagi hisobot, 4-shakl (Pul oqimi to'g'risidagi) hisobot 5- shakl «Xususiy kapital to'g'risida»gi hisobot )shakllaridan olinadi.

## **5.2. Firma va kompaniyalar ish faolligini asosiy va aylanma kapital bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari tahlili**

Firma va kompaniyalar faoliyatida asosiy vositalarning rolini quyidagicha izoxlash mumkin;

Birinchidan; asosiy vositalar ishchi kapitalini xarakatlantiruvchi kuch hisoblanadi.

Ikkinchidan; ular korxona ish unumini o'stirishni muhim omili;

Uchinchidan; iqtisodiy salohiyatini o'stirishning muhim dastagi;

To'rtinchidan; holati, harakati va samaradorligi bo'yicha moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omilidir.

Asosiy vositalarni bir yildan ortiq xizmat faoliyatida bo'lishi ularni qiymatini yillar bo'yicha oqlanuvchanligini xarakterlaydi. Ularning ish faolligini qat'iy belgilangan normativlari mavjud deyish xam mumkin. Masalan; engil transport vositalari va kompyuter jihozlari bo'yicha yillik 20 foiz amortizatsiya normalari belgilangan. Demak, mazkur asosiy vositalarni ishlab chiqarish jarayonida 5 yil davomida harakat qilishi zarur. Ya'ni, ularning bitta tsiklik aylanishi 5 yilga teng deb olinadi. Lekin eskirish hisoblashning turli usullarining mavjudligi (tezlashtirilgan, 2 karra oshirilgan, qoldiq, komulyativ va h.k.) ularning aylanuvchanligiga ta'sir etuvchi birliklar hisoblanadi.

Asosiy vositalarning aylanuvchanligini topishda ularning o'rtacha yillik qiymatini shu davrdagi mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olingan tushumga nisbatlash asosida topiladi. Ya'ni;

Ka=Mahsulot sotishdan tushum/Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati.

Bunda; asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati o'rtacha xronologik formula bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

Asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymati quyidagi bog'lanishda topiladi;

$$A=(1/2Aya+Af+Am+..+1/2Ad)/13-1$$

Bunda;

Aya- 1 yanvar holatiga asosiy vositalar qiymati;

Af- 1 fevral holatiga asosiy vositalar qiymati;

...

Ad- 1 dekabr holatiga asosiy vositalar qiymati.

Asosiy vositalarning aylanuvchanligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida; mahsulot (ish, xizmat) larni sotishdan tushum summasining o'zgarishi; asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymatlarining o'zgarishini kiritish mumkin.

Asosiy vositalarning aylanish koeffitsenti orqali ularni bitta aylanishiga ketgan vaqtini xam aniqlash mumkin. Bu quyidagi bog'lanishda ifoda etiladi;

$$Kd=365/Ka$$

Lekin bu ko'rsatkichni aniqlash iqtisodiy jihatdan mazmunga ega emas deb qaraladi. Negaki asosiy vositalarning aylanish davri har qanday holatda ham bir yildan oshiq muddatga rejulashtiriladi. Agar shu shart bo'limganida edi ular ham moddiy oborot mablag'lari qatoriga kiritilgan bo'lar edi.

Asosiy vositalarning aylanuvchanligi ularning tarkibi bo'yicha xam o'rganilishi mumkin. Masalan; faoliyat yo'nalishlari bo'yicha band qilingan asosiy vositalar bo'yicha; aktiv yoki passiv asosiy vositalar bo'yicha; asosiy vositalarning turi bo'yicha va hakoza.

Aylanma kapital yoki joriy aktivlarni aylanishi ham umumiylilik va alohidilikda o'rganiladi. Umumiylikda jami joriy aktivlari summasiga nisbatan, birlik ko'rsatkichlari bo'yicha tayyor mahsulotlar, zahiralar, pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar bo'yicha, debitorlik majburiyatlari bo'yicha aniqlanadi.

**Ku=Mahsulot sotishdan tushum/joriy aktivlar**

**Kb=Mahsulot hajmi/T, Zx, Pm, Qq, Dm**

Bunda;

T-tovarlarni yillik o'rtacha qoldig'i;

Zx-zahiralarni yillik o'rtacha qoldig'i;

Pm-pul mablag'larining yillik o'rtacha qoldig'i;

Qq-qimmatli qog'ozlarining yillik o'rtacha qoldig'i;

Dm-debitorlik majburiyatlарining yillik o'rtacha qoldig'i.

Ularning aylanish davri joriy davrdagi kunlar sonini aylanish koeffitsentiga bo'lish asosida aniqlanadi.

Ya'ni;

Ktd=365/ tovarlarni aylanish koeffitsenti (Kat)

Kzxd=365/ zahiralarni aylanish koeffitsenti (Kazx)

Kpmd=365/ pul mablag'larini aylanish koeffitsenti (Kapm)

Kqqd=365/qimmatli qog'ozlarni aylanish koeffitsenti (Kaqq)

Kdmd=365/ debitorlik majburiyatlарini aylanish koeffitsenti (Kadm)

## 5.3.-jadval

**Firma va kompaniyalar ish faolligini aktivlar bilan bog'liq ko'rsatkichlarni tahlili**

Ko'rsatkichlar 1	Joriy yil 2	O'tgan yil 3	O'sishi % 4
1.Mahsulot sotishdan tushum, m.s.	76330	72500	105.3
2.Aktivlarning yillik o'rtacha qiymati, m.s.	30550	27868	109.6
3.Uzoq muddatli aktivlarning yillik o'rtacha qiymati, m.s.	8500	7800	108.9
4.Aylanma mablag'larning yillik o'rtacha qiymati, m.s.	22050	19968	110.4
5.Zahira va xarajatlarning yillik o'rtacha qiymati, m.s.	18500	16600	111.4
6.Tayyor mahsulotlarni yillik o'rtacha qoldigi, m.s.	9300	7500	124.0

1	2	3	4
7.Pul mablag'larini yillik o'rtacha qoldig'i, m.s.	3550	3368	105.4
8.Debitorlik majburiyatlarini yillik o'rtacha qiymati, m.s.	2500	2000	125.0
9.Aktivlar aylanuvchanligi	2.5	2.6	96.1
10Uzoq muddatli aktivlar aylanuvchanligi	8.9	9.3	95.7
11.Zahira va xarajatlarning aylanuvchanligi	4.1	4.4	93.2
12.Tayyor mahsulotlar aylanuvchanligi	8.2	9.7	84.5
13.Debitorlik majburiyatlarini aylanuvchanligi	30.5	36.5	84.3
14.Debitorlik majburiyatlarining aylanish davri, kun	12	10	120

Jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki firmada aktivlarni aylanuvchanligi ularning tarkibi bo'yicha turlicha bo'lgan. Jami aktivlarning aylanuvchanligi 96.1 fizga, uzoq muddatli aktivlarni aylanuvchanligi 95.7 foizga, zahira va xarajatlarning aylanuvchanligi 93.2 foizga, tayyor mahsulotlarning aylanuvchanligi 84.5 foizga, debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi 84.3 foizga bajarilgan xalos.

### **5.3. Firma va kompaniyalar ish faolligini karz kapitali bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari tahlili**

Iqtisodiy harakat va faoliyatda firma va kompaniyalar albatta qarz kapitaliga suyanishga majburlar. Negaki faoliyatning dastlabki davriga kapitalning etarli bo'lmasligi yoki umuman bo'lmasligi aniq reja va loyihalar asosida qarz kapitaliga tayanishga majbur qiladi.

Qarz kapitali uch xil shaklini kirib qo'yish mumkin;

1. Uzoq muddatli qarz kapitali;
2. Qisqa muddatli qarz kapitali;
3. Kreditorlik majburiyati (kundalik majburiyat).

Majburiyatlarning aylanuvchanligi deganda ularning oqlanuvchanlik darajasi va davri tushuniladi.

Firma va kompaniyalar ish faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar qatorida yuqoridagi ko'rsatkichlardan tashqari o'z kapitalini aylanuvchanlik darajasi va davri ham o'rganiladi.

O'z mablag'larining aylanuvchanlik koeffitsenti mahsulot sotishdan olingan tushum summasini xususiy mablag'larni yillik o'rtacha qiymatiga bo'lish asosida topiladi.

Majburiyatlar aylanuvchanligini topishda mahsulot sotishdan olingan tushum summasi Uzoq va qisqa muddatli majburiyatlarga, kreditorlik majburiyatlariga bo'linadi.

Aylanuvchanlik davri ya'ni bitta aylanishga ketadigan vaqtni topish uchun joriy davrdagi kunlar soni (365, 180, 90, 30) aylanish koeffitsentining birlik ko'rsatkichlariga bo'linadi.

**Firma va kompaniyalar ish faolligini xususiy va qarz kapitali bilan bog'liq bo'lган  
ko'rsatkichlari tahlili**

Ko'rsatkichlar	Joriy yil	O'tgan yil	O'sishi %
1.Mahsulot sotishdan tushum, m.s.	76330	72500	105.3
2.Xususiy kapitalning yillik o'rtacha qiymati, m.s.	20120	18500	108.7
3.Uzoq muddatli qarz kapitalini yillik o'rtacha qiymati, m.s.	5550	5550	100
4.Qisqa muddatli qarz kapitalini yillik o'rtacha qiymati, m.s.	2310	2450	94.0
5.Kreditorlik majburiyatlarini yillik o'rtacha qiymati,m.s.	2570	1368	187.0
Xususiy kapitalni aylanuvchanligi	3.79	3.91	96.0
Uzoq muddatli qarz kapitalini aylanuvchanligi	13.75	13.06	105.0
Qisqa muddatli qarz kapitalini aylanuvchanligi	33.4	29.59	112.0
Kreditorlik majburiyatini aylanuvchanligi	29.7	52.99	56

Korxonada xususiy mablag'lar va kreditorlik majburiyatlarini aylanuvchanligi joriy davrda o'tgan yilga nisbatan tezlashgan, lekin uzoq va qisqa muddatli majburiyatlar aylanuvchanligi sekinlashgan.

## **5.4.Firma va kompaniyalar bozor faolligi va uning omilli tahlili**

Firma va kompaniyalarni bozor faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar qatoriga firma va kompaniyalarning xususiy kapitalining birlik ko'rsatkichlarining foydalilik va daromadlik darajasini xarakterlovchi ko'rsatkichlar kiritiladi.

Davlat mulkini xususiylashtirish natijasida tashkil etilgan aktsionerlik jamiyatlarini mulkiy jamg'armalarini shakllantirishda ular tomonidan chiqarilgan aktsiyalarni joylashtirish muhim masala hisoblanadi. Aktsiyalarni dastlabki, nominal qiymati shakllantirish, firma va kompaniyalarning ish faolligi, foydaligi ta'sirida o'zgarib boruvchi aktsiyalarning bozor qiymatlarini o'rganish asosida firma va kompaniyalarni dividend siyosatiga ham baho berish mumkin.

Aktsiyalarning bozor qiymati, birlamchi va ikkilamchi bozorda firma va kompaniya aktsiyalarini narxlarini oshishini tavsiiflaydi. Firma va kompaniyalarni bozordagi faolligini esa bitta aktsiyaning daromadlik, foydalilik darajasi ta'minlaydi. Bunga bevosita firma va kompaniyalarni dividend siyosatining ta'siri, firma va kompaniyaning rentabellik darajasi, moliyaviy barqarorligi, to'lovga qobiligi kabi ko'rsatkichlar ta'sir etadi.

## **Mavzu bo'yicha nazorat savollari**

1.Firma va kompaniyalar ish faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar qatoriga qanday ko'rsatkichlar kiritiladi?

2.Firma va kompaniyalar bozor faolligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar va ularning tavsifi?

4. Firma va kompaniyalar ish va bozor faolligini tahlili qanday amalga oshiriladi?

5. Firma va kompaniyalarda ish va bozor faolligini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tarkiblang va izohlang?

6. Firma va kompaniyalarda ish faolligini va bozor faolligini prognozlash deganda nimani tushunasiz va uning mazmunini tushuntirib bering?

## **6-bob. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini tahlili**

### **O'rganiladigan savollar**

6.1. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashni mezonlari va moliyaviy tahlil vazifalari

6.2. Firma va kompaniyalarda, uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalg etishda moliyaviy tahlil

6.3. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashda mablag'lar likvidligi va to'lov qobiliyatini tahlili

6.4. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashni boshqa qo'shimcha ko'rsatkichlari tahlili

6.5. Firma va kompaniyalarda kreditga va layoqatligini o'stirishning amaliy chora-tadbirlari

6.6. Kreditga layoqatlikni baholashni xorij tajribalari va ularning O'zbekiston Respublikasidagi tajribalar bilan muvofiqligi

**Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:** to'lov mablag'lari, to'lov majburiyatları, to'lov layoqati, kreditga layoqatlilik, qisqa muddatli majburiyatlar, joriy to'lov layoqati, oraliq to'lov layoqati, umumiy to'lov layoqati, mablag'lar likvidligi, kreditlar, qarzlar, majburiyatlar.

### **Mavzu bo'yicha muammoli savollar**

1. Firma, kompaniyaning kreditga layoqatligini baholashda qanday ko'rsatkichlar o'rganiladi?

2. Yangi ochilgan firma va kompaniyalarga uzoq va qisqa muddatli kreditlarni band qilish yuzasidan qaror qabul qilishda qanday yo'l tutiladi?

3. Firma va kompaniyalarda kredit, qarz, ssuda mablag'larni jalg qilishni qanday farqlari mavjud?

4. Kreditga layoqatlikni baholash mezonlari qaysi tashkilot tomonidan belgilanadi va tuzib chiqiladi?

5. To'lovga qobililik bilan kreditga layoqatlikni qanday farqi bor?

6. Firma va kompaniyalarga kreditlarni jalg etishda ko'rsatkichlarni qaysi hollari asos qilib olinadi?

7. Kreditni garov hisobiga jalg etishda mijozning moliyaviy ahvolini tahlil etish shartmi, agar shart bo'lsa buning zaruriyati nimada?

8..Firma va kompaniyalarda kreditga layoqatlikni baholashda kredit resurslarini hajmiga, turi, shakliga ahamiyat beriladimi?

### **Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar**

(1, 2, 3, 4, 7, 8, 10, 13, 15, 16, 18, 27, 29, 31, 35, 37, 39, 45, 47, 48, 50, 51, 52, 54, 55, 56, 58, 59, 61, 62, 64, 65, 68, 69, 70, 71, 72, 73)

## **6.1. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashni mezonlari va moliyaviy tahlil vazifalari**

Firma va kompaniyalar iqtisodiy harakatda ,albatta, qarz kapitaliga zaruriyat sezadilar. Negaki, biznesni dastlabki qadamiga etarli mablag' tadbirkorlarda doimo etarli darajada bo'lavermaydi yoki umuman bo'lmaydi. Iqtisodi rivojlangan davlatlar biznes hayotini kuzatish shuni ko'rsatadiki faoliyatni, biznesni 90 foizi qarz kapitali hisobiga yo'lga qo'yildi.

Bundan ko'rinish turibdiki, firma va kompaniyalar doimo aniq biznes loyihalari, rejalarini asosida qarz kapitali jalb qiladilar va uni ishlatishdan foyda olishga harakat qiladilar.

Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashni tasdiq topgan me'yoriy aklari va Nizomiga ta'yangan holda har bitta biznes subektini kreditni, qarzni qaytarib berish layoqatiga egaligi o'rganilmog'i lozim. Bu mezonlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Iqtisodiyot Vazirligi, Iqtisodiy nochor korxonalar bilan ishlash Ko'mitasi va tegishli Vazirliklar tomonidan tuzib chiqilgan.

Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligiga i.f.d. prof. M.Q.Pardaev tomonidan quyidagicha izoh beriladi. "Korxonaning kreditga layoqatligi deganda-uning kredit olish va o'z vaqtida olingan kreditni to'liq qaytarish qobiliyati tushuniladi".<sup>68</sup>

Muallif tomonidan, korxonalarning, firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini o'rganish maqsadida quyidagi ko'rsatkichlarni baholash lozimligi ta'kidlanadi;<sup>69</sup>

-kreditni to'lashga qodirlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarni baholash, tahlil etish;

-mablag'larni likvidligi (aylanuvchanligini) baholash, tahlil etish;

-firma va kompaniyalar foydaligi bilan bog'liq ko'rsatkichlarni tahlil etish;

-moliyaviy barqarorlik bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarni baholash, tahlil etish.

Firma va kompaniyalarda kreditga layoqatligini baholashda olinadigan kreditni turiga,albatta,qarash lozim. Kredit mablag'larini uzoq (bir yildan ortiq muddatga), qisqa muddatga jalb etish hollarini e'tiborga olish lozim. Uzoq muddatli kreditlar odatda uzoq muddatli aktivlarni shakllantirishga, qisqa muddatli kreditlar esa oborot mablag'larni manbalashga yoki shakllantirishga jalb qilinadi.

Firma va kompaniyalarning kreditga qodirlik darajasini uning to'lovga qobiligi, moliyaviy barqarorligi, kapitalning foydaliligi kabi ko'rsatkichlar asosida bayon etish mumkin. Ushbu ko'rsatkichlarning mezoniga tayangan holda firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini tavsiflovchi "sinf" shkalasi tuzib chiqiladi. Ushbu shkala bo'yicha firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar darajasi birinchi va ikkinchi sinfga tushsa, firma va kompaniya kreditni olishga layoqatli, 3 va 4- sinflarga tushadigan bo'lsa kreditni olishga noloyiq deb topiladi.

Tahlil etishda, kredit tashkilotlarining inspektorlari tomonidan, kredit olish haqida ariza bergen har bitta firma yoki kompaniyaning auditorlik xulosasi olingan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida moliyaviy holati baholanadi. Baholash natijasi bo'yicha

<sup>68</sup> Pardaev M.Q., Isroilov B. Moliyaviy taxlil T.; Iqtisodiyot va xuquq dunyosi. 1999 y.219-bet

<sup>69</sup> Pardaev M.Q., Isroilov B. Moliyaviy taxlil T.; Iqtisodiyot va xuquq dunyosi. 1999 y.220-bet

bayonnomma tuziladi va bu bayonnomma kredit oluvchi bilan tuziladigan kredit shartnomasiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini baholashda tahlil oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi;

- firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini davriy oraliqlar bo'yicha o'rganish;
- firma va kompaniyalarning moliyaviy barqarorligi, aktivlar va kapital foydaliligini baholash;
- mablag'larni joylashinuvidan holat, ularning aylanuvchanligini baholash;
- muddati o'tgan majburiyatlarning holati, firma va kompaniyalarning moliyaviy mustaqillik darajasidagi o'zgarishlar, sotish hajmidagi o'sish, likvid mablag'larning xolati kabi qo'shimcha ko'rsatkichlarga baho berish;

Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini tahlil etishda moliyaviy hisobotni barcha shakllaridan foydalanish, ularning muvofiqligiga va davriy o'zgarishlariga ahamiyat berish talab etiladi.

## **6.2. Firma va kompaniyalarda, uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda moliyaviy tahlil**

Firma va kompaniyalarda uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda, aniq va puxta ishlangan biznes rejaga va investitsion loyihalarga e'tiborish berish lozim. Lekin ungacha albatta, ushbu firma yoki kompaniyaning, moliyaviy ahvoli o'rganilishi lozim. Kredit resurslarini jalb etishning turli risklarini ham ta'kidlab o'tish lozim deb o'yaymiz. Massala. Bir necha yildan buyon faoliyat yuritayotgan korxonaning moliyaviy holatini tahlil etishning axborot manbayiga egamiz va uning kreditni jalb etish bayonnomasini tuzishda unga tayanish mumkin. Lekin yangi tashkil topgan korxona yoki faoliyatini endigina yo'lga qo'ygan korxonaning moliyaviy hisobotlari tuzilmagan xollarda, uning moliyaviy ahvolini qanday baholash mumkin. Shu va shu kabi savollarga ushbu mavzuda albatta to'lib javob berishga harakat qilamiz. Birinchidan; endigina faoliyat boshlagan yoki ro'yxatga olingan korxonaning, albatta, ustav kapitali shakllanganligiga ahamiyat beriladi. Ustav kapitalining darajasi va uning biznesni yo'lga qo'yishdag'i, tarmoq bo'yicha o'rtacha darajaga nisbatan holatini baholash orqali ham fikr yuritish mumkin. Shuningdek, garov, kafillik shartlari asosida ham kredit shartnomasini rasmiylashtirish mumkin.

Kredit arizasi bergen firma yoki kompaniyaning moliyaviy tahlilida muhim ko'rsatkichlar sifatida birinchi navbatda uning to'lov layoqati, qoplov koeffitsenti baholanadi. Bu koeffitsentlar asosida firma va kompaniyaning, choraklar va yillar bo'yicha to'lovga qobillik darajasi, o'zining muddatli majburiyatlarini to'lashga qobilligi baholanadi.

Firma va kompaniyalarning tomonidan olingan kredit resurslar nafaqat korxonaning to'lovga qobilligiga balki uning mablag'larining harakatchanlik (likvidlilik) darajasiga ham bog'liq. Shu sababli tahlil etishda buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida firma va kompaniyalarning harakatchan mablag'larini holatiga, tez va sekin pulga aylanuvchi aktivlarga, nolikvid mablag'lar holatiga, ularning to'lov muddati kelgan, qisqa va uzoq muddati majburiyatlarga nisbatiga, doimiy passivlarni nolikvid va likvid mablag'larni manbalashdagi holatiga baho berish talab etiladi.

So'ngi paytlarda olingan kredit resurslarining o'z vaqtida va qaytmaslik hollariga krediti institutlari tomonidan ko'p duch kelinmoqda. Shu sababli firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini tahlil etishda moliyaviy holat tahlilida quyidagi qo'shimcha tarzda quyidagi mavzularni o'rganish tavsiya etiladi;

- firma va kompaniyalarning rentabellik darajasi;
- aylanma mabalag'larning holati;
- o'z mablag'larini hajmi, ularning asosiy va oborot kapitalidagi ishtiroki;
- ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlarni o'sish templariga;
- to'lov muddati keligan va o'tib ketgan debtorlik va kreditorlik majburiyatlarining holatiga;
- firma va kompaniyalarning pul va qimmatli qog'ozlarining mavjudligiga va boshqa jihatlarga ahamiyat beriladi.

### **6.3. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashda to'lov qobilyatini va mablag'lari likvidligi tahlili**

Firma va kompaniyalarda kredit resurslarini jalb etishda asos ko'rsatkich bu- to'lovga qobillik ko'rsatkichidir. To'lovga qobillik korxonanini to'lov imkoniyatlarini, ya'ni uning o'z majburiyatlarini to'lashga qodirligini xarakterlaydi.

Mualliflar Vaxobov A.V. hamda Ibragimov A.T. lar tomonidan chop etilgan "Moliyaviy tahlil" darsligida korxona to'lov layoqatiga shunday ta'rif beriladi.

"To'lov qobilyati deyilganda, xo'jalikning muddati kelgan to'lov majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan mablag'larni etarli yoki kamchiliginani aniqlash tushuniladi" deyiladi.<sup>70</sup>

Mualliflar; Xasanov N., Najmuddinov S. lar tomonidan chop etilgan "Korxona moliyaviy holatini baholash" deb nomlangan o'quv qo'llanmasida "to'lovga qobillik-korxonaning to'lov imkoniyatlarini, ya'ni uning oborot mablag'lari qanchalik qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashini xarakterlaydi"<sup>71</sup> deyiladi.

Yuqorida berilgan tariflar albatta mazmun jihatdan to'g'ri lekin uni quyidagi tartibda berib o'tish lozim deb o'yaymiz.

Firma va kompaniyalarni to'lov layoqati deganda ularni, to'lov muddati kelgan majburiyatlarni qoplashga joriy mablag'larining etarligi yoki etishmovchiligi tushuniladi.

Bu jihat ta'riflash mazmun jihatdan yuqoridagi ta'riflashlar bilan bir xilda, lekin so'z va iboralar o'z o'rnila ishlatilgan. Sababki, birinchi ta'rifdagi "kamchilik", "xo'jalik" so'zları, ikkinchi ta'rifdagi "to'lov imkoniyatlari", "oborot" kabi so'zlar o'z o'rnila ishlatilmagan.

Firma va kompaniyalarni to'lov layoqatini xarakterlovchi ko'rsatkichlarga quyidagi ko'rsatkichlar kiritiladi;

- mutlaq to'lov layoqati;
- oraliq to'lov layoqati;
- joriy to'lov layoqati;

Mualliflar; Vaxobov A.V., Ibragimov A.T, lar tomonidan chop etilgan "Moliyaviy tahlil" darsligida to'lov layoqatining 2 ta ko'rsatkichi farqlanadi, ya'ni;

- uzoq muddatga to'lov layoqati;
- qisqa muddatga to'lov layoqati.

To'lov layoqatining ko'rsatkichlarini uzoq va qisqa davriylikka deb tarkiblash to'g'ri emas. Nagaki bu tarkiblash, muddat bo'yicha emas balki to'lov mablag'larining likvidligi bo'yicha tarkiblashni xarakterlaydi. Ya'ni mualliflar, qisqa muddatli to'lov layoqati deganda qaytarish muddati kelgan majburiyatlarga faqat, pul mablag'lari va qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarni etarligi yoki etishmovchilini tushunadilar. Birinchidan; uzoq va qisqa muddat, qarz kapitalining bir yilgacha va bir yildan ortiq muddatga bo'lgan majburiyatlarini ham olishi lozim. Yaqin oraliqqa nisbatan uzoq va qisqa muddatni belgilab bo'lmaydi.

<sup>70</sup> Vaxobov A.V., Ibragimov A.T. Moliyaviy taxlil T.;Shark, 2002 y. 29-bet

<sup>71</sup> Xasanov N., Najmuddinov S. Korxona moliyaviy xolatini baholash (muammolar va ularni xal etish).T.; Iqtisodiyot va xuquq dunyosi, 1999 y.,29-bet

Ikkinchidan; qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar bo'lmaydi, ular "qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar"ning bir turi xalos.

Prof. E.Akramov tomonidan to'lovga qobilikni 4- ko'rsatkichni aniqlash ham tavsiya etiladi. Bu ko'rsatkich "Umumiy to'lovga qobilik"

Umumiy to'lovga qobilik ko'rsatkichi barcha aktivlarni majburiyatlar jamiga bo'lish asosida topiladi.

1.Mutlaq to'lov layoqati (Kmtl). Ushbu ko'rsatkich firma yoki kompaniyaning pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalarini muddati kelgan to'lov majburiyatlariga, qisqa muddatli majburiatlarga bo'lish asosida topiladi. Ya'ni;

### **Kmtl=PM+QMMQ/QMM**

Bunda;

PM-pul mablag'lari;

QMMQ-qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar;

QMM-qisqa muddatli (to'lov muddati kelgan) majburiyatlar.

Ushbu ko'rsatkich qisqa muddatli majburiyatning har bir so'miga to'g'ri keladigan pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalarni xarakterlaydi.

2.Oraliq to'lov layoqati(Kotl). Ushbu ko'rsatkich mutlaq to'lov layoqati ko'rsatkichidan Sof debitorlik summasiga farq etadi. Ya'ni;

### **Kotl=PM+QMMQ+SDM/QMM**

Bunda;

SDM-sof debitorlik majburiyati.

Sof debitorlik majburiyati, jami debitorlik qarzidan muddati o'tgan debitorlik qarzlarini cheginish asosida topiladi. Chunki muddati o'tgan debitorlik qarzlari kreditorlik qarzini qoplay oladigan haqiqiy manba bo'la olmaydi.

O'tish muddati bo'lib huquqiy va jismoniy shaxslar uchun ham bitta mezon bir yilga belgilangan. (mol etkazib beruvchi va xaridor, buyurtmachilar bilan bo'ladigan munosabatlardagi 3-oylik muddat bundan mustasno).

3.Joriy to'lov layoqati(Kjtl). Ushbu ko'rsatkich muddati kelgan to'lov majburiyatları yoki qisqa muddatli majburiyatlarni to'lashga barcha oborot, aylanma aktivlarni etarligi yoki etishmovchiligini xarakterlaydi.

Ya'ni;

### **Kjtl=PM+QMMQ+SDM+TZ**

Bunda;

TZ- tovarlar va zahiralar qiymati.

Prof. E.Akramov tomonidan tavsiya etilgan umumiy to'lovga qobilik ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi. Ya'ni;

Kutl=Uzoq muddatli aktivlar+Oborot aktivlar/M

Bunda;

M-majburiyatlar (buxgalteriya balansi passivining 2-bo'lim jamisi)

<sup>72</sup> Akramov E. Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya T.; TGEU,2000 g.,53-str.

Firma va kompaniyalar to'lov layoqatini baholashda mablag'lar likvidligi ko'rsatkichi ham o'r ganiladi. Mablag'lar likvidligi (aylanuvchanligi)ni baholashda aktivlar, kapital va majburiyatlar harakatchanligi va to'lov muddatli bo'yicha qayta tarkiblanadi.

Aktivlarni likvidligi bo'yicha quyidagi tarkibda guruxlash mumkin;

- 1.Likvid mablag'lar (Pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar);
- 2.Tez sotiladigan aktivlar (Debitorlik majburiyatlari);
- 3.Sekin sotiladigan aktivlar (tovarlar, zaxiralar);
- 4.Qiyin sotiluvchi aktivlar (Uzoq muddatli aktivlar);

Yuqoridagi tarkiblashga mos ravishda, firma va kompaniyalarga tegishli kapital va majburiyatlarni ham quyidagi tarkibda guruhlash mumkin;

- 1.To'lov muddati kelgan majburiyatlар;
- 2.Qisqa muddatli passivlar (majburiyatlар);
- 3.Uzoq muddali passivlar (majburiyatlар);
- 4.Doimiy passivlar.

Aktivlar, kapital va majburiyatlarni o'zaro taqqoslash asosida firma, kompaniyaning buxgalteriya balansining likvidlilik darajasiga baho berish mumkin.

Bunda quyidagi mezonga tayaniladi;

A1>P1, A2>P2, A3>P3, A4<P4 =to'la likvid firma;

A1<P1, A2>P2, A3>P3, A4<P4 =likvidlik firma

A1<P1, A2<P2, A3>P3, A4<P4 =nolikvidlik firma

A1<P1, A2<P2, A3<P3, A4<P4 =bonkrot firma

## **6.4. Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashni boshqa qo'shimcha ko'rsatkichlari tahlili**

Firma, kompaniyani kreditga layoqatligini o'rganishda bitta to'lov layoqati ko'rsatikichi natijalariga tayanish to'g'ri bo'lmaydi. Shu sababli qo'shimcha ko'rsatkichlar va ularni tahlil etishga muhim ahamiyat beriladi. Bunday ko'rsatkichlar qatoriga quyidagilar kiritiladi.

1.Firma, kompaniyaning moliyaviy barqarorligi.

2.Firma, kompaniya foydaliligi;

3.Kapitalning aylanuvchanligi.

1.Firma, kompaniya moliyaviy barqarorligiga baho berishda quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi; chetdan jalg qilingan mablag'larning barcha mablag'lar tarkibidagi xissasi,chetdan jalg qilingan mablag'larning o'z mablag'lariga nisbati darajasi,o'z aylanma mablag'larining harakatlanish darajasi, uzoq muddatli mablag'larning chetdan jalg qilingan mablag'lardagi xissasi, moddiy aylanma mablag'larning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish darajasi, o'z mablag'lari tarkibida asosiy kapitalning xissasi, asosiy kapitalning eskirish darajasi,asosiy va aylanma mablag'larning umumiy kapitalga nisbati koeffitsentlari tahlil etiladi.

2.Foydalilik ko'rsatkichlari qatorida; umumiyl mablag'larning foydaliligi, asosiy vositalar foydaliligi, uzoq muddatli va oborot aktivlarning foydaliligi,o'z mablag'lari foydaliligi, sotilgan mahsulot foydaliligi kabi ko'rsatkichlar o'rganiladi.

3.Kapitalning aylanuvchanligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar qatorida; umumiyl mablag'larning aylanuvchanligi, asosiy vositalarning aylanuvchanligi,aylanma mablag'larining aylanuvchanligi,moddiy aylanma mablag'larining aylanuvchanligi, pul mablag'larining aylanuvchanligi, debitor qarzlarining aylanuvchanligi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

Hozirgi paytda kreditlarning o'z vaqtida qaytmasligi hollari ko'p uchrashi va ulardan imkon qadar himoyalanish maqsadida qo'shimcha sur'atda yana quyidagi ko'rsatkichlarni baholash ham talab etiladi.

-rentabellik darajalari;

-sotilgan mahsulotlarni o'zgarish sur'atlari;

-to'lov muddati o'tgan majburiyatlarning holati;

-olingan kreditlar yuzasidan foizlar va ularning to'lash imkoniyatlari;

-firmaning hisob raqami va boshqa hisob raqamlaridagi pul mablag'larining holati kabi masalalar.

## **6.5. Firma va kompaniyalarda kreditga va layoqatligini o'stirishning amaliy chora tadbirlari**

Firma va kompaniyalarning kreditga layoqatligini o'stirishning amaliy chora tadbirlari, ularning moliyaviy holatida ro'y berayotgan o'zgarishlar va natijalardan kelib chiqib belgilanadi. Ya'ni, to'lovga qobil firma va kompaniyalarda belgilanadigan chora tadbirlar, to'lovga noqobil, moliyaviy nobarqaror firma va kompaniyalarda belgilanadigan chora tadbirlar keskin farq qiladi. Ulardan biri moliyaviy barqarorlikni saqlab qolishga harakat qilsa, ikkinchisi muammoni hal etish va yashab qolish harakatiga tushadi.

To'lovga noqobiillik yoki kreditga layoqatlikni o'stirishni muhim tadbirlariga quyidagilar kiradi.

1. Firma va kompaniyalar aktivlari va passivlarini joylashtirishni qayta ko'rib chiqish. Uning mazmunini qanday tushunish mumkin?

Firma, kompaniyalarda likvid mablag'larining aylanuvchanligini tezlashtirish maqsadida ortiqcha aylanma aktivlarni hisobdan chiqarish, asosiy va nomoddiy aktivlarni ishlab chiqarish zaruriyatidan ortig'ini aylanma mablag'lar qatoriga olish (ularni sotish, buzish, hisobdan chiqarish va boshqa yo'llar bilan), debtorlik va kreditorlik majburiyatlarini so'ndirish (yo'l qo'yilgan tartiblarda), qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalarni maqsadli joylashtirish.

2. To'lov mablag'lari va to'lov majburiyatları orasidagi nisbatdagi manfiy o'zgaruvchanlik sababini moliyaviy holatdagi tanglikdan emas, balki, ishlab chiqarish va boshqaruvning quyi bo'g'inlaridan izlash lozim. Ya'ni, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishni yaxshi yo'lga qo'yilmasligi, ishlab chiqarish xarajatlarini oshib ketishi, narx belgilash siyosatining to'g'ri yuritilmasligi va boshqalar.

3. To'lovga noqobillik sharoitida mablag'lar etishmovchiligin hal etish yuzasidan avvalo, ichki imkoniyatlarni aniqlab olish va ularni ishga solish lozim. Noqobillik sharoitida boshqa bir sub'ektdan qarz so'rash va uning ishonchini oqlashni iqtisodiy imkoniyati bo'lmaydi.

4. Firma va kompaniyalarning ishlab chiqarish bo'g'inlarini, uning balansida turuvchi madaniy oqartuv tashkilotlari xarajatlarini kamaytirish, qayta tashkil etish lozim.

5. Firma va kompaniyalarni pul mablag'lari va pulli ekvivalentlarni aylanishida qat'iy reja belgilash va unga amal etish. Ya'ni, pul mablag'larini qarz majburiyatlariga ishlatishni aniq rejasini tuzib olish.

6. Mablag'lar aylanuvchanligidagi quyidagi muammoni davlat tomonidan hal etishni mexanizmini ishlab chiqish. Bu muammoni mazmunini quyidagicha izohlash mumkin. Ya'ni, ishlab chiqarilgan mahsulotni o'z xaridorini topishga qadar ketgan vaqtni o'rtacha bir oy deb hisoblasak, uning yuzasidan to'lovlarining amalga oshish vaqtini 3 oy qilib belgilansa(oldi sotdi munosabatlarida ishtiroy etayotgan korxonalarning deyarli barchasi to'lov layoqatiga past holatda), tovarni pulga aylanish vaqtini o'rta hisobda 4-5 oyga to'g'ri kelmoqda. Bu albatta aylanma mablag'larni aylanishiga nisbatan past ko'rsatkich. Buni tezlashtirishni iqtisodiy asosi bo'lgani holda huquqiy asosi yo'q. Ya'ni, natura shaklida to'lash yoki hisob-kitoblarning kredit shaklidan foydalanish, veksel operatsiyalarini yo'lga

qo'yish, qarzlarni o'zaro so'ndirish kabi masalalar. Bu operatsiyalarni amalga oshirish huquqiy jixatdan to'xtatilgan. Naq pul mablag'larini harakati masalasini hal etish yuzasidan ulardan to'la chetlanish to'g'ri emas. Qarzlarning asosiy qismini moli etkazib beruvchilar, xaridorlar va byudjet va byudjetdan tashqari qarzlar tashkil etgan holda naqd pul aylanishini uning bilan bog'lanishi to'g'ri emas.

7. Firma va kompaniyalar kreditga layoqatligini ta'minlash va uni o'stirishda albatta ularning investitsion aktivligiga ham ahamiyat berish lozim. Investitsion aktivlik bu qarz olish va uni qaytarishdan keskin farq etadi. Buning uchun korxonadan ikkita narsa talab etiladi xalos. Birinchisi; aniq loyiha, ikkinchisi; xomiy. Aniq loyihaga ega bo'lish asosida ham investor yoki xomiyni topish qiyin bo'lmaydi.

## **6.5. Kreditga layoqatlikni baholashni xorij tajribalari va ularning muvofiqli**

Firma va kompaniyalarni kreditga layoqatligini baholashni xorij tajribalarini o'rganish asosida shuni izohlash mumkinki, uning

- uslubiy asoslarda;
- tashkiliy asoslarda;
- hukukiyl, me'yoriy asoslarda sezilarli farqlarni sezish mumkin.

Uslubiy asoslari. Uslubiy asoslari bo'yicha mazmun jihatdan bir xildagi yondashishni ko'rish mumkin. Lekin farq etuvchi jihatlar ham mavjud. Masalan; to'lovga qobililikni o'rganishda bizning amaliyotda 3 ta muhim ko'rsatkich aniqlanadi. Ya'ni; mutlaq oraliq va umumiyl to'lov layoqati ko'rsatkichlari. Lekin xorij amaliyotida firma, kompaniyani kreditga layoqatligiga bitta, umumiyl to'lovga qobililik ko'rsatkichi natijasi asosida baho beriladi. Pul va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar bir qatorga va o'ringa qo'yiladi. Qimmatli qog'ozlarning aylanishi pul mablag'larining aylanishiga nisbatan tez kechadi. Tovarlar va zahiralarining aylanuvchanligi majburiyatlar aylanuvchanligidan tez kechadi va h.k.

Tashkiliy asos. Kredit olish va berish tartibida kredit muassasalarining raqobatchilarini nihoyatda. Bu holat kredit mijozlari uchun kurash qonuniga amal etilishi va moliya bozorini rivojlanganligidan dalolat beradi. Kredit resurslari band qilishdagi har qanday to'siqlar olib tashlangan. Kredit oluvchi bilan kredit oluvchi o'rtasida yoki qarz beruvchi bilan qarz oluvchi o'rtasida ishonch, bir- birini aldamaslik qarz munosabatlari, biznes shioriga aylangan. Kredit oluvchi asosiy talab qilinadigan narsa uning aniq biznes loyihasi va garovi hisoblanadi. Bizda esa o'zgacha. Aniq biznes loyiha va garovdan tashqari ko'plab shartlarga bo'ysinish talab etiladi.

Huquqiy asos. Firma va kompaniyalarga kredit berish va uni qaytarishni me'yoriy xujjalalarini takomillashtirish talab etiladi. Negaki, uning bir turi tadbirkorlar huquqini qarz oluvchini huquqini himoya qilsa, ikkinchisi qarz beruvchini huquqini ximoya etadi. Betaraflik qoidasiga amal etgan holda tugal qonunchilik mexanizmini yaratish lozim deb o'ylaymiz. Kreditni olish va qaytarishdagi turli taxlikalardan himoya etuvchi zahiralar fondini tashkil etish, qarzdor va qarz beruvchini bir-birini aldamaslik, xiyonat qilmaslikni uning yuragiga singdirish lozim.

### **Mavzu bo'yicha nazorat savollari**

1. Firma to'lov layoqatini baholashda nimalarga ahamiyat berish lozim?
2. Firma to'lov layoqatini o'rghanishda to'lov layoqatini darajasi va uning me'yoriy darajalari qanday tavsiflanadi?
3. Kreditga layoqatlikni, ishlayotgan va endi ish boshlayotgan korxonalarda qanday yo'l tutiladi?
4. Firma, kompaniya kreditga layoqatligini baholashni qarz munosabatlarining barcha turlariga nisbatan bir xilda deyish mumkinmi?
5. Firma va kompaniyalarda moliyaviy barqarorlik yuqori bo'lgan holatda, to'lovga noqobillik kuzatiladimi?
6. Kredit tashkilotlari va ularning korxonalardagi real holat bilan tanishuvi mumkinmi yoki moliyaviy hisobot ma'lumotlarini tahlil etish qaror chiqarishga etarlimi?
7. Firma va kompaniyalarda kreditni o'z vaqtida qaytmasligi qanday hal etiladi?
8. Firma, kompaniyalar kreditga layoqatligini baholashda xorijiy tajribalarni o'ziga xos jixatlari mavjudmi? Agar mavjud bo'lsa ular nimada?

## **7-bob. Firma va kompaniyalarda investitsion faoliyat tahlili**

### **O'rganiladigan savollar**

- 7.1. Investitsiyaning mazmuni, mohiyati, turlari
- 7.2. Investitsiyalarni moliyaviy tahlil etishning maqsadi va uning asosiy jihatlari
- 7.3. Ichki investitsiyalar tahlili
- 7.4 Tashqi (xorijiy) investitsiyalar tahlili

### **Mavzu bo'yicha muammoli savollar**

1. Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar, investitsion loyihalarning roli
2. Moliyaviy tahlilning asosiy jihatlari va investitsion qarorlar qabul qilish mezonlari
3. Investitsion loyihalar samaradorligini baholash va tahlil etishni xususiyatlari
4. Investitsion loyihalarni diskontlash
5. Risk va noaniqlik sharoitida investitsiyalar tahlili
6. Raqobatbardosh investitsiyalar tahlili
7. Qarz oluvchi moliyaviy tahlili va uning mazmuni

**Mavzu bo'yicha tayanch iboralar;**investitsiyalar, investitsiya siyosati, investitsion faoliyat, investitsiya shakllari,kapital qo'yilmalar, investitsiya loyihasi, ichki investitsiya, tashqi investitsiya,investitsion qarorlar, qimmatli qog'ozlar, diskont, investitsion risklar, taxlikalar, reinvestitsiya.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

(1, 3, 4, 8, 10, 13, 15, 16, 17, 27, 29, 31, 35, 39, 45, 51, 52, 54, 61, 62, 65, 66, 67,68, 70, 72, 73, )

## **7.1. Investitsiyaning mazmuni, mohiyati va turlari**

Investitsiya siyosati har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishi va taraqqiyotida muhim yo'nalish hisoblanadi. Uning negizida moddiy va moliyaviy resurslarni foyda olish maqsadidagi harakati yotadi.

Investitsiya so'zining o'rindosh iborasi bizda oldin ham ishlatilgan. Uni kapital qo'yilmalar sifatida nomlaganmiz. Kapital qo'yilmalar deganda asosiy fondlarni vujudga keltirish, ularni ta'mirlash, qayta qurish, ishlab chiqarishni kengaytirish ma'nosida sarflar tushunilgan. Bu holat to'g'ri hisoblanadi. Negaki ta'minotni markazlashtirilgan va rejallashtirilgan mexanizmi amal etgan sharoitda, yagona davlat mulkchiligi sharoitida uning mazmuni to'g'ri ifodalangan.

Ana endi biz ikkita muhim narsani ajratib olishimizga to'g'ri keladi. Birinchisi kapital qo'yilmalar tushunchasi, ikkinchisi investitsiya tushunchasi.

Investitsiya tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi.

Investitsiya-lotincha so'zdan olingan bo'lib "kapital solish", "kapital qo'yish" degan ma'nolarni anglatadi.

U.F.Sharpning tomonidan investitsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi. "Investitsiyalar- kelgusida qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatliklardan voz kechishdir"<sup>73</sup>.

Iqtisodchi olim K.Eklund fikricha "Investitsiya- bu ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan resurslardir"<sup>74</sup>

Bir gurux olimlar tomonidan "investitsiyalar –keljakda daromad va ijtimoiy samara olish maqsadida kapitalni har qanday shaklda qo'yish sifatida ifodalanadi"<sup>75</sup>

Iqtisodchi olimlar Sozibekov D. va Qoraliev T. lar tomonidan investitsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi. "Investitsiya-daromad (foyda) yoki ijtimoiy samara keltiradigan va tadbirkorlik, ishbilarmonlikning davlat tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlarga jalb qilinadigan (sarflanadigan barcha turdag'i mulkiy va intelektual boyliklar" deb ..

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida" gi qonunida investitsiya deganda "Iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tushiniladi."<sup>76</sup>

Yuqoridagilar umumlashtirigan holda investitsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Investitsiya- deganda investorlar (sarmoyadorlar) tomonidan keljakda foyda olish maqsadida barcha turdag'i; mulkiy, moliyaviy va intelektual boyliklarni muddatli band etish tushuniladi.

<sup>73</sup> Sharp U.F. Investitsii.Per.s ang.M.; INFRA-M, 2000g.979 str.

<sup>74</sup> Eklund K. Effektivnaya ekonomika,M.; "Ekonomika",1991, 96-bet.

<sup>75</sup> Kempbell R.Stanli L. Ekonomiks 2-tom.M.;Respublika 1992 g. 388 str.

<sup>76</sup> Gozibekov D., Koraliev T. "Investitsion faoliyatni tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish" T.; Matbaachi,1993 y., 6-bet

<sup>77</sup> O'zbekiston Respublikasining investitsion faoliyat to'g'risidagi qonuni, 1998 y., 24-dekabr

Negaki §ozibekov D. va Qoraliev T. lar tomonidan berilgan ta'rifdagi "ijtimoiy samara" dorlik investorlar manfaatiga mos tushmaydi.

"Investitsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunda ham investitsiya tushunchasiga to'lik ta'rif berilmagan. Negaki uning ob'ekti va sub'ekti to'lik ko'rsatilmagan muddatgacha ahamiyat berilmagan.

Investitsiya- ertangi kunda ko'proq foyda va samara olish maqsadida band qilinadigan, joylashtiriladigan qo'yilmalardir.

Kapital qo'yilmalarni investitsiyalardan farqiga kelsak ushbu tushuncha faqat uzoq muddatli aktivlarni joylashtirish, ta'mir etish, kengaytirish va qayta tashkil etishga nisbatan ishlatalidi.

Investitsiyani turlariga kelsak uning ham turli shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Investitsilar pul mablag'larini qo'yilishi, aktsiyalar, boshqa pul mablag'larining, pay ulushlarini, harakatdagi va harakatsiz mulk, avtorlik huquqlari, nau-xaular va boshqa shakllarda mablag'larni maqsadli joylashtirishni xarakterlaydi.

Ta'sischilariga ko'ra; davlat, huquqiy tashkilotlar, jismoniy shaxslar, chet el fuqarolari va tashkilotlari shakli bo'yicha; ichki investitsiya; tashqi, xorijiy investitsiya, moddiy asosligi bo'yicha; moddiy, real investitsiyalar, nomoddiy, intelektual investitsiya va boshqa turlarini ajratish mumkin.

Investitsiyalar va ular samaradorligiga oid statistik manbalarga tayangan holda shuni aytish mumkinki 2002 yildap yalpi mahsulot tarkibida investitsiyalarning salmog'i 2000,2001-yilga nisbatan kamayishi kuzatilgan.

#### 7.1.-jadval

#### **Yalpi mahsulot tarkibida investitsiyalarning ulushi va kapital samaradorligi**

Ko'rsatkichlar	2000	2001	2002
YaIM da investitsiyalar ulushi	22,9	26,8	19,3
ICOR (kapital samaradorligi)	6,6	5,4	6,4

Iqtisodiyotni davlat tomonidan moliyalashtirish yildan yilga tushib bormoqda.Davlat byudjet mablag'larining assosiy qismi iqtisodiyotni ustuvor yo'naliishlariga safarbar qilinmoqda (umumiyl mablag'larning 95 foizi).

## **7.2. Investitsiyalarni moliyaviy tahlil etishning maqsadi va uning asosiy jihatlari**

Investitsiyalar va investitsion loyihalarni moliyaviy tahlili uning samaradorligini baholashda muhim masala hisoblanadi. Moliyaviy tahlil etish asosida investitsion loyihaning oqlanuvchanligi va foydaliligi aniqlanadi. Uning xarajatlari va uning samaradorligi baholanadi. Shuningdek, investitsion loyihalarni tuzish va ularni iqtisodiy asoslashda ham moliyaviy tahlil muhim rol o'ynaydi.

Mavjud loyihalarning samaradorligi, oqlanuvchanligi, hayotiyligi, tavakkalchiligi yuzasidan investitsion echimlar berish murakkab masala hisoblanadi. U albatta aniq hisobkitoblar va ularning natijasiga tayangan holda belgilanadi. Shu sababli moliyaviy tahlilning investitsion qarorlar qabul qilishdagi ahamiyati nihoyatda yuqori hisoblanadi.

Moliyaviy tahlil etishda investitsion loyihalar samaradorligini baholashning YuNIDO usulbiyati markaziy o'rinda turadi.

YuNIDO uslubi bo'yicha moliyaviy tahlilning muhim jihatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi.

-Investitsion qarorlarning asosiy mezonlari;

-qo'yilmalarni baholash va loyiha qiymatini aniqlash;

loyihaning hayotiyligi va uning bosqichlarini rejalashtirish;

-taxlikalar, noaniqliklar va boshqalar

Investitsion loyihalar moliyaviy tahlilining mazmunini quyidagilar tashkil etadi;

-loyihalar ishonchligini tahlil etish;

-loyihalashtirilgan investitsion loyihaning daromad va xarajatlarini tahlil etish;

-sof kirim, chiqim, loyihalarning iqtisodiy nafligi, foydaliligi, investitsion faoliyat samaradorligini baholash;

-investitsion qarorlar qabul qilishda sarmoyalalar nafligini himoyalanganligi, taxlikalarni tahlil etish.

Investitsion loyihalarni baholash moliyaviy tahlilning qiyin va murakkab bosqichi hisoblanadi. Odatda investitsiga yo'naltirilgan mablag'larni baholashning ikki usulini qayd etish mumkin.

1.Real aktivlarni kutilgan qiymati;

2.Real aktivlarni joriy qiymati.

Real aktivlarni kutilgan qiymati quyidagi ifoda orqali topiladi.

<sup>n</sup>

$$Bq = Qq(1+K)$$

Bunda;

Bq-kutilgan qiymat yoki qo'yilmaning bo'lg'usi qiymati;

Qq-kapitalning, qo'yilmaning dastlabki qiymati;

K-investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'ning daromadligi;

n-investitsion muddat

Misol; agar 1 million so'mlik kapital, 5 yil muddatga, yillik 20 foizli foydalikda band qilinsa uning yakuniy, kutilgan qiymati quyidagicha bo'ladi.

$$Bq = 1000000 \times (1+0.20)^2 = 1000000 \times 1.44 = 1440000 \text{ so'm}$$

Qo'yilgan investitsion kapitalning joriy qiymatini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin.

$$Bq = Qq \times (1+K) \text{ bundan}$$

$$Qq = Bq / (1+Q) = 1440000 / (1+0.20) = 1000000 \text{ co'm}$$

Moliyaviy tahlilni maqsadi investitsion qarorni qabul etishni barcha savolnomasiga (iqtisodiy naqlik, foyda ko'rish, oqlanish, hayotiylik, taxlikalar yuzasidan) javoblar topish va uni asoslashdan iborat.

Investitsion loyihalar tahlilida xarajatlar tahlili markaziy o'rinda turadi. Tahlil etishda ularning qiymatiga, o'zgarishlariga baho beriladi. Investitsion loyihalar bo'yicha xarajatlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin;

1. Investitsiya oldi xarajatlari;
2. Investitsion xarajatlar;
3. Eksplatatsion xarajatlar.

Eng avvalo, loyihani tayyorlash va yo'lga qo'yish bo'yicha xarajatlar va ularning baholanishiga ahamiyat beriladi. Bunda yuzaga chiquvchi xarajatlarni quyidagicha tarkiblash mumkin.

- qimmatli qog'ozlar emissiyasi bo'yicha dastlabki xarajatlar;
- izlanishni yo'lga qo'yish bo'yicha xarajatlar;
- qurilma va uskunalarни yangilash yuzasidan xarajatlar;
- ishlab chiqarishni dastlabki sinov bosqichi xarajatlari;
- likvidatsion xarajatlar;
- boshqa xarajatlar.

Ikkinci davrada yuzaga chiquvchi xarajatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin;

- ob'ektni tanlash, sotib olish va tayyorlash bo'yicha xarajatlar;
- ko'chmas mulk bo'yicha xarajatlar;
- mashina va uskunalar bo'yicha xarajatlar;
- nomoddiy faollarni sotib olish bo'yicha xarajatlar.

Uchinchi davra-ekspluatatsion xarajatlar qatoriga investitsion loyihalarni yo'lga qo'yish va joriy aktivlarni sotib olishda yuzaga chiquvchi xarajatlar kiritiladi.

Investitsion loyihalar hayotiyligini baholash, tahlil etishda xarajatlar va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga ahamiyat beriladi. Investitsion xarajatlar va ularning o'zgarishlari quyidagi xarajat elementlari bo'yicha o'rganiladi;

- zavod xarajatlari;
- ma'muriy va ustama xarajatlar;
- moliyaviy xarajatlar;

-amortizatsiya bo'yicha xarajatlar.

Baholash ularning har bir turkumi bo'yicha olib boriladi va bu bilan loyihalarning hayotiyligi hamda oqlanuvchanligi belgilanadi.

### **7.3. Ichki investitsiyalar tahlili**

Kapital qo'yilmalarni amalga oshirish, boshqa firma, kompaniyalar aktsiyalarini sotib olish, lizentsion huquqlar va boshqa holatlar bozor iqtisodiyoti sharoitida har bitta firma va kompaniyaning muhim faoliyat yo'naliishlariga aylanib bormoqda. Albatta firma va kompaniyalar ishlab chiqarish faoliyatini yaxshilash, uni qayta tashkil etish, kengaytirish, rekonstruktsiyalash, harakatchan va noharakatchan aktivlarni joylashtirishda o'z manbalariga tayangan holda ish ko'radilar. Zaruriyat tug'ilgan hollarda qarz munosabatlarini yo'lga qo'yadilar.

Ichki investitsiyalar firma va kompaniyalarning o'z resurslarini foyda olish maqsadidagi joylashtirishini xarakterlaydi.

Ichki investitsiya manbalariga firma va kompaniyalarning sof foydasi, amortizatsiya zahiralari, erkin pul mablag'lari kiradi, bank kreditlari va qarz mablag'lari, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari kiradi.

2000-2001 yillarda investitsiyalarni manbalashdagi holat quyidagi darajada bo'lgan.

7.2.-jadval

#### **Investitsiyani moliyaviy manbalashni holati haqida ma'lumot**

Ko'rsatkichlar	2000	2001
Investitsiya hajmi	100	100
Moliyaviy manbalashdagi holati		
Respublika byudjeti	29,2	23,1
Korxonalar va aholi mablag'lari hisobiga	39,1	38,8
Tashqi investorlar mablag'lari hisobiga	23,2	29,3
Bank kreditlari va qarz mablag'lari hisobiga	7,2	8,7
Byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga	1,3	0,1

Ichki investitsiyalarni tahlil etishda ular yuzasidan tuzilgan loyihalar samaradorligi, natijaviyligiga, investitsion xarajatlar va ularning moliyaviy manbalashning holatiga, investitsion loyihalarning oqlanish muddati va tahlilkalariga baho beriladi.

Firma va kompaniyalarda ichki investitsiyalarni tashkil etishni muhim yo'naliishlariga quyidagilarni kiritish mumkin;

-asosiy kapitalni shakllantirishga mablag'larni qo'yish;

-qimmatli qog'ozlarni sotib olish va boshqa korxonalar ustav kapitalida xissali qatnashish;

-kapital qo'yilmalarni amalga oshirish;

-ishlab chiqarishni kengaytirish va rekonstruktsiyalash;

-kadrlarni o'qitish va malakasini oshirish;

-sho''ba va assosatsiyalangan korxonalarda xissali qatnashish;

-xorijiy firma va kompaniyalar faoliyatiga mablag'lar qo'yish va band etish.

## 7.4. Tashqi (xorijiy) investitsiyalar tahlili

Respublikamiz iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va o'rnini shu bilan izohlash mumkinki, ularning kiritilishi ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy etishni, texnik yangilash, mahsulotlar sifatini oshirish va uni jahon bozoriga olib chiqish, iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish imkonini beradi.

Tashqi investitsiya yuzasidan puxta qonunchilik tizimini yaratilganligi, Respublikamizdagi ijtimoiy muhitni yaxshiligi, undagi tinchlik va osoyishtalik, arzon mehnat va moddiy resurslarning mavjudligi, mamlakatimizning geografik muhim xududda joylashganligi xorijiy investitsiyalarni jalb etishga, qo'shma korxonalarni ko'plab ochilishiga zamin yaratmoqda.

2003 yil 1-yanvar holatiga Respublikamizda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi 3400 dan ortiq korxona mavjudligi qayd etilgan. Bu ko'rsatkich 2000 yil bilan taqqoslaganda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni 3.5 baravardan ziyod o'sgan. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin.

7.3.-jadval

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatining asosiy –**

Ko'rsatkichlar	2000	2001	2002	2002 yil 2000 yilga nisbatan o'sishi	2002 yil 2001 yilga nisbatan o'sishi
1.XII korxonalar soni	3445	3301	3400	95,8	103
2.Ulardan hisobot taqdim etganlari soni	524	1708	1861	354,5	109
3.XII yil boshidagi ustav fondi, mln doll.	1123,3	1437,4	1607,2	143,1	111,8
4.XII korxonalarda eksport hajmi, mln dol.	451,6	416,9	442,9	98,9	106,3
5.XII korxonalarda import hajmi, mln dol.	760,5	937,2	705,1	92,7	75,2

Chet el investitsiyalarini jalb etish hisobiga amalda shakllangan jamg'armalarning umumiyligi miqdori 2003 yil boshida 1607,2 mln AKSh dollarini tashkil qildi yoki 2000 yilga nisbatan 143,1 ga oshgan. XII larning asosiy qismi 60 foizidan ortig'i, texnologiyalar, jixozlar va boshqa material aktivlarga to'g'ri kelganligini xarakterlash mumkin. Qolgan qismi pul mablag'lari ko'rinishida jalb qilingan.

<sup>78</sup> Davlat statistika Kumitasining 2002 yil yakuni bo'yicha ma'lumotnomasi asosida tuzilgan

XII korxonalarida band bo'lgan xodimlar soni o'tgan yilga nisbatan 22.8 foizga ortgan. 2002 yilda XII korxonalar tomonidan 1049,5 mlryad dollarlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Bu Respublika Yalpi ichki mahsulotining 14.7 foizini tashkil etgan. Eng yirik ishlab chiqarish korxonalari misolida "O'zDEUavto"(mashinalar), "Zarafshon\_Nmont" (oltin), "Kabul-O'zbek" va "DEU tekstil kompani" (tekstil mahsulotlari), "Qizilqum-tsement" (tsement) korxonalari ajralib turadi.

2002 yilda Respublika tashqi savdo oborotida XII korxonalar ulushi 21.4 foizni tashkil qildi (2000 yil –19.5 foizni tashkil etgan edi).

XII korxonalarda import hajmi- 705.1 mln AKSh dollarini tashkil etgan, bu Respublika jami importining 26 foizini tashkil etadi.

XII korxonalarning tovarlar eksporti hajmida asosiy mahsulotlarni, paxta tolasi (1,0 ), oziq-ovqatlar (4,1), kimyo mahsulotlari (2,1), energiya manbalari (2,9), rangli va qora metallar (0,5), mashina va uskunalar (16,5), xizmatlar (3,8), boshqalar (69,1) tashkil etgan.<sup>1</sup>

Respublikamiz bo'yicha XII korxonalar eksportining 90 foizi Toshkent shahri, Navoiy, Toshkent, Andijon va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri keladi.

XII korxonalarning asosiy ta'sischilari Janubiy Koreya, AKSh, Buyuk Britaniya, Turkiya davlatlaridir. XII korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 4.2 foizi Turkiyaga, 30.3 foizi Janubiy Koreyaga, to'g'ri keladi.

---

<sup>1</sup> Manba; O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Ko'mitasi-O'zbekiston iqtisodiyoti-2002 yil SIMS

## XII korxonalarining davlatlar bo'yicha

Investor davlatlar	Korxonalar soni		Mahsulot hajmi, foizda	
	2000	2002	2000	2002
Jami, O'zbekiston bo'yicha	527	1861	100	100
Buyuk Britaniya-O'zbekiston	36	77	9,9	5,9
Germaniya-O'zbekiston	20	68	1,6	2,0
Germaniya	7	25	0,2	0,2
Isroil-O'zbekiston	6	23	1,1	0,8
Italiya-O'zbekiston	11	24	0,9	0,4
Xitoy-O'zbekiston	12	42	0,1	0,6
Janubiy Koreya	5	18	4,9	2,6
Janubiy Koreya-O'zbekiston	25	73	25,4	30,3
Rossiya-O'zbekiston	204	237	2,0	2,4
AQSh	15	57	1,8	0,5
AQSh-O'zbekiston	67	145	25,2	19,2
Turkiya	13	44	0,7	1,1
Turkiya-O'zbekiston	44	160	6,5	4,2
Chexiya Respublikasi-O'zbekiston	15	17	0,8	0,7
Shveytsariya-O'zbekiston	12	38	2,4	1,2
Qolganlari	25	837	16,5	28,5

XII korxonalarni samarali faoliyat yuritishi yuzasidan asosiy muammolari quyidagilardan iborat deyish mumkin;

- tashqi savdoni erkinlashtirish zaruriyati;
- intelektual multk huquqlari himoyasi;
- bozor infratuzilmasi tarmog'ini rivojlantirish;
- malakali kadrlarni tayyorlash masalasi;
- ochiq iqtisodiy xududni shakllantirish;
- soliqlar va bojxona qoidalarini qayta ko'rib chiqish masalalari hisoblanadi.

<sup>79</sup> Manba; O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Ko'mitasi-O'zbekiston iqtisodiyoti-2002 yil SIMS

## **Mavzu bo'yicha nazorat savollari**

1. Investitsiya tushunchasi va uning mazmunini ochib bering?
2. Investitsiyani qanday shakllari mavjud?
3. Investitsiyalarni moliyaviy manbalashga qanday manbalar kiradi?
4. Investitsion kapital dastlabki va kelgusi qiymatlari qanday aniqlanadi?
5. Investitsion loyihalarni moliyaviy tahlil etish maqsadi va vazifalari nimada?
6. Investitsion loyihalar molivayi tahlil etishning mazmunini tushuntirib bering?
7. Loyihalar samaradorligini baholash qanday amalga oshiriladi?

# **Adabiyotlar ro'yxati**

## **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. «O'zbekistonning siyosiy-iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari». T.; «O'zbekiston» 1995.
2. Karimov I.A. «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». T.; «O'zbekiston» 1996.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». T.; «O'zbekiston» 1996.
4. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari». T.; «O'zbekiston» 1998.
5. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». T.; «O'zbekiston» 1997.
6. Karimov I.A. «O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz». T.; «O'zbekiston» 1999.
7. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». T.; «O'zbekiston» 1999.
8. Karimov I.A. «Iqtisodiyotni erkinlashtirish – farovonlik poydevori». T.; «O'zbekiston ovozi» gazetasi 2000 yil, 22-iyul.
9. Karimov I.A. «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz». T.; «O'zbekiston» 2000.
10. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. «O'zbekiston ovozi» gazetasi 1996 yil 17-sentyabr.
11. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. «O'zbekiston ovozi» gazetasi 1996 yil 30-may.
12. O'zbekiston Respublikasining investitsion faoliyat to'g'risidagi qonuni, 1998 y., 24-dekabr
13. «Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarini shakllanishi» haqidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. 1999 yil, 5-fevral.
14. O'zR.Moliyav vazirligi «Moliyaviy hisobotni tuzish va topshirish tartibi to'g'risidagi Nizomi» 1997 yil 15-yanv. 5-son
15. Abdukarimov I.T. «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari». T.; «Iqtisodiyot va huquq dunyosi». 1999.
16. Abdullaev g'.A., Ibragimov A.T., Raximov M.Yu. «Iqtisodiy tahlil: 100 savol va javob». T.; «Mehnat» 2001.
17. Vaxobov A. V., Ibragimov A. T. "Moliyaviy tahlil". T.; "Sharq" 2002.

## **Qo'shimcha adabiyotlar**

18. Akramov E. Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya. T.:GNITI, GANT , RUZ
19. Analiz pribilnosti produktsii. M.; «Delo» 1996.
20. Artemenko V.G., Belandir M.V. «Finansoviy analiz». Uchebnoe posobie. M.; NGAEiU 1997.
21. Astaxov V.P. «Analiz finansovoy ustoychivosti firmi (protseduri svyazanniy s bankrotstvom)». M.; «Finansi i statistika» 1996.

22. «Analiz finansovoy otchetnosti predpriyatiy pri ix investirovaniii i kreditovaniii». M.; «Finansi i statistika» 2000.
23. Bakanov M.I., Sheremet A.D. «Teoriya ekonomiceskogo analiza». M.; «Finansi i statistika» 1999.
24. Bernstein A.A. «Analiz finansovoy otchetnosti». M.; «Finansi i statistika» 1996.
25. Bocharev V.V. «Upravlenie denejnim oborotom predpriyatiy i korporatsiy». M.; «Finansi i statistika» 2001.
26. Bocharev V.V. «Finansoviy analiz». Sankt-Peterburg; «Piter» 2001.
27. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari». T.; 1994.
28. «Buxgalterskiy analiz». Perevod s angliyskogo. Kiev 1998.
29. Vaxrin P.I. «Finansoviy analiz kommercheskix i nekommercheskix organizatsiyax». Ucheb posobie. M.; «Izdatelstvo – knigotorgovix tsentr marketing» 2001.
30. Grigorev Yu.A. «Uchet, analiz i kontrol vneshneekonomiceskoy deyatelnosti i valyutnix operatsii». M.; «PAIMS» 1998.
31. Efimova O.V. «O sostavlenii poyasnitelnoy zapiski k godovomu otchetu». J. «Buxgalterskiy uchet» №1. 1997.
32. Efimova O.V. «Finansoviy analiz». M.; «Buxgalterskiy uchet» 1996.
33. Ergeshev E. «Iqtisodiy va moliyaviy tahlil». T.; «Moliya» 2000.
34. Ibrohimov A.T. «Moliyaviy tahlil». T.; «Mehnat» 1995.
35. Irvin D. «Finansoviy kontrol». M.; «Finansi i statistika» 1998.
36. Kempbell R. Stanli L. Ekonomiks 2-tom. M.; Respublika 1992 g.
37. Kovalev V.V. «Finansoviy analiz. Upravlenie kapitalom. Vibor investitsii. Analiz otchetnosti». M.; «Finansi i statistika» 1995.
38. Kovalev V.V. «Metodi otsenki investitsionix proektov». M.; «Finansi i statistika» 2001.
39. «Natsionalnie standarti buxgalterskogo ucheta Respublikи Uzbekistan». Tashkent «Assotsiatsiya buxgalterov i auditorov Uzbekistan» 2002.
40. Pardaev M.Q. Moliyaviy tahlil metodologiyasi. Sam. 1998
41. Pardaev M.Q., Isroilov B.I. «Moliyaviy tahlil». T.; «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» 1999.
42. Pardaev M.Q. «Iqtisodiy tahlil nazariyasi». Samarqand; «Zarafshon» 2001.
43. Pavlova L.N. «Finansoviy menedjment». M.; «YuNITI-DANA» 2001.
44. Patrov V.V., Kovalev V.V. Kak chitat balans. M.: Finansi i statistika, 1993 g.
45. Rahmonov Q.R. «Qishloq xo’jalik korxonalarini faoliyatini tahlil qilish». T.; 1996.
46. Robert N. Xolt. «Osnovi finansovogo menedjmenta». Perevod s angliyskogo. M.; 1995.
47. Rojnova O.V. «Finansoviy uchet: Teoreticheskie osnovi, metodologicheskiy apparat». M.; «Ekzamen» 2001.
48. Savitskaya G.V. «Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiy». I.P. «Finans» 2001.
49. Sorokina O.N. «Sravnitelniy analiz v osnovnie priemi transformatsii finansovoy otchetnosti v sootvetstvii s mejdunarodnimi standartami». M.; «UMTs» 2001.

- 50.Terexova V.A. «Mejdunarodnie i natsionalnie standarti buxgalterskogo ucheta i otchetnosti». M.; Izd «Perspektiva» 2000.
- 51.Tomas P. Karlin, Albert M.Maklinni «Analiz finansovix otchetov (na asnove GAAP)» M.: INFRA-M 1998.
- 52.To'laxodjaeva M.M. «Moliyaviy hisobotni va moliyaviy koeffitsientlarni tahlil qilish». T.; 1996.
- 53.«Finansovaya otchetnost. Realnaya kartina sostoyaniya biznesa». M.; «Delo» 1996.
- 54.«Finansoviy analiz deyatelnosti firmi». M.I. «Servis» 1996.
- 55.Fridman Dj., Orduei Nik. «Analiz i otsenka prinosyashchey doxod nedvijimosti». M.; «Delo» 1997.
- 56.N.Xasanov,S.Najmuddinov Korxona moliyaviy xolatini baholash( muammolar va ularni xal qilish) T.; Iqtisodiyot va xuquq dunyosi 1999.
- 57.Xarigeri Ch., Fostger G. «Buxgalterskiy uchet: Upravlencheskiy aspekt». M.; «Finansi i statistika» 1995.
- 58.Xoldervik K. «Finansovo-ekonomicheskiy analiz deyatelnosti predpriyatiya». M.; «Finansi i statistika» 1996.
- 59.Cherkasov V.E. «Prakticheskoe rukovodstvo po finansovo – ekonomiceskim raschetam». M.; «Metainform» 1995.
- 60.Eklaund K. Effektivnaya ekonomika,M.; “Ekonomika”,1991.
- 61.Sheremet A.D., Suits V.P. «Audit». M.; «INFRA» 1996.
- 62.Şozibekov D., Qoraliev T. “Investitsion faoliyatni tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish” T.; Matbaachi,1993 y., 6-bet
- 63.Şulomov S.S. «Investitsiyalarning loyihibaviy tahlili». T.; 1998.
- 64.Sharp U.F. Investitsii.Per.s ang.M.; INFRA-M, 2000g.979 str.
- 65.Robert D. Gatewood, Robert R. Taylor O.C. Ferrell Management /Comperehension, Analysis, and Application/ IRWIN, 1995
- 66.Joel G. Siegel, Jae K. Shim, David Minars Financial trouble – SHOOTER spotting & solving financial problems in your company Mc Graw - Hill, Inc. 1993.
- 67.David C. Colander. Economics IRWIN, 1993.
- 68.Donald H. Ph. G. William Glezen. Auditing: Integrated Concepts and Procedures sixth Edition. John Wiley & Sons, Inc., 1994.
- 69.I. Payl Peter, James H. Donnelly. Marketing, Management. Knowledge and Skills. IRWIN 1995.
- 70.Operations Managtmtnt. Richard I. Schonberger, Edward M. Knood. IRWIN, 1994.
- 71.George J. Posner. Analyizing the Curriculum. Mc Graw - Hill, Ink 1992.
- 72.Larson, Miller. Financial accountign. IRWIN, 1992.
- 73.Introduction to Accounting: An Integrated Approach. P. Ainsworth, D. Danies, R. D. Plumlee, Cathy X. Larson Irwin, 1997.